

R. XUDAYBERGANOV

RANGSHUNOSLIK VA KOMPOZITSIYA ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON BADIHY AKADEMIYASI

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI

R.A. XUDAYBERGANOV

**RANGSHUNOSLIK
VA
KOMPOZITSIYA ASOSLARI**

*5150800 — Rangtasvir yo'nalishi Oliy o'quv yurti
talabalari uchun o'quv qo'llanma*



*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019*

UDK 75.017.2(075.8)

BBK 85.14ya73

X 87

K. Behzod nomidagi MRDI Ilmiy Kengashining 2017–yil (№ bayonnomasi) qarori bilan nashrga tavsia qilingan.

Muallif:

R.A. Xudayberganov – O‘zbekiston xalq rassomi, professor

Taqrizchilar:

S.A. Abdullayev – O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, professor;

N.X. Tolipov – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Xudayberganov, R.

X 87 Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari [Matn]:/o‘quv qo‘llanma/R. Xudayberganov/Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 192 b. ISBN 978-9943-6134-5-4

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fani tasviriy san‘at ta‘limining muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Bu kitob rangtasvir bilan shug‘ullanuvchilarga rangshunoslik va kompozitsiya tuzilishi asoslari haqida keng ma‘lumot beradi. Rang tanlash mahoratini oshirish, rang bilan ishlashni teranroq talqin qilish, shuningdek, tekislikda tasvir kompozitsiyasini yaratish va uni maqsadga muvofiq amalga oshirish qonun-qoidalarini nazariy va amaliy tushuntirish ushbu qo‘llanmaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bulardan tashqari ranglar tabiati, kompozitsiya yaratish qonun-qoidalari haqida kengroq tushuncha berib, ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘llarini, tekislik, simmetriya, assimetriya, kontrast, ritm, harakat, turg‘unlik kabilarni o‘z ijodida maqsadli ishlata olish qobiliyatini o‘stirishdan iborat.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurti tasviriy san‘at muassasalarining talabalari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, yosh rassom va o‘qituvchi – pedagoglar ham foydalanishi mumkin.

UDK 75.017.2(075.8)

BBK 85.14ya73

ISBN 978-9943-6134-5-4

© R. Xudayberganov, 2019

© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019

I BOB

KIRISH

O'quv, ilmiy, ma'naviy — ma'rifiy ishlarda samaradorlikni oshirish bugungi kunning birinchi darajali vazifalaridan biridir. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan kelajakni yaratuvchi yoshlarning ma'naviy, jismoniy kamolotga erishishi borasidagi harakatlarida badiiy ta'limning ahamiyati beqiyos. Badiiy o'quv dargohlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi rangtasvir fani bilan bevosita bog'liqdir. Zero, rangtasvir asarini ishlash jarayonida talaba perspektiva, proporsiya, rangshunoslik, chizmatasvir, kompozitsiya, ashyoda ishlash kabi bilimlarni amaliyotda egallab boradi va bu malaka haqqoniy tasvirni yaratishga, mahoratini oshirishga ko'mak beradi.

Inson tabiatdan rassomdir. U o'z hayotida ko'rgan, bilgan narsalarini, voqealarni boshqalar bilan baham ko'rishga, o'zi ko'rgan go'zal tabiatni, inson go'zalligini ta'riflashga, tavsiflashga intiladi.

O'quv adabiyotlarida rangtasvirning asosiy maqsad va vazifalari, naturadan tasvirlash jarayonidagi maxsus qonun-qoidalar, rang, rang turlari, turli bo'yoqlarda ishlash texnikasi kabi qimmatli ma'lumotlar va kompozitsiya asoslari sirlarini o'rganuvchi yosh rassomlar uchun zarur bo'lgan taklif — mulohazalar keng bayon etilgan.

Ushbu qo'llanma rangtasvirda tus va rang munosabatlarini belgilash uslublari, rangtasvir asarini ishlash jarayonidagi ko'zning ko'rish qobiliyati yoki ko'rish his tuyg'usining o'ziga xosliklari bilan bog'lik umumiy rang va kompozitsiya saboqlari yoritilgan. Shu bilan birga tus va rang munosabatlari, ularning naturaga proporsionallik xususiyatlari, umumiy tus va rang holati, ularni rangtasvir asarida aks ettirish, o'zaro taqqoslash kabi masalalarga ham alohida tuxtalib o'tilgan.

Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanini chuqurroq tushunish maqsadida uni boshqa bir qator fanlar, ya'ni fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va estetika fanlari bilan bog'lab o'rganiladi. Bu, o'z navbatida, rangning fizik, kimyoviy, psixofiziologik va estetik xususiyatlarini atroflicha o'rganishga keng imkoniyat yaratadi.

Rangshunoslik — murakkab va ko'p mehnat talab etuvchi san'at turidir. Uni egallash uchun doimiy izlanish va uzluksiz mehnat qilish, balki buyuk rangtasvir ustalarining tajribalari misolida rangtasvir san'ati nazariyasini egallab borish ham muhimdir. Bu jarayon talabalarda rangtasvir mahorati mukammallashib borishini tezlashtiradi.

Mazkur qo'llanma rassomlik san'atini o'zlashtirayotgan boshlang'ich rangtasvirchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda keltirilgan fikr-mulohazalar mustaqil ishlash jarayonida oddiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. Biroq har bir rassom ijodiy malakaga tinimsiz mehnat hamda hayotning rang-barang hodisalarini kuza-tish va anglash orqali erishadi.

Shuning uchun ham yosh rassomning tabiat va undagi aniq hodisalarni o'tkir «ijodkor nigohi» orqali sinchkovlik bilan ko'ra olish qobiliyatini shakllantirish lozim. Albatta, uning rangtasvir asarlari go'zallikka yo'g'rilgan badiiy fazilatlarini ham o'zida mujassam etishi zarur.

Rang bilan ishlash jarayonini bevosita eng sara san'at asarlari namunalari o'rganish bilan uzviylikda olib borish kerak. Bu yosh rassom uchun nafaqat uning ongi va estetik didini rivojlantiruvchi ma'naviy ozuqa, balki asosiy professional malakaga erishish yo'li hamdir.

Kompozitsiya bilan faqat rassomlargina emas, balki yozuvchilar, bastakorlar, dramaturglar, arxitektorlar umuman barcha san'atkorlar shug'ullanib keladilar.

Badiiy asar yaratish uchun rang va kompozitsiya qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, uning asoslarini fan sifatida o'rganish ham shuncha muhim hisoblanadi. Asar kompozitsiyasini yaratishdan oldin ranglardan foydalanish va kompozitsiya asosini o'rganish katta ahamiyatga egadir.

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari»ni o'rganish o'quv kursi rangni his qilish, rangni aralashtirish, uning yorug'lik ta'sirida o'zgarishi va kompozitsiya qonun qoidalarini, shuningdek, o'quv jarayonidagi kurs vazifalari ustida ish olib borishni nazarda tutadi.

Yosh rassomlar «Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fani ni o'zlashtirishda zaruriy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Chunki bu fan bo'lajak rassom uchun juda muhim bo'lib, u badiiy asar yaratishda katta yordam beradi.

«Kompozitsiya asoslari» fani talabaga atrof-borliqni unumlashtirishni va ma'nosini tushunishni, kuzatayotgan narsalarini badiiy obrazlarda aks ettirishni o'rgatadi.

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari»ni o'rganish bosqichma-bosqich maqsadli metodologik asosda plastik shakl yechimini murakkablashtirib olib boriladi.

Rang va kompozitsiyaga qarab fikrlash qobiliyatni o'stirishda «Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari»dan mustaqil vazifalar ishlash katta rol o'ynaydi. U o'qish jarayonining davomi bo'libgina qolmay, balki bo'lajak rassomning shaxsiy qobiliyatini ham o'stiradi, uning tevarak atrofni va borliqni kuzatishda ijodiy fikrlashini oshiradi.

Asar kompozitsiyasi ustida ishlash davomida asosiy g'oyani va asar mazmunini ochib berish uchun kompozitsiya asoslari vositalaridan foydalanadilar.

Qo'llanmada ko'pgina ranglarning o'zbek tilidagi nomlarini turg'unlashtirishga harakat qilindi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilida shu sohaga oid bo'lgan atamashunoslikni boyitishga xizmat qiladi.

Muallif ushbu qo'llanmani yozishda o'zbek, rus va ingliz tillaridagi bir qancha adabiyotlarga hamda o'zining ko'p yillik ilmiy, ijodiy, pedagogik tajribasiga tayandi.

1.1. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari haqida

Rangshunoslik fani insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan. Inson tevarak-atrofi, muhiti rangli buyumlardan, manzaralardan, shakllardan, kiyim-kechaklardan va shu kabilardan tashkil topganligini ko'rib, undan ma'naviy, ruhiy oziqa oladi. O'ziga ma'qul kelgan rangdagi narsalarni ishlatadi. Ruhiga mos ranglardan xursand, ruhi esa tetik bo'ladi. Shuning uchun biz rangga befarq emasmiz, unga diqqat bilan qaraymiz, tanlaymiz. Ana shuning uchun ham rangshunoslik fani insonga yaqindan xizmat qiladi.

Bu fan ranglarning turlari, ularning bir-biriga nisbatan hamohangligini, kontrastligini, tusini ko'zimiz orqali idrok qilishimizga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, asosiy va qo'shimcha ranglar, ya'ni ular yordamida hosil bo'ladigan ranglarni his qilishimizni, ularni amalda aniqlay olishimizni mashq qilishni ham nazarda tutadi.

Bu fan ranglar bilan bog'liq kasb egalari uchun yaqindan yordam beradi.

Rang haqidagi ilmda — rassomlarni qiziqtiradigan savollar rangshunoslar tomonidan rangshunoslar tomonidan ko'p o'rganilgan bo'lib, yorug'lik, masofa, qo'shni rang ta'siri, bo'yoqlar aralashuvi, kolorit kabilar shular jumlasidandir.

Rangshunoslik fan sifatida eng qadim zamonlarda dunyoga keldi. Er. avv. IV asrda Yunon olimi Aristotel rang va rangning har xil ko'rinishini tushuntirib berishga harakat qildi. Italiya uyg'onish davrida yashagan olim Leonardo da Vinchi¹ o'zining «Tasviriy san'at haqida risola» asarida rassomlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan rang haqida ma'lumot beradi.

Rangshunoslik — yosh fan bo'lib, o'tgan asrda mustaqil fan sifatida olimlarning diqqat-e'tiboriga tushdi. O'tgan davr buyuk rassomlari va nazariyotchilaridan: Chekkino Chennini (1400 yilar), Leon Battista Alberti (1404—1472), Pero della Franchesko (1416—1492), Leonardo da Vinchi (1452—1519), Djordjo Vazari (1511—1574), Djanpaolo Lomasoo (1539—1600), Aibrext Dyurer (1471—

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World.

1528), Fransisko Pacheko (1564–1654) kabilar rangtasvir haqidagi izlanishlarida rang haqida yozib qoldirganlar. Buyuk fan namoyondalari: Nyuton (1642–1727) va Lomonosov (1711–1765) ham rang haqida izlanish olib borganlar. Lomonosov asosiy ranglarni kashf etdi. Buyuk nemis shoiri va tabiatshunosi Gyote (1749–1832) «Rang haqida fan» asarini yozib qoldirgan. Shuningdek, Van Gog, Salvador Dali, Rafael Santi, Mikelanjelo, Rembrand, Gans Golbein, Sandro Botichelli, Rafayel kabi buyuk rassomlar oʻz asarlarida ranglardan mohirona foydalanaganlar¹.

Rassomlarning rang oʻzgarish qonunlarini bilishi katta ahamiyatga ega. Rangshunoslik ijod qilish usullarini oʻrgatmasa-da tabiatda ranglar bilan bogʻliq oʻzgarishlarni tushuntirib, rangtasvirchi rassomlar ijodiga yaqindan yordam beradi.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik boʻlgʻusi rassomlarga ranglarning tabiatda hosil boʻlishi va tarqalishi masalalarini, atrof-muhit taʼsirida oʻzgarib koʻrinishini, boʻyoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yoʻllarini oʻrgatadi.

Oʻzbekistonda ranglar haqidagi taʼlimot qadimdan kitob minatyurasi, naqqoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan bogʻliq holda rivojlanib kelgan (*1-rasm; a, b*).

Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ish bilan bogʻliq kimyoviy jarayonlarini oʻrgangan.

Ranglarning tabiatda qanday hosil boʻlish va tarqalish hodisasi qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uygʻonish davri buyuk rassomlari va nazariyotchilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

«Rangtasvir asarining kuchi har qanday sanʼatdagidek shakl mohiyati teranligi va mukammalligidadir. Faqat muhim, ilgʻor gʻoyaning va ilgʻor kasbiy mahoratning birlashuvigina asl sanʼat asarini yuzaga keltiradi. Agar rassomning ijodiy fikrlashi uning

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. I bob.

ruhiy kuchi bo'lsa, rangtasvir texnikasi unga zarur texnik qurol bo'lib xizmat qiladi va uning rassomchilik yutuqlarining amaliy negizini tashkil qiladi»¹.

Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p ranglarga taqsimlanib ketishini isbotlagan va ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Nyuton quyosh yorug'ligi asosida o'z nazariy farazini amalda isbotladi. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini uch qirrali prizmadan o'tkazib, ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi hosil qildi. Ekranda ko'ringan ranglar spektr ranglar bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan edi: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsha rang (2-rasm).

Maxsus asbob — spektroskop yordamida ko'plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilish mumkin.

Oq yorug'lik aslida murakkab bo'lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli-tumanki, bir rangdan ikkinchisiga o'tishda yana bir qator rang turlari seziladi. Spektr ranglarni yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin osimonda paydo bo'ladigan kamalakda, favveralardan otilayotgan suv zarralarida kuzatish mumkin (3-rasm). Spektr ranglar bir joyga to'plansa, oq yorug'lik hosil bo'ladi.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V. Gyoteni ko'proq ranglarning kishi tanasiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote «Ranglar haqidagi ta'limot» nomli asarida ranglarni iliq va sovuq turlarga ajratib, iliq (sarg'ish — qizil) ranglar kishida xursandlik hissini uyg'otishi haqida yozgan.

XIX asrda yashagan nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik nazariyasida muhim yanglik yaratdi. U ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarni tusi, och yoki to'qligi va to'yinganligi kabi uchta asosiy alomati asosida turkumlash kerakligini ko'rsatadi.

Rang muammolarini o'rganishga yapon olimlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokio rang insti-

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. 1 bob.

tutida insonga ta'sir etadigan tabiat hodisasi bo'lgan rang ilmiy tadqiq etiladi. Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisi ko'k, uchinchisi binafsha va hokazo deb atalishiga asos bo'lgan belgi rang tusi deyiladi.

Biror xromatik rangga ozroq kulrang qo'shsak, uning sho'x-chanligi pasayib nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi deganda, uning kui ranggiga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushunish kerak.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, xromatik ranglar bir-biridan rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi kabi uchta xususiyati bilan farq qiladi. Spekrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatini sezamiz.

«Quyosh spektri shkala-daraja ko'rsatkichining butun uzunligi bo'yicha eng yuqori yorqinlik va ranglarning eng boy tarkibi bilan xarakterlanadi. Bunday yorug'lik sababli quyosh ostidagi turli rangdagi predmetlarning ko'pi aks etuvchi yorug'lik manbai bo'lishi mumkin. Quyosh nuri bilan yoritilgan predmetlarni haqqoniy tasvirlovchi kartina quyosh spektrining o'zi kabi birinchidan, umumiy yorug'ligi bilan, ikkinchidan, ko'p ranglilik bilan, uchinchidan, to'q joylarning kamligi bilan ajralib turadi»¹.

Ikkala rang bir-biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan rangni qizil va binafsha rangning o'rtasiga joylashtirib spektr tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi (*4-rasm*).

«Rang doirasi — bu elektromagnit spektrning aylana bo'ylab joylashgan, ko'rinadigan qismidir»².

Ranglar doirasida qizil, qizg'ish — zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, zangori, havorang, ko'kimtir havorang. ko'k, ko'kimtir — binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko'rinadi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz 180 taga yaqin rangni ajratishga qodir. Ranglarning

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. 1 bob.

² Richard Shmidt. ALLA PRIMA. 1 bob.

doira bo'ylab joylashish tartibi saqlanib qoladi. Rang doirasi ikkita teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish – yashil (pistoqi) ranglar bo'lib, ular issiq rang guruhiga kiradi. Ikkinchi yarmida esa yashil, havorang, feruza, zangori, ko'k, binafsha ranglar bo'lib, ular sovuq ranglar guruhi hisoblanadi. Bunday nomlanishiga sabab – qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatadi, havorang, zangori, yashil ko'k ranglar esa muzning, suvning ranggini esalatadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib, har qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyulishi mumkin (*5-rasm*).

Shunday ranglarda ishlangan rassomlarimizning rangtasvir asarlariga nazar tashlasak, asarning umumiy rang tuzilishida yorqin, sho'xchan rangdagi bo'yoqlar ishlatilganini ko'ramiz. Och havorang, och sariq, to'q sariq, zarg'aldoq, och qizil, pushti va shunga o'xshash ranglarga ko'zimiz tushadi. Rassom asarlarida issiq va sovuq ranglar har doim yonma-yon turishini kuzatishimiz mumkin.

Buning uchun esa ranglarni aralashtirib, rang tuslarini tayyorlashni yaxshi bilishimiz kerak.

Savollar:

1. Rangshunoslik fani nimani o'rganadi?
2. Rangshunoslikni kimlar o'rganagan va ilmiy ishlar olib borgan?
3. Spektr ranglari qaysilar?
4. Gyote ranglarning qaysi tomonlarini o'rganagan?
5. Rangshunoslikning rassomchilikdagi o'rni?
6. Rang doirasi nima?
7. Asosiy ranglar qaysilar?
8. Ko'zimiz nechta rangni ajrata oladi?

1.2. Kompozitsiya asoslari haqida

Kompozitsiya vositalarini o'rganishga katta e'tibor qaratib, uning plastik formasini badiiy obrazlarda ochib berish eng muhim ahamiyat kasb etishini o'quvchiga tushuntirish zarur. O'qish

jarayoni dunyodagi yetuk badiiy asarlar va xalq san'ati asarlarini tahlil qilish, tushuntirish asosida olib boriladi. Shuningdek, badiiy asar g'oyasini ochib berishda qo'llangan kompozitsiya vositalarini tushunishga ko'nikma hosil qilinadi.

Kompozitsiyani o'rganish, badiiy asar ustida ishlash va uning ayrim bosqichlari ahamiyatini tushunish, biron bir fikr orqali mazmunli badiiy asar yaratish talabada ko'nikma hosil qilishi kerak.

Plastik badiiy obraz yaratishda g'oya va tuyg'u birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Talabalar kompozitsiya asoslarini o'rganishda dastlabki o'quv mashg'ulotlardan boshlab kompozitsiya qonun-qoidalari, vositalari, usullari, borliqni kartina tekisligida yechish, tasvirlash usuli va uslublarini izchillik bilan o'rganadilar.

Kompozitsiya asoslarini o'rganish o'quv vazifalarining mavzu bo'yicha tasviriy amaliy eskizi, shuningdek, o'quv jarayonidagi kurs vazifalari, shakllar ustida ish olib borishni nazarda tutadi.

Kompozitsiya asoslari mavzusi ustida ishlash jarayonida chizmatasvir, qoralama ashyolardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Talabaning kompozitsiya asoslari fani yuzasidan fikrlash va ko'nikma qobiliyatini o'stirish uchun o'z ustida mustaqil ishlashi katta rol o'ynaydi. U nafaqat o'qish jarayonining davomi, balki bo'lajak rassomning shaxsiy qobiliyatini o'stiradi, tevarak-atrofni va borliqni kuzatishda ijodiy qobiliyatini oshiradi.

Teksilikda kompozitsiya asosiy qonun-qoidalaridan foydalanish, mashq eskizida shakllar, qiyofalar, planlar orqali ko'rsatish bilimiga ega bo'ladi.

Kompozitsiya asoslari fan dasturining keyingi bosqichlarida plastik yechim va zamonaviy uslublar tanishtirilib boriladi. Shuningdek, kompozitsiya asoslaridan vazifalar asta-sekin murakkablashib boradi.

Kompozitsiya asoslari fani o'quv jarayoni rangtasvir, chizmatasvir, ashyoda ishlash kabi fanlar bilan uzviy bog'langan holda davom ettiriladi.

1.3. «Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fanining maqsad va vazifalari

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fani malakali mutaxassis rassom tayyorlovchi, uning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkor rassom ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, badiiy asar kompozitsion qurilishini o'rgatuvchi fan sifatida muhim ahamiyatga ega.

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fanini o'qitishdan maqsad — talabalarda rangtasvir kompozitsiyasini yaratish, turli usul va qoidalaridan foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

Kompozitsiya asoslari fani mukammal kompozitsiya yaratish qonun-qoidalarini, vositalarini o'z ichiga qamraydi.

Bo'lg'usi ijodkor mutaxassislar tasviriy san'atning realistlik maktab an'analarini o'rganish, saqlash hamda rivojlantirishda hozirgi zamon tasviriy san'ati yangi pog'onalarini egallash, yaratilgan asarlarning badiiy ta'sirchanligini anglash, his etish va uning badiiy g'oyasini oshirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishi kerak. Malakali rassom tayyorlash uchun «Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fani muhim ahamiyatga ega.

Fanning vazifasi — badiiy obrazga mos elementlarini hisobga olgan holda kompozitsiya yaratish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Shuningdek, rangtasvir kompozitsiyasining asoslari, vazifasi, kompozitsiyaning ahamiyati haqida tushuncha berish muhim ahamiyatga ega.

«Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» fanining asosiy maqsadi obrazli va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, hayotdagi go'zallikni, yangilikni, ilg'orlikni ko'rabilishni tarbiyalash jarayonidan iborat bo'ladi.

«Kompozitsiya asoslari» fani mukammal kompozitsiyali asar yaratish qonun qoidalarini, vositalarini o'z ichiga qamraydi. Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarda rangtasvir kompozitsiyasini yaratishda turli usul, qoidalaridan foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir. Shuningdek, rangtasvir kompozitsiyasining vazifasi, uni

mavzu bilan bog'lash, kompozitsiya asosining ahamiyati haqida tushuncha berishdan iborat.

Rassom ijod qilayotgandagina yoki bevosita san'at asarlari yaratayotgandagina san'atkor bo'lib qolmay, u san'at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini tushunishi zarurdir. Buning uchun esa fikr, g'oyani qandaydir tartibda ifodalash, tasvirlash tartib qoidalari kompozitsiya asoslari fani katta yordam beradi. Shuning uchun qo'llanmada kompozitsiya asosi, uning vositalari, kompozitsiya elementlaridan; simmetriya, assimetriya, format (tekislik), masshtab, kontrastlar va boshqalar haqida bayon qilishga harakat qilindi.

«Kompozitsiya asoslari» badiiy asar yaratish ustida ishlash bosqichlari ahamiyatini tushunishni, biron bir fikr orqali mazmunli badiiy asar yaratishni ko'nikma hosil qilish orqali o'rgatadi.

Kompozitsiya asosini, uning qonun-qoidalari, tasvirlash usuli va uslublarini dastlabki o'quv mashg'ulotlardan boshlab izchillik bilan o'rganadilar.

Savollar:

1. Kompozitsiya asoslari fani nimani o'rgatadi?
2. Kompozitsiya asoslari qanday fanlar bilan bog'liq?
3. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fani nimani o'rgatadi?
4. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari qanday fanlar bilan bog'liq?
5. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanini o'rganishdan maqsad nima?
6. Kompozitsiya elementlari nima?
7. Kompozitsiya asoslari o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?
8. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari fanining vazifasi nima?

2.1. RANGNI HIS QILISH

◆ Axromatik va xromatik ranglar.

Rassom o'z ijodida chiziqlar, shakllar va ranglar yordamida asarlar yaratar ekan, rang sezish qonuni alohida ahamiyatga egadir.

Odatda ko'rish sezgisi ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh — *axromatik* ranglarni sezish turkumi: unga qora, oq va kulrangning qoradan ochrang turigacha kiradi (*6-rasm*).

Ikkinchi guruh — *xromatik* ranglarni sezish turkumi: unga qora, oq va kulrangdan boshqa, ya'ni qizil, qovoq rang, ko'k, moviy, yashil, sariq va boshqa ranglar kiradi (*7-rasm*).

Shuni ham aytish kerakki, axromatik rangga faqat toza oq, kulrang va qora rang kiradi. Ulardan farq qiladigan qizilroq, ko'kimtir yoki sarg'ishsimon ranglar *xromatik ranglar* hisoblanadi.

Ranglarni aralashtirish Nyutonning alohida izlanishlari quyidagi asosiy qonunlarga bo'ysunadi.

Birinchi qonun. Har bir xromatik rangda boshqa bir xromatik rang mavjud bo'lib, ularning aralashmasidan axromatik rang paydo bo'ladi.

Bunday juft ranglar bir-biriga qarshi (kontrast) bo'ladi, ular qo'shimcha ranglar deb ataladi. Masalan: sariq rangga binafsha rang, qizil ranga yashil rang, yashilsimon rangga olcha rang va boshqalar.

Ikkinchi qonun. Qo'shimcha rang bo'lmagan ikki rangning aralashmasi uchinchi yangi rangni (oraliq) paydo qiladi. Qizil va ko'k rangni aralashmasidan binafsha rang hosil bo'ladi, ko'k va sariq rangdan yashil rang hosil bo'ladi va boshqalar.

Uchinchi qonun. Rang aralashirilayotganida uning spektr turkumiga bog'liq emas. Ya'ni aralashirilayotgan rang boshqa ranglar aralashmasidan tuzilgan bo'lishi ham mumkin (*4-rasm*).

Masalan: sariq bilan qizil rang aralashmasi sariq yoki qizil spektr rangiga mos kelishidan qat'iy nazar qovoqrang hosil qiladi.

Inson ko'z orqali atrofidagi ma'lumotni qabul qilib oladi. Uning tuzilishi juda murakkab bo'lib, u anatomiya kursida o'rganiladi. Ko'z qatlami juda sezgir bo'lib, nerv markazi qalamchalari bilan bog'langandir. Qorong'ilikda ko'z atrof-muhitni oq-qora (axromatik) rang tuslarida qabul qiladi. Kunduz kuni esa ko'p rangli (xromatik) tUSDagi tasvirini ko'radi.

Ko'zning spektr sezishi. Odam ko'zi axromatik va xromatik ranglarning 10000 xil rang tusini farq qila oladi. Shu bilan birga ko'z o'rtacha yorqinlik darajasidagi spektrning (binafsha, zangori, moviy, yashil, sariq, zarg'aldoq, qizil) 180 xil rang tusini aniqlay oladi.


Ranglarni his qilishda ko'zning xususiyati. Rassomlar ishida (ijodida) ranglarning bir-biriga ta'siri muhim ahamiyatga ega.

Chexoslovakiyalik olim Yan Evangelist Purkine (1787–1869) ko'p sinovlar yordamida yorug'lik o'zgarishiga qarab har xil shakl rangi yorqinligi va rang to'liqlini uzunligi o'zgarishini aniqladi. Har xil yorug'lik o'zgarishi ko'zimiz spektr sezuvchanligi bilan bog'liqdir. Boshqacha qilib aytganda kunduz kundan qorong'ulikka o'tganda ko'z ham shunga qarab moslashadi yoki adaptatsiya hosil bo'ladi (*8-rasm*).


Adaptatsiya (Ko'nikma, ko'nikish). Biz yorug'likdan qorong'i xonaga kirar ekanmiz, ancha vaqtgacha atrofidagi shakllarning tusini va rangini tez aniqlay olmaymiz. Chunki odamning ko'zi darrov ko'nika olmaydi. Shuningdek, qorong'ilikdan yorug'likka chiqqanimizda ham ko'zimiz birmuncha qisilib, atrof-muhitni anglay olmasligimiz mumkin. Bu holatni adaptatsiya, ya'ni ko'nikish deb ataymiz.

Ikkala holatda ham biz shakllarning rangi va tusini birmuncha aniqlay olmaymiz. Buning uchun biroz ko'zimizni chiniqtirib kuza-tishga to'g'ri keladi. Shu holatda faqat tus farqlarini anglayolsak, keyinchalik ranglar farqini aniqlaymiz. Ammo nozik farqlarini biroz vaqtdan keyin anglashimiz mumkin.

Shunday qilib yorug'likdan qorong'ulikka o'tganda ko'z oldimizda qizg'ish-zarg'aldon spektr ranglari quyuqlashganini va



1-rasm, a) 1 – shox parda; 2 – qorachiqlar
 b) 1 – koʻrish nervlari; 2 – koʻk dogʻ; 3 – tomirli qobiq; 4 – sariq dogʻ;
 5 – shishasimon tana; 6 – oqsil parda; 7 – yoy parda; 8 – gavhar;
 9 – shox parda



Diafragma

8-rasm. Koʻz sxemasi

yashil — ko'k ranglar esa oqarishini ko'ramiz. Masalan, qizil atirgulni va ko'k gulni ikki xil darajadagi yorug'likda taqqoslab ko'raylik. Bu tajribani kuzatganimizda kechqurun qizil atirgul qoramtir bo'lib ko'rinsa, ko'k gul esa ancha oqishroq ekanligini ko'ramiz.

Kontrast tevarak-atrof rangli fon ta'siri ostida hosil bo'ladi. Rang kontrasti, rang tusi tozaligi va yorqinligini rang sezish o'zgarishi ta'sirida ko'rish mumkin. Rang o'zgarishini sezishimizni qarama-qarshi fondagi rangning o'zaro ta'sir kuchi oshiradi. Masalan, kulrang doira bo'lakchasi oq rang fonida to'qlashadi, qora fonda esa oqaradi. Shunga e'tibor berish kerakki, rang o'zgarishi qo'shimcha ranglar yo'nalishida hosil bo'ladi. To'q qizil rang qo'shimchasi yashil rang, sariq ranga esa ko'k rang hisoblanadi (9-rasm).

Qaysi rang ko'proq yuzani olsa shu rangning kontrast ta'siri kuchlidir. Masalan: agar qizil tekislikda kichkina yashil rang bo'lakchasi bo'lsa, uning qizil rangga nisbatan kontrast ta'siri ko'proq bo'ladi.


Savollar:

1. Axromatik rang qanday paydo bo'ladi?
2. Xromatik ranglar qaysilar?
3. Uch qonunning bir-biridan farqi nimada?
4. Adaptatsiya (ko'nikma) nima?
5. Ranglarni his qilishda ko'zlarning qanday xususiyati bor?
6. Rang haqida Nyutonning birinchi qonuni qanday?
7. Rang haqida Nyutonning ikkinchi qonuni qanday?
8. Rang haqida Nyuton uchunchi qonuni qanday?
9. Yan Evangelist Purkine kim?

2.2. Bir vatqning o'zida taqqoslash (solishtiruv)

Qanday qilib bir vaqtning o'zida shakl va rangdagi yorug'lik fazoviy makon, perspektiva ta'siriga asoslangan o'zgarishlarni ko'rish mumkin? Nur-soya va ranglar munosabatani qay tarzda belgilash mumkin?

Ma'lumki, buyumlarning sifat va xususiyati boshqa buyumlarning sifat va xususiyati bilan taqqoslash natijasida anglanadi.



«Taqqoslash, — deb aytadi Q.D. Ushinskiy, — har qanday tushuncha va har qanday fikrning asosidir. Olamda barcha narsalarni taqqoslash orqaligina o'rganamiz. Agar bizning qarshimizda hech qanday jism bilan solishtirish yoki farqlash mumkin bo'lmagan jism tursa va bu jism haqiqatda mavjud bo'lsa, biz u haqida hech qanday fikr va hattoki hech qanday so'z ayta olmas edik».

Rassom shakl va ranglarning proporsional munosabatlari bilan ishlaydi. Tasvirlash jarayonida naturada mavjud bo'lgan o'zaro farqlarni saqlab qolishga harakat qiladi. Bu farqlarni esa buyumlarni o'zaro taqqoslash orqaligina ko'rish mumkin.

Turli masofada joylashgan buyumlarning o'zaro tafovutini taqqoslagan holda, ya'ni ularning kattaligi, yorug'lik darajasi va rang sifatlari orasidagi farqni solishtirish natijasida har bir buyumning o'ziga xos perspektiv o'lchamini va rangini aniqlash mumkin.

«Predmetlar qiyofasini biz tunda g'ira-shira, kunduzi aniq ko'ramiz. Yorug'lik predmetlar chegaralarini namoyon qiladi, qorong'ilik ularni berkitadi»¹.

Rassom — pedagoglar proporsiya va tus munosabatlarini belgilashning naqadar muhim ekanligini ta'kidlash maqsadida odatda o'z shogirdlariga quyidagi jumlaning tez-tez takrorlab turishadi: «Insonning bosh qismini tasvirlash jarayonida, uning oyog'iga e'tibor qarating va aksincha oyoq qismini chizish jarayonida insonning boshiga ahamiyat bering». Mazkur g'ayritabiiy jumlada haqqoniy mohiyat mavjud. Zero, predmet va obyektlarning o'lchami, yorug'lik darajasi va rang sifatlarini o'zaro taqqoslash orqali ularning aniq kattaligi yoki rangini belgilash hamda buyum va ranglar orasidagi o'zaro tafovutni ko'rish mumkin.

Biroq taqqoslashdagi amaliy jarayonda ba'zi bir murakkabliklar bo'lib, buyumlarni deyarli odatiy ko'rib bo'lmaydi. Agar inson nigohi turli masofadagi shakl va obyektlarni bir vaqtning o'zida aniq va tiniq ko'ra olganda edi, taqqoslash jarayoni biroz yengil kechardi. Gap shundaki, inson nigohi bir qancha predmetlarga e'tibor qaratgan bo'lsa ham, ular bir xil qabul etilmaydi. Masalan:

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. III bob.

bir guruh buyumlarni ikki qismga bo'lib joylashtirilsa va yaqin masofada turgan birinchi qismga nigoh qaratilsa, ikkinchi qismdagi buyumlar noaniq ko'rinish kasb etadi. Yoki aksincha, uzoqroq masofaga joylashtirilgan ikkinchi qismdagi buyumlarga nigoh qaratilsa, ularning rangi hamda bo'rtma shakllari aniqlik kasb etib, birinchi qismdagi buyumlar noaniq ko'rinadi. Yana bir misol: agar kitobni ochib, ikki ko'z nigohi varaqning markaziga qaratilsa, hattoki bir xil masofa va bir xil tekislikda ham, besh-olti harfdan iborat bitta so'zdan ortiq so'zni ko'rish mumkin emas. Qolgan atrofdagi so'zlar yoki butun varaq noaniq ko'rinadi. Bu hodisa bir guruh narsalarni ko'rish jarayonida yagona predmet shakligina ko'z setkachadagi aniq ko'rish makoniga joylashish imkoniyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Sariq dog' deb shartli nomlangan bu makon tug'nog'ich boshidan biroz kattaroq o'lchamga ega. Tabiiy ravishda, inson nigohi bir buyum yuzasini yoki bir nechta buyumlarni aniq ko'ra olish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga turli masofada joylashgan buyumlarning shakl chiziqlari aniqligi, yorug'lik va rang sifatlarining farqi va o'xshashligini taqqoslash va belgilash uchun ularni bir vaqtning o'zida va bir xil aniqliqda ko'rish zarur.

Barcha obyektlarni bir vaqtning o'zida ko'rish — «bir varakayiga ko'rish» hamda barcha obyektlarni yaxlitlikda ko'rish — «yaxlitlikda his etish» jarayoni ko'rinayotgan naturaning nur — soya va rang munosabatlarini perspektiv va boshqa o'zgarishlar bilan belgilashga imkoniyatim beradi. Masalan: shahar manzarasi ko'rinayotgan ochiq deraza oldiga qo'yilgan guldastadan iborat natura joylashuvidagi nur — soya va rang munosabatlarini aniq topish uchun inson nigohi qamrayotgan barcha narsalarga deraza pardasi, guldasta va oyna ortidan ko'rinayotgan shahar manzarasiga bir vaqtning o'zida qarashiga va ularni ko'rish kerak bo'ladi.

Yaxlitlikda his etish natijasida inson ongida tasvirlanayotgan kartinaning umumiy qiyofasi muhrlanadi va rassom naturadagi turli obyektlarning rang munosabatlarini to'g'ri belgilay oladi.

Odatiy ko'rish jarayonida nur — soya va rang munosabatlarini aniqlashda qiyinchilik tug'diruvchi ko'rish xususiyatining yana bir o'ziga xosligi mavjud. Ma'lumki, turli darajada yoritilgan

yuzalarga nisbatan ko'rish hissiyoti o'zgaruvchandir. Natura joylashuvidagi yorqin yoritilgan obyektни ko'rish holatida buyumlarni taqqoslash va tus munosabatlarini topish jarayonida ko'zning his etish faoliyati kuchsizlanadi. Nur — soya va rangning nozik xususiyatlarini his etish qiyinlashadi.

Agar rassomning nigohi xira yoritilgan obyektga qaratilsa, aksincha, teskari jarayon sodir bo'ladi. Bu holat tus munosabatlarini to'g'ri belgilashga to'sqinlik qiladi, chunki buyumlar ko'zning turli xil ta'sirchanligida ko'rib chiqiladi.

Agar buyumning o'zigagina e'tibor qaratmasdan, bir vaqtning o'zida turli yoritilgan buyumlarning barchasiga qaralsa, ko'z doimiy yoritilish sharoitlarida bo'ladi va uning ta'sirchanligi o'zgaradi. Bu jarayon tuslardagi tafovutni to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Ko'rish his tuyg'usining yana bir o'ziga xosligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ko'rish markaziga yaqin masofada joylashgan naturadagi buyumlarni ko'rib chiqish jarayonida ularning nafaqat shakl chizig'i, balki, nur va soya o'yinlarining qaram-qarshiligi ham aniqroq ko'rinadi. Buyum ko'rish markazidan qay darajada yiroqlashgani sari, tusalarning o'zaro ziddiyati shu darajada kamayib boradi. Agar buyumlarni navbatma-navbat ko'rib chiqilsa, haqiqiy tus munosabatlarini belgilash qiyin bo'ladi.

Demak, ko'rish his tuyg'usining barcha xususiyatlari umumiy yaxlit ko'rishni, ya'ni ko'zni bir nuqtaga emas, balki bir vaqtning o'zida barcha obyektlarga qaratishni talab etadi. Rassom bir vaqtda nigohi bilan tasvirlanayotgan naturani qamrab olishni hamda barcha tusalarni diqqat markazida ushlashni o'rganishi darkor. Shu bilan birga, nigohni birgina qismga qaratish lozim emas. Aksincha, naturani ro'y-rost hamda barcha narsalarni barobar ko'rish jarayonida buyumlarning rang va yoruglik nisbatlarini solishtirish lozim: bu jarayonda nima ko'proq ko'zga tashlanayotganligi, nimalar esa ikkinchi darajaga tushib qolayotganligi, qaysi jismlar to'q qaysilari esa och tusda ekanligini belgilash kerak. Alohida jismlarga e'tibor qaratmaslik va ular bilan chalg'imaslik hamda naturada barcha buyumlarni barobar ko'ra olish maqsadida rassom-

lar tasvirlanayotgan naturani «tasavvurdagi teksilikda» jonlantirishni yoki ko'zni «keng yoki qisq holatda ochib ko'rish»ni tavsifi beradilar.

B.V. Ioganson to'g'ri munosabatlarni topish, omadli taqqoslash hamda barcha narsani bir vaqtda ko'rish borasida quyidagicha tavsif berib o'tgan: «Ikki-uchta tusni bir paytda ko'rish qiyindir, beshta va undan ortiq tusni ko'rish esa undan-da murakkabdir. Barcha tuslarni bir vaqtda ko'ra olish va *ifodalash* esa imkonsizdek tuyuladi. Bunga ko'zni doimiy tarbiyalash orqali *erishish* mumkin; ko'zni dastlab kichikroq va sekin asta kattaroq joyni nigoh bilan qamrab olishga o'rgatish zarur. Matoga tasvirlanishi lozim bo'lgan barcha narsani birgalikda ko'ra olish kerak. Shundagina aniq va to'g'ri olinmagan joylar orkestrdagi noaniq nota kabi qalbaki ko'rinish kasb etadi. Malakali rassom yaxshi dirijyor kabidir; dirijyor skripkani, fleytani, arfani va boshqa cholg'u asboblarni bir vaqtning o'zida eshita olgani kabi, u ham bir vaqtning o'zida barcha narsani ko'ra oladi».

Umumiy ko'rish xususiyatiga bog'liq bo'lgan mazkur usullarning barchasi ko'z setchatkasining aniq ko'rish markaziga tushayotgan narsalarga e'tibor qaratmasdan, naturani undan-da kengroq his etishga o'rgatishga qaratilgan. Bu jarayon barcha narsalarni bir vaqtda va bir xil aniqlikda ko'rish imkoniyatini beradi.

Bunday ko'rish usulida barcha buyumlar shakli va rangi noaniq his etiladi, biroq aynan shu dakikada naturani yaxlit ko'ra olish va his etish imkoniyati paydo bo'ladi hamda bu o'z o'rnida tus va rang munosabatlarini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, bir vaqtning o'zida ko'rish va buyumlarni o'zaro taqqoslash usuli orqali nur — soya va rang munosabatlarini belgilashga erishish mumkin. Rang munosabatlarini aniqlashda ularni umumiy yaxlitlikda ko'rish rangtasvirchining barcha ish jarayonida yetakchi o'ringa ega.

Buyumlarni o'zaro farqlash va taqqoslash uchun, avvalombor, bir buyum rangini boshqasidan qanday ajratish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lish muhim. Rangning asosiy xususiyatlari bilan yaxshilab tanishib chiqish zarurdir.

Savollar:

1. Yaxlit ko'rish nima?
2. Taqqoslash haqida Q.D. Ushinskiy nima degan?
3. Taqqoslash nima?
4. Taqqoslash qanday amalga oshiriladi?
5. Predmetlar qiyofasini tunda va kunduzi qanday ko'ramiz?
6. Rassom — pedagoglar proporsiya va tus munosabatlarini belgilashda shogirdlariga nima deydi?
7. «Bir varakayiga ko'rish» nimani beradi?
8. B.V. Ioganson to'g'ri munosabatlarni topishda nima degan?

2.3. Ranglarning asosiy xususiyati

Agar oq qog'ozni uch bo'lakka qirqib, bir bo'lagini yorug'likka, ikkinchisini soyaga, uchinchisini qorong'i joyga qo'yib, uchallasiga bir vaqtda (biryola) qarasa, soyadagi oq qog'oz yorug'likdagidan kulrangsimon, qorong'idagisi esa to'q kulrang ekanligini ko'ramiz. Mana shu tajribani oq qog'ozda emas, rangli (qizil, yashil, ko'k) qog'oz bo'lakchalari yordamida kuzatsak, qizil, yashil, ko'k ranglar soyada ham qizil, yashil, ko'k ko'rinishida qoladi. Demak, oq, kulrang, qora ranglar bir-biridan tusi bilan farq qiladi. Oq kulrangga nisbatan oqroq, kulrang esa qoraga nisbatan ochroq rangdaligini ko'rish mumkin. Agar rang bir-biridan ozgina bo'lsa-da rangi bilan farq qilsa, albatta, axromatik rangga kirmaydi (6-rasm).

Oq, kulrang va qora ranglardan boshqa ranglar xromatik (rangli) rang deyiladi. Ular ham bir-biridan to'q — och tusi bilan farq qiladi (10-rasm).

Biz atrof-muhitni kuzatganimizda rangli va rangsiz narsalarga ajratamiz. Rangli narsalar ya'ni qizil, yashil, sariq, ko'k, binafsha, moviy kabi turlarini *xromatik* (rangli) deb yuritamiz. Albatta, ular bir-biridan rangi, tusi bilan farq qiladi. Charaqlagan quyoshli bahor faslini olaylik, tevarak-atrof nihoyatda go'zal ekanligini ko'ramiz. Chunki moviy osmon, oq bulutlar, yam-yashil dalalar, qip-qizil lolalar, har xil rangda gullagan daraxtlar — hammasi ko'zni quvontiradi. Masalan, qizil olma, sariq gul, yashil dala va boshqa kabilar.

Rangsiz narsalar esa faqat tusi bilan farq qiladi. Bular oq, kulrang, qora tusli bo'lib Axromatik deb yuritiladi. Masalan, oq ko'ylak, oq gul, qora shim, qora qozon, kulrang idish va boshqalar. Qishning kechqurungi manazarasini olaylik, oppoq qor qoplangan dala va qoramtir kulrang daraxtlar bir-biridan faqat tuslari bilan farq qiladi. Oq bo'yoqni qora bo'yoq bilan aralastirib yana bir qancha oraliq tuslarini aniqlashimiz mumkin. Ular qanchalik ko'p bo'lmasin, bir-biriga nisbat oz bo'lsa-da tuslari bilan farq qiladi (6-rasm).

Binafsha (fioletoviy) rang qizil rangga nisbatan qoramtir, qizil rang esa sariq rangga nisbatan qoramtir. Shuningdek, qizil rang sariq rangdan qoramtirigidan tashqari, u qizil rangdir. Rangning qizilligi, qovoq rangligi, sariqligi, yashilligi, ko'kligi va boshqalar rang xususiyati, rang tusi deb ataladi.

Qaysi bir rang bo'yog'ini (oq va qoradan boshqa) kulrang bo'yoq bilan aralastirsak, bir necha murakkab rang tuslarini hosil qilishimiz mumkin. Agar rangli bo'yoq tusidagi kulrang bilan aralastirsak juda ko'p bir xil tusdagi rang bo'lakchalarini topamiz. Ochroq tusdagi rangni hosil qilish uchun oq bo'yoq, qoramtir tusdagi rangni hosil qilish uchun esa uni qoramtir bo'yoq bilan aralastirish mumkin (10-rasm).

Bo'yoq tarkibi tiniq qizil rang bo'lsa, kulrang bo'yoq rangi bilan aralashmasi esa tiniq qizil ranga o'xshamaydi. Qizil rang tarkibida kulrang qanchalik ko'p bo'lsa kulranga yaqinlashadi, rangsizlanadi. Xromatik rang darajasining farqi axromatik rang tusiga qanchalik yaqinlashsa uni to'yinganligi deyiladi. Shuningdek, qizil yoki boshqa rang tarkibida kulrang miqdori darajasi qizil rang to'yinganligini o'zgartiradi. Xromatik ranglar bir-biridan yorqinligi, rang tusi va to'yinganligi bilan farq qiladi. Masalan, limon rangi binafsha rangga nisbatan kam to'yingan.

To'yinganlik — bu rang tusi, rangdorlik darajasidir. Binafsha rang (kraplak) shuningdek baqlajon (ultramarin) rang tusi limon rangiga (sariq) nisbatan tusi farqligi bizga ma'lum (4-rasm).

Rang yorqinligi, tusi va to'yinganligi uning asosiy xususiyati (svetloto) deyiladi. Rang haqidagi fanda rassomlar «yorqinlik» terminining «yorqinlik kuchi» bilan almashtirib ishlatadilar. Rang

tusi tushunchasini rassomlar rang deb ataydilar (rang tusi bo'lmagan axromatik ranglarni rang turiga qo'shmaslik kerak). «To'yinganlik» rang yorqinligi bilan bog'liqdir.

Atrofni kuzatganimizda ayniqsa bahor, yoz paytlari yashil o'tloqlar, daraxtlar, ko'm-ko'k osmon, qizil, sariq, binafsha rangda gullarni ko'ramiz, zavqlanamiz. Ranglar jilosidan ruhimiz ko'tarilib, xursand bo'lamiz. Kechki payt quyosh botishi arafasida qizil quyosh, qizg'ish bulutlarni kuzatamiz. Yonayotgan o'choqdagi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar jilosini tomosha qilamiz. Shuning uchun ham qizil, sariq, zarg'aldoq kabi ranglar to'plamini *issiq ranglar* deb yuritamiz.

Qorli qish manzarasida esa ko'k osmon, oq, kulrang, ko'kimtir muzlar, qoramtir daraxtlarni ko'rishimiz mumkin. Ana shu ranglar to'plami, ya'ni yashil, moviy, binafsha, ko'k kabi ranglarni *sovuq ranglar* to'plami deb yuritamiz.

Albatta, bu issiq va sovuq ranglar bir-biriga nisbatan bo'lishi mumkin. Qanchalik ranglar bilan mashq qilsak, ko'zimiz shunchalik nozik rang tuslarini ajrata olishi mumkin.

Issiq va sovuq ranglar tushunchasi nisbiydir. Issiq rang undan issiqroq rang oldida sovuqroq bo'lishi va aksincha sovuq rang esa o'ta sovuq rang oldida nisbatan sovuqroq ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Issiq va sovuq rang rangtasvirda katta ahamiyatga ega. Bu to'g'risida keyinroq ko'rib chiqamiz (*5-rasm*).

Spektr rangi chekkasidagi gilos rangli va ko'k binafsha biroz bir-biriga o'xshashroq. Birinchisi binafsharoq, ikkinchisi qizilroqdir. Agar ularni aralashtirsak, oraliqdagi tusli ranglar hosil bo'ladi. Bu esa rangli doiradir. Rang doirasi 150 ga yaqin har xil rang bo'lakchalaridan tashkil topishi mumkin (undan ko'p ranglarni ko'z ajratishi qiyinroq). Hamma rang doirasida ularning ketma-ketligi saqlanib qoladi.

Rangtasvirda ranglar garmoniyasini tashkil etish muhim hisoblanadi. Shu jumladan, rangtasvirda issiq (sarg'ish, qizil, zarg'aldoq) va sovuq (yashil, ko'k, nilobi) ranglar ham muhim rol o'ynaydi.

Savollar:

1. *Axromatik ranglar qaysilar?*
2. *Xromatik ranglar qaysilar?*
3. *Oq, kulrang va qora ranglar nima deb ataladi?*
3. *Rang tuslarini qanday hosil qilish mumkin?*
4. *Xromatik ranglar farqi nimada?*
5. *«To'yinganlik» nima bilan bog'liq?*
6. *Issiq ranglar qaysilar?*
7. *Sovuq ranglar qaysilar?*
8. *Ko'k, oq, kulrang, ko'kintir ranglarni nima deymiz?*

2.4. Umumiy rang va tuslar holati

Ranglar munosabati qanchalik to'g'ri topilishiga qaramay, tasvir haqqoniy bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun uning koloritini, holatini va ravshanligini va ob-havoning yoki kunning har xil vaqti tasvirlangan rassom kartinalarini ko'rib chiqaylik. Biz quyoshli kun tasvirida ranglarning ravshanligini, bo'yoqlar yorqinligini (to'yg'inligini) ko'ramiz. Bulutli kun, quyosh chiqishi yoki quyosh botishi tasvirlangan holatlarda esa aksincha ranglar ravshanligi past, ranglar quyuqlashgan og'ir holatlarini kuzatish mumkin. Bular rassomning tabiat manzaralarida yorug'lik holatini haqqoniy tasvirlaganligidir. «Yorqin oq predmetlar, havo muhitida sariq tusga kiradi. Buni bulutlarda kuzatish mumkin; oldingi planda bulutlar nurlari oq, uzoqlashgah, ular sariq va gorizontda to'q sariq va hatto pushti tusga kiradi»¹.

Charaqlab turgan quyosh nuridagi ranglar tusi ertalabki yoki kechki paytdagidan albatta yorqindir. Qorong'ilikda hamma buyumlar to'qlashadi, o'zaro yorqin va qora kontrastlilik kamayadi. Bulutli kunlarida esa yorug'lik va soya o'rtasida keskin farq bo'lmaydi.

Realistik rangtasvirda shakllarning yoritilish holatini aks ettirishni bilish kerak. Kunning har xil vaqtida yoki har xil ob-havoda aks ettirilgan manzara kartinasi bir-biridan farq qilishi kerak. Shuningdek, ertalab, kechqurun yoki kuz, qish va yoz

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.*

tasvirlangan manzaralar ham ranglarga muvofiq farqlanadi (11, 12, 13, 14, 15-rasmlar).

Surikovning «Ertalab o'qchining jazosi» kartinasida rang koloriti, rang tusi, bo'yoq ravshanligi pasaytirilganligini ko'ramiz. U qoramtir bo'yoqlarda ishlangan. Kartinadagi o'qchining oq ko'ylagiga oq qog'ozni solishtirib ko'rsak, ko'ylak oq rangda emas, balki xira-kulrang ekanligini ko'ramiz (6-rasm).

Ammo u kartinada oq bo'lib ko'rinadi. Qolgan joylari: qo'l, yuz, kiyim rangi — hammasi qoramtir va to'q bo'yoqlarda tasvirlangan. Ertalabki past yorug'lik sharoitida hamma buyumlar va tashqi olam xiralashib ko'rinadi. Agar bunday manzarali kartinaga yorqin rang qo'yilsa, u boshqa bo'yoqlar rangi bilan bog'lanmasligi mumkin.

Masalan; qiyofa, shakldan yorug'lik manbaini asta-sekin uzoqlashtirsak, yoritilgan va soyali ko'rinishlar xiralashyotganini ko'ramiz.

Quyoshli kuni manzaradagi yorug'lik va soya kontrast kuchli farq qilsa, bulutli kuni esa aksincha xiralashadi.

Yorug'lik kuchi o'zgarishiga qarab buyum umumiy ravshanligigina emas, balki uning rangi ham o'zgaradi. Yorug'lik pasayganda buyumning rangining yorqinligi (kuchi) ham pasayadi. Bulutli kuni ko'katlar rangining yorqinligi quyoshli kunga qaraganda past. Shimoliy o'lka manzaralarida janubga nisbatan ranglar jilosi, yorqinligi ham pastdir. Bo'yoq bilan rangtasvir ishlash jarayonida buyumdagi oq qismini oq bo'yoq bilan, eng yorqin joyini yorqin to'yingan bo'yoqlarda ishlash shart emas, faqat ranglar orasida rang nisbatlari mos bo'lsa, bas.

Ranglar munosabat(nisbat)i, umumiy tusi va ranglar holati to'g'ri topilgan san'at asarini yaxshi rangtasvir deyishimiz mumkin.

Savollar:

1. Ranglarning tabiatda o'zgarishi qanday?
2. Fasllarda ranglar o'zgarishiga sabab nima?
3. Yorug'lik ta'sirida rangning o'zgarish holati qanday?

III BOB

3.1. Ranglar doirasi

Uch qirrali shisha prizmadan oq rangni o'tkazsak, bir necha ranglarga bo'linishini ko'rishimiz mumkin. Bu kamalak ranglar bo'lib, spektr ranglari deb ataladi. Bu spektr ranglar ketma-ket joylashgan bo'lib, *qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, ko'k, moviy, binafsha* kabilardan iborat ekanligini ko'ramiz. Ikki chekkadagi ranglarni yonma-yon qo'yib tutashtirsak doira hosil bo'ladi. Bu *rang doirasi* deb yuritiladi (*3, 4-rasmlar*).

Rang doirasidagi qizil rang orqali diametr chizig'ini o'tkazsak, qarama-qarshi tomonda yashil rang joylashganligini ko'ramiz. Yashil rang esa qizil rang qarshisida joylashganligini aniqlaymiz (*4-rasm*).

Doiradagi ko'k yoki binafsha ranglar orqali diametr chizig'ini o'tkazsak, ko'k rang qarshisida zarg'aldoq, binafsha rang qarshisida esa sariq rang joylashganini ko'ramiz. Bu qo'shimcha ranglarni palitrada aralashtirsak kulrang paydo bo'ladi.

Shuningdek, bu ranglar yonma-yon joylashganida bir-biriga nisbatan kontrast ranglar ham hisoblanadi (*17-rasm*).

Biz tabiatni kuzatar ekanmiz, yashil dala yoki bog'larda ochilgan gullarning sariq, qizil, zarg'aldoq, binafsha kabi ranglardagini uchratamiz. Masalan: yashil rang ko'k rangga yaqin bo'lsa, bunga qo'shimcha rang zarg'aldoq rangga yaqin bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, rang doirasidagi bitta rang qarshisida bir necha o'xshash rang bo'lishi va ular o'ziga xos chiroyli nisbatda hamohang bo'lishini kuzatamiz.

Rang doirasida 6 ta, 12 ta yoki 24 ta juft rang doirasi yasab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda ranglar jilosini va kontrast ranglar hosil bo'lishini aniqlaymiz.

«Uch asosiy rang» va ularni aralashtirishning ikkita asosiy uslubi haqida

◆ Rang doirasi. Uch rang (*Gyote rang doirasi*)

Asosiy ranglar: sariq, ko'k, qizil. Ular boshqa hamma ranglar asosini tashkil qiluvchi hisoblanadi (*18-rasm*).

Ana shu asosiy ranglar ma'lum darajada aralashtirilsa kulrang hosil bo'ladi.

Agar uch asosiy rangdan ikki rangni aralashtirsak, uchinchi rang kelib chiqishi mumkin. Masalan: zarg'aldoqni olaylik, bu sariq rang bilan qizil ranglar nisbati aralashmasida hosil bo'ladi. Shuningdek, ko'k va qizil rang aralashmasi binafsha rangdir.

Gyotening «Tabiat rang doirasi» uchburchak asosida tuzilgan. Ana shu uchburchak uchlarida sariq, qizil va ko'k ranglar joylashgan (*18-rasm*).

Ikkinchi uchburchak uchlarida esa qo'shma (tuzilgan) 1-darajali ranglar joylashgan. Ikkala uchburchak bitta olti burchakni tashkil qiladi. Bunda yashil rang asosiy bo'lsa, qolgan ikki rang qo'shma rang turganini ko'ramiz. Oltiburchakning qarama-qarshi turgan burchaklarini ingichka chiziq bilan tutashtirib chiqsak, bir-biriga kontrast ya'ni qarama-qarshi ranglar yotganini ko'ramiz. Masalan: qizil rang qarshisida yashil rang, sariq rang qarshisida esa binafsharang joylashgan. Bu ranglar bir-biri bilan aralashtirilsa kulrang hosil bo'ladi.

Agar yonma-yon joylashgan ikki rangni har xil nisbatlarda aralashtirsak, yana bir qancha tusdagi ranglar hosil bo'lishini ko'ramiz. Shuningdek, qarama-qarshi turgan rangni yon tomonidagi, masalan, sariq rang qarshisidagi binafsha rang yonidagi qizil yoki ko'k rang bilan aralashtirsak, yana har xil tusdagi ranglar hosil bo'lishini kuzatish mumkin.

3.2. Qo'shimcha ranglar hosil qilish

◆ Asosiy ranglar yordamida qo'shimcha ranglarni yaratish

Gyote rang doirasidagi uch rang asosida boshqa ranglarni yaratish mumkin.

Bu asosiy ranglar qizil, sariq va ko'k ranglardir. Ana shu ranglardan biriga ikkinchisini qo'shsak, uchinchi rang kelib chiqadi. Masalan: sariqqa ko'k rang aralashtirsak, yashil rang hosil bo'lishini aniqlaymiz.

Shuningdek, sariqqa qizil rang aralashtirsak, zarg'aldoq rang hosil bo'ladi. Qizil rangga ko'k rang qo'shsak, binafsha rang hosil qilgan bo'lamiz.

Yuqoridagi ikki rang aralashmasidan hosil bo'lgan uchinchi rangning turlari ham, tusi ham har xil bo'lishi mumkin. Odam ko'zi qanchalik ko'p tusni ko'ra bilsa, shuncha aniqlash mumkin. Masalan: sariq bilan yashil rang orasida yana bir necha sariqqa yaqin yashilsimon rang tusi hosil bo'lishi mumkin (4-rasm).

Shunday qilib, uch rang asosida yana uch asosiy rang hosil qilingan bo'lsa, ular orasida yana bittadan hosil qilsak, $3+3+6+12$ kabi davom ettirish mumkin.

Shuningdek, topilgan 12 xil rang asosida ularni oq, qora va kulrang aralashtirib o'n ikki bo'lakchadagi rang tusini hosil qilib chiqsak, jami 144 ta rangga tusini hosil qilish mumkin (19-rasm).

Shuningdek, kontrast ranglarni bir-biriga aralashtirib (rang doirasida diametr chizig'idagi emas, balki ularning yon tomonlaridagisi) yana bir qancha ranglar shkalasini aniqlashimiz mumkin.

Mashq qilgan holda 500–600 rang turi va tusini ko'zimiz ajrata olishi mumkin.

Bunda rassom palitrasining rang-barangligi va rangga boyligini kuzatishimiz qiyin emas.


Yosh rassom uchun bu mashqlar katta ahamiyatga ega. Inson ko'zi ranglarni yaxshi ajratib olishi esa go'zal asarlar yaratishiga katta yordam beradi. Ba'zi rang bilan ishlaydigan mutaxassislar bitta rang orqali shakl va tekislik yaratishiga katta imkoniyatga erishadilar. Masalan: plakatda, xona devorlarida, buyum, mashina va boshqalarda estetik jihatdan go'zallik yaratishiga muhim zamin bo'ladi.

Gyote nazariyasi bo'yicha teng yonli uchburchak burchaklarida asosiy ranglar: sariq, ko'k va qizil ranglar joylashgan. Unda doira ichiga joylashgan ikkinchi ag'darilgan uchburchak joylashgan bo'lib, bu uchburchak uchlarida esa birinchi darajali ranglar

joylashganligini ko‘ramiz. Ikkala uchburchak hosil qilgan olti qirrali uchburchakda 6 ta rang joylashadi.

Ana shu doira ichidagi uchburchakning ingichka chiziqlarning bilan tutashgan burchaklardan biri asosiy rang, qolgan ikki burchak uchidagi rang esa qo‘shimcha (izlab topilgan) hisoblanadi. Ingichka chiziqlar bilan tutashgan burchaklardagi ranglar qarama-qarshi yoki qo‘shni ranglar (kontrast ranglar) hisoblanadi. Masalan: qizilga yashil, qovoq rangga ko‘k, sariqqa binafsha. Shunday qilib har bir juft ranglar asosida ranglar doirasi hosil bo‘ladi.

◆ Uch spektr rangning aralashuvi



K – ko‘k, Ya – yashil, Q – qizil,

Z – zangori, S – sariq,

B – binafsha, O – oq.

Bitta yoki har xil ranglar yordamidan foydalanib rassomlar xolst tekisligida rang-barang to‘laqonli tasviriy asarlar yaratadilar. Haqiqatan, toza, tiniq ranglar mutanosibligi yordamida yassi – bezakli kartinalar ishlash mumkin. P. Gogen, P. Pikasso,¹ A. Benua, Ch. Axmarov, A. Mirzayev, J. Umarbekov kabi rassomlar asarlarida naqshinkor, go‘zal rang tuslarini ko‘rish mumkin.

Impressionistlar manzara, natyurmort asarlarida rang va yorug‘lik muammolarini rang yorqinlik nisbatlarining koloristik to‘plami yordamida hal qilganlar.

Ochiq havoda ijod qilgan rassomlar rang va yorug‘likning o‘zaro ta‘sirini tasvirlash yorqin bo‘yoqlar yordamida mayda nuqtachalar hosil qilib tabiiy kenglikdagi rangtasvir yaratganlar. Bunda quyosh nuri ostida ranglar o‘yinini to‘laqonli his qilganlar.

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World.

Shunday qilib, har qanday uslubda yaratilgan, an'anaviy yorqinlik har doim rangli tasvirda o'z aksini topgan. Faqat uning ozroq yoki ko'proq o'rin olganini ko'rish mumkin. Shuning uchun rangtasvir asosidan rangni ba'zi rassomlar kabi ajratib qo'yish mumkin emas. Albatta, bu noto'g'ridir.

Rassomlar kartina yaratish jarayonida bo'yoqlarni bir necha qatlamda, ba'zi joylarda qalinroq, quyuqroq, suyuqroq ranglarni toza, yorqin, har xil tus kontrastidan foydalanib xolst tekisligida to'laqonli tasvir hosil qiladilar.

Savollar:

1. *Rang aylanasi nima?*
2. *Spektr ranglarga qaysi ranglar kiradi?*
3. *Rang aylanasidagi diametr chizig'idagi ranglar nima deb ataladi?*
4. *Gyote ranglari qaysilar?*
5. *Ikki rang oralig'ida qaysi ranglar paydo bo'ladi?*
7. *Qo'shimcha ranglar qanday hosil bo'ladi?*
8. *Uchburchak uchlarida qaysi ranglar?*
9. *Oltiburchak uchlarida qaysi ranglar joylashgan?*
10. *Asosiy ranglar qaysi ranglar?*
11. *Kontrast ranglar nima?*
12. *Kontrast ranglar aralashmasidan qaysi rang hosil bo'ladi?*
13. *Yonma-yon joylashgan ikki rang aralashmasi nimani hosil qiladi?*

3.3. Kontrast ranglar topish

Kartinada issiq va sovuq ranglarning qarama-qarshi kelishi tabiatdagi yorug'lik va soya ranglarga asoslanadi. Tabiatda yorug'lik sovuq rangda bo'lsa, soya issiq rangda bo'ladi va aksincha. Issiq va sovuq ranglar yonma-yon turishi tekis yoritilgan yuzada yoki xira tekislikda ham bo'lishi mumkin.

Biron rangni kuzatganimizda chegarasida kontrast uning qonuniyati asosida uning qarama-qarshi rang hosil bo'ladi. Kontrast rang sezgidan tashqari yorug'lik nuri ta'sirida ham hosil bo'ladi. Ya'ni, quyoshli qish kuni qor soyasi ko'k rangdaligi, sarg'ish-zarg'aldoq quyosh nuri bilan yoritilgan qor rangi kontrastini (ko'k) hosil qiladi. Yoz kunlari soyalarning yorqin ko'k-nilobi va binafsha

ranglarda ko‘rinishi ham kontrast rang tasavvurini hosil qiladi (*20-rasm*).

Rassom buyumlarning har xil reflekslarini tasvirlashdan tashqari, xolst yuzasida yorug‘lik va soya joylarida ham issiq, sovuq ranglar jilosini aks ettiradi. Bularga e‘tibor bermaslik ranglar munosabatini soxtalashtirishga olib keladi, tabiiylikni idrok qilishimizga salbiy ta‘sir qiladi. Yorug‘lik va soya qismlarida issiq va sovuq ranglar qarama-qarshiligi nafis tasvirlash mahoratining zarur shartlaridan biridir. U garmonik kolorit hosil qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, boy va har xil o‘zaro reflekslar, umumiy yorug‘lik tusi va ranglar holati, asosiy yorug‘lik manbaining spektr turkumi ta‘siri, kontrast ranglarning o‘zaro ta‘siri kabi narsalarning jami rangini birlashtiradi, bir-biriga bog‘laydi va yaqinlashtiradi.

3.4. Ranglarning tusi (oqartirish yoki qoraytirish)

Ranglar doirasidagi ranglardan biriga oq bo‘yoq yoki kulrang bo‘yoq aralashtirishni asta-sekin ko‘paytirib borsak, asosiy rang bo‘lakchasi sekin-asta oqarib borishini kuzatamiz. Masalan: yashil rangga ozgina oq bo‘yoq qo‘shsak tusi biroz o‘zgaradi. Bu rang bo‘lakchasini 12 ta rang tusi bo‘lakchasigacha hosil qilganimizda, eng oxirigisi oq rangda ekanini ko‘rsak, oq rang bilan yashil rang oralig‘idagi 10 ta rang bo‘lakchasi yashil bo‘lib ko‘rinsa-da, ular bir-biri bilan tuslari farqini kuzatamiz (*21-rasm*).

Agar ana shu yashil rangga qora yoki kulrang bo‘yoq qo‘shilsa, yashil rangning asta-sekin tusi to‘qlashganini kuzatamiz.

Shuningdek, rang doirasidagi boshqa ranglarni shu tarzda oqargan va qoraygan rang tuslarini hosil qilamiz. Natijada rang aylanasiidagi 12 ta rangga oq, kulrang va qora qo‘shib, 36 ta rang guruhi tusidagisini aniqlasak, jami 432 ta rang bo‘lakchasini hosil qilamiz.

Bu ranglari chiroyidan bahramand bo‘lsak, rang tusini sezish qobiliyatimizni ham yuqori darajaga ko‘targan bo‘lamiz (*10-rasm*).

◆ Tushlarning qalin va og'irligi

Rangshunoslikda rang qalinligi yoki quyuqligi deganda rang to'yinganligini ham tushunish mumkin. Ya'ni sariq rangdan binafsha ranggacha rang tusining qalinligi, to'qligini mashqlardan kuzatsak sariq rangga oq bo'yoq qo'shib hosil bo'lgan rang tushlari ham bunga misol bo'la oladi.

Tabiatda kech kirishini kuzatib ko'raylik. Quyosh botishidan oldin tabiat nisbatan engilroq (ochroq) rangda bo'lsa, quyosh ufqqa botishida ranglar ham quyuuqlashgani va og'irlashayotganini kuzatish qiyin emas. «Quyosh bilan ma'lum masofada yoritilgan o'rtacha yorqinlikdagi ranglar iliqlashadi, soyadagilar ko'karadi. Bulutli kunda xususiy ranglar uzoqlashish bilan asta-sekin o'z individual qirralarini yo'qotadilar va hamma uzoqdagi predmetlarga xos bo'lgan umumiy moviy tus oladilar»¹.

Hatto oq qog'oz bo'lakchasi quyosh botishidan oldin qanday tusda edi-yu, quyosh botayotganda oq qog'oz kulrangsimon ko'rinishda bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Albatta, tabiiy rang o'zgargani yo'q. Faqat bizning ko'zimizga ranglar tusi shunday ko'rinadi xolos (*16-rasm*).

Qorong'i kecha yoki oydin kechada ham ko'zimiz ilg'ab olgan ranglar bir-biriga nisbatan ko'rinadi. Bunday holatlarni kuzatish bizning tasavvurimizni boyitadi.

Shuningdek, tabiatdan rangtasvirlar yaratish mashqlarini olib borsak rang sezish qobiliyatimiz yanada boyidi va ranglar tusini hosil qilish mashqlari bilimimizni yanada oshiradi.

Masalan: ikki xil manzarani olaylik. Biri kunduz kuni quyosh charaqlab turgan tasvirli manzara, ikkinchisi oydin kecha tasvirlangan manzara. Ikkala manzaradagi ranglarni qiyoslashtirsak bir-biridan farqini anglash qiyin emas (*11, 15-rasm*).

Savollar:

1. Issiq va sovuq ranglar ta'siri nimada?
2. Kontrast ranglar hosil bo'lishi qanday?
3. Ranglarni oqartirish qanday hosil bo'ladi?

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.

4. *Ranglarni qoraytirish qanday amalga oshiriladi?*
5. *Ranglarga qanday ranglar qo'shib boshqa ranglar hosil qilamiz?*
6. *Quyosh o'zgarishida ranglar qanday o'zgaradi?*
7. *Rang tuslarining qalinligi nima?*
8. *Rang tuslarining og'irligi nima?*

3.5. Ranglarning yaqin yoki uzoqlashganligi

Jadvalda bir xil o'lchamdagi uchta doira tasvirlangan. Ular biri-biriga yaqin ko'rinisa, boshqalari yotgan tekisligidan uzoqda ko'rinadi. Albatta, bu holat ularning rangi bilan bog'liqdir (*22-rasm*).

Bizga yaqini qizil ranglardir, qizilga nisbatan birmuncha uzoq rang — yashil rang. Undan ham uzoqda esa, kulranglisidir. Ranglar orasida bizga yaqin qizil doiracha bo'lib, u oldinga chiqayotgandek bo'ladi.

Bu issiq ranglarga xosdir. Bizdan uzoqlashayotgan ranglar esa sovuq ranglardir. Rassomlar bu faoliyatdan foydalanib, tekislik yuzasida chuqurlik taassurotini hosil qilishi mumkin.

Bo'yoqning muhim optik xususiyati — rang tusi to'yinganligi va yorqinligidir. Bu xususiyat bo'yoq tayyorlashda bo'yoq kukunining xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, bo'yoq kukuniga qo'shilgan aralashma ham rang tusiga ta'sir qiladi.

Oq qog'oz yuziga yupqa surilgan bo'yoq qatlamning to'yinganligi, pasayishi tabiiy bo'lib, uning yorqinligi kuchayadi. Qoramtir qog'oz yuzasiga surilgan bo'yoq esa aksincha. Shunday qilib rang tusi va yorqinligini biz istagan darajada o'zgartirishimiz mumkin (*9-rasm*).

Rang to'yinganligi (intensovnost) — bu bo'yoqning inson ko'ziga ta'sir kuchi. Masalan: qizil rangning yashil rangga nisbatan ta'sirchanlik kuchi, albatta, yuqori.

Rangning to'yinganlik kuchini taqqoslab ko'ramiz. To'yingan oq, qora yoki kulranglardan birini ozgina qo'shib aralastirib bo'yalgan yuza rangi, aralastirilmaganiga qaraganda kam kuchga ega bo'ladi. Shu yo'l bilan istalgan miqdorda to'yingan rang tusini olishimiz mumkin (*11-rasm*).

Har bir buyum, shaklni kuzatganimizda uning o'z rangiga egaligini ko'ramiz.

Masalan: buyumning oq-qoradan ko'p ranglilik bilan ajralish sifati bu uning rangidir.

Kartinada tasvirlangan buyumning xarakteristikasi nafaqat uning rangi bilan ajraladi, balki yorqinligi, rang tusi va to'yinganligi, o'lchami, shakli, joylashishi bilan ham farq qilinadi.

Buyumning rang tarqatish nazariyasi: a) tabiiy yorug'likka, b) yorug'likni yutish va qaytarishga, v) yorug'likni kuzatuvchi tomonidan idrok qilinishiga asoslanadi.

Rangning asosiy parametri rang tusi (ton), to'yinganligi (tozaligi) va yorqinligi (svetlota)dir.

To'yinganlik yoki tozaligi rang tusining sifatini aniqlaydi. Rang to'yinganligi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik axromatik (oq, qora, kulrang) rang tusidan farq qiladi.

Rang to'yinganligi (tozaligi) shakl yoki buyumdan rangli nurlarini qaytarilishi darajasi bilan aniqlanadi.

$$\frac{R}{X+B} = X$$

R – rang to'yinganligi (tozaligi);

X – rang nurining qaytish soni;

B – yorug'lik nurining qaytish soni;

Rang yorqinligi rang qaytish koeffitsenti bilan aniqlanadi. To'yingan toza rangni oq rang bilan aralashtirib rang yoyilmasini ishlab chiqsak, uning to'yinganligi shunchalik kamayadi.

Masalan: qizil rangni 12 ta rang: oq, kulrang va qora bo'yoq qo'shib rang bo'lakchalari shkalasini tayyorlangan tusini olaylik. Bu ranglarni bir-biriga nisbatan to'yinganlik sifatini kuzatish mumkin (19-rasm).

Rang to'yinganligini o'lchash uchun kolorimetr va spektrofotometr dan foydalaniladi.

◆ Buyum (shakl) rangining perspektivada o'zgarishi

Biz uzoqdagi buyumlarni yaqindagilarga nisbatan unchalik aniq ko'ra olmaymiz.

Biror buyumdan uzoqlashganimiz sari buyumi hajmning kich-rayib ko‘rinadi. Shu bilan birga buyum rangi ham o‘zgaradi. Havo ta‘siri ostida rang xiralashib, haqiqiy rangidan farq qiladi. «To‘q ranglar uzoqdan moviy va ko‘k tusga kiradi, chunki ularni havoda tarqalgan moviy rang berkitadi»¹.

Bir xil rangli buyumning birini yaqinroq, ikkinchisini uzoqroqda joylashtirsak, birinchi buyum rangi ikkinchisiga nisbatan yorqinroq rangda, ikkinchisi esa xiraroq bo‘lib ko‘rinadi. Uzoqda joylashgan yashil o‘rmon ko‘k — kulrangda ko‘rinadi.

Masofaga qarab rangning yorqinligi va tusi o‘zgarib boradi. Uzoq-uzoqda joylashgan buyumlar moviy (ko‘k) rangda ko‘rinadi. Bunga sabab biz bilan buyum orasidagi havo bo‘shlig‘ining ta‘siridir (*26-rasm*).

Buyumning hamma ranglari uzoqlashgan sari o‘zining yorqinligini to‘yinganligini yo‘qotadi, moviyroq rangda ko‘rinadi.

Kontrast ranglar xiralashadi. Shunday qilib, uzoqdagi jismlar yaqindagi jismlarga nisbatan ranglar kuchi susayib, tusi o‘zgaradi.

Och rangli buyumlar uzoqlashgan sari kamroq moviy rangda bo‘lsa, to‘q rangli buyumlar ko‘proq moviy rangda ko‘rinadi. Ular qandaydir zangori tumandagidek bo‘lib ko‘rinadi. Bizdan uzoqroqdagi buyumlarni havo qatlami o‘rab olganligi uchun, bizga uning rangi ko‘rinmaydi va borgan sari moviy rangda ko‘rinadi. Ya‘ni uzoqdagi tog‘, daraxt, qor kabilar bizga moviysimon bo‘lib ko‘rinishi mumkin. To‘q rang esa och rangda, och rangdagilar esa to‘qroq bo‘lib ko‘rinadi.

Buyum rangining yorqinligi yorug‘lik kuchiga qarab ham o‘zgaradi. Har xil tusga burkanishi mumkin. O‘rtacha yorug‘likda ranglar yorqinligi kamroq. Kuchli yorug‘lik kuchida ranglar ochroq. Kamroq yorug‘likda esa ranglar to‘qroq va kam to‘yingan holda ko‘rinadi.

Yorug‘lik rangining o‘zgarishiga qarab (ertalab, kechqurun, quyoshli yoki bulutli kun) ko‘katlar, daraxt barglari, yer, uy tomlari rangi har xil tuslanadi. Erta tongda moviy va ko‘k rangda,

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.*

kunduz kuni har xil rang-barang ko‘rinishda, kechqurun qizg‘ish — zarg‘aldoq rangda ko‘rinishi mumkin. «Tabiiy yoki sun‘iy yorug‘lik bilan yoritilgan intererda notekis yoritish yuzaga keladi. Derazaga yoki lampaga yaqin predmetlar ochroq, ulardan uzoq-roqda to‘qroq qilinadi»¹.

Ranglarning cheksiz o‘zgarib ko‘rinishiga kun vaqti va havo holati ta‘sir qiladi. Kechqurun quyosh nuri havoning qalin qatlamini qiya kesib o‘tadi. Shu sababli quyosh yorug‘ligi kamayadi. Quyosh botish arafasida qizil, sariq ranglar jilosini ko‘ramiz. Tevarak-atrof buyumlari qizil — sariq ranglar bilan yoritiladi, soyalari esa kunduz kunidan farqliroq xira sovuq ranglar jilosida ko‘rishimiz mumkin.

Rangli buyum(shakl)larning o‘zgarishini kuzatar ekanmiz, ular uzoq masofada har xil o‘zgarishining guvohi bo‘lamiz. Agar quyosh bizning orqamizda bo‘lsa, uzoqdagi to‘q ranglar och tusda bo‘lib ko‘rinadi. To‘q ranglar bizdan qanchalik uzoqda bo‘lsa, u shunchalik yorug‘ bo‘lib ko‘rinadi. Oq rang bizdan uzoqlashgan sari o‘z oqligini yo‘qota boshlaydi va sariq rangga aylana boshlaydi. Bu holatni yozgi bulutlarda kuzatishimiz mumkin. Yashil rang bizdan uzoqlashgan sari o‘z rangini kuchli o‘zgartiradi va zangori tusga kira boshlaydi (*12-rasm*).

Oy yorug‘ligida buyumlar yashilsimon va moviy sovuq ranglarda ko‘rinadi. Yorug‘lik rangini qishning qorli manzarasida kuzatishimiz mumkin. Charaqlagan quyoshli kunda oppoq qor qizg‘ish (rozovatiy) rangda, soyada esa moviy — ko‘k rangda ko‘rinadi.

Rang yorug‘lik bilan yoritilishiga qarab o‘zgarishi mumkin. Elektr chirog‘i yorug‘ligida hamma buyumlar sarg‘ish-zarg‘aldoq rangga burkanadi. Kechqurun chiroq yorug‘ligidan sovuq ranglar (ko‘k, zangori, zangori — yashil, binafsha) quyuqlashadi, qorayadi. Moviy rang yashilroq, ko‘k rang esa o‘z quyuqligini yo‘qotadi, binafsha rang qizilroq bo‘lib ko‘rinadi. Qizil rang quyuqlashadi, och sariq rang oqaradi, oq rang esa sariq bo‘lib ko‘rinishi mumkin.

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. II bob

Odatda shakllar o'lchami tasvirlanayotganda o'zi (natura haqiqiy) o'lchamidan kichikroq tasvirlanadi. Shuning uchun shakllar guruhining umumiy o'lcham birligini to'plash vazifasi turadi. Ana shunda buyum va shakllarning o'lchamlar nisbati bir-biriga mos kelib, tasvir haqqoniy o'xshashi mumkin. O'lcham nisbati munosabatlarini idrok qilish qonuni faqat chizmatasvirda emas, balki rangtasvirda ham muhim ahamiyatga ega.

Bu ranglarning o'zgarishi har xil yoritilish xususiyatiga bog'liqdir. Rassom o'z asarlarini yaratayotganda albatta shu o'zgarishlarni e'tiborga olishi kerak.

Savollar:

1. Rang to'yinganligi nima?
2. Rang yorqinligi nima?
3. Rang to'yinganligini qanday o'laymiz?
4. Yaqinlashtirilgan ranglar qaysi?
5. Uzoqlashtirilgan ranglar qaysi?
6. Havoyi perspektivada ranglar qanday o'zgaradi?
7. Uzoqdagi ranglarga nima ta'sir qiladi?
8. Elektr yorug'ligida ranglar qanday o'zgaradi?

3.6. Ranglarni aralashtirish

Ranglarni optik, mexanik rang nurlar yordamida aralashtirish usullari mavjud bo'lib, har biri o'zgacha xususiyatga ega.

Ranglarni aralashtirishni optik va mexanik usul bilan amalga oshirish mumkin. Optik usulning teatr sahnasida rangli proyektorlar yordamida hosil bo'lishini ko'ramiz.

Masalan: ko'k rangga yashil rangni yo'naltirsak, moviy rang hosil bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Ko'k, yashil, qizil ranglarni aralashtirsak, oq rang hosil bo'ladi (*24-rasm*).

Shuningdek, uch xil: ko'k, yashil, qizil rangdagi oyna shisha plastikalarini bir-biriga nisbatan sxemadagidek joylashtirsak, har xil ranglar paydo bo'lishini ko'ramiz (*23-rasm*).

Ranglarni mexanik usul bilan aralashtirish uchun rang bo'yoqlarni idishda (tekislikda) amalga oshirish mumkin. Bu usuldan rassomlar ko'proq foydalanadilar (*24-rasm*).

Masalan: qizil bo‘yoq bilan sariq bo‘yoqni aralashtirsak, zarg‘aldoq rang hosil bo‘lishini ko‘ramiz. Bu usul bilan istagancha ranglar jilosini hosil qilishimiz mumkin. Faqat kontrast ranglar aralashmasi yaxshi natija bermaydi.

Masalan: qizil va yashil rang aralashmasi bo‘g‘iq, qoramtir, rangsizni hosil qilishi mumkin.

Aylantirgich doirasiga har xil ranglar nisbatida rangli qog‘oz yopishtirib aylantirsak, nigohimizda boshqacha ranglar paydo bo‘lishini ko‘ramiz (*24-rasm*).

Masalan: oq qismiga biroz qora rangdagi qog‘ozni yelimlab aylantirsak kulrang paydo bo‘lishini ko‘ramiz. Kulrang esa oq va qora rangli qog‘ozning nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, rangli qog‘oz parchalarini qo‘yib bir qancha ranglar hosil qilishimiz mumkin. Mexanik usul orqali biz bir qancha toza, to‘yingan, to‘q va och ranglar hosil qilishimiz mumkin.

Mexanik usulda kontrast ranglar kulrang hosil qilishini kuza-tish qiyin emas.

Mexanik usulda aralashtirishni ayniqsa rassomlar keng qo‘l-laydilar. Rangtasvir ishlashda rassomlar palitradan foydalanib, kerakli rang bo‘yoqlarni aralashtirib va tus hosil qilib tasviriy san‘at asarini yaratadilar. Shuningdek, pardozlovchilar (malyarlar) ham binolarni bo‘yashda tegishli ranglarni aralashtirib pardozli bo‘yash ishlarini olib boradilar.

Masalan: bir chelak oq bo‘yoqqa ozgina yashil va qora bo‘yoq rangini aralashtirsak oq rangdan o‘zgacha jilodagi rang hosil bo‘ladi.

Rang aralashtirish ko‘nikmasini hosil qilish uchun bir necha amaliy mashq bajarish maqsadga muvofiq.

Masalan: qizil rangni oq, kulrang, qora bilan mexanik aralashtirib, bir necha rang bo‘lakchasini hosil qilishni ko‘rib chiqaylik. Qizil rangdan qoragacha bo‘lgan rang bo‘lakchalarini aralashtirganimizda har xil tusdagi qizil to‘yingan ranglarni aniqlaymiz.

«Spektral ranglarni oddiy bo‘yoqlardan ham hosil qilish mumkin. Masalan: yashil ranglar lazur va limon-sariq rang-lardan hosil qilinadi. Qizil ranglar pushti-qizil va sariqdan hosil qilinadi.

To'q ko'k, binafsharang, to'q qizil rang esa lazur va kraplakdan. Hamma murakkab ranglar oddiy yoki spektral ranglarga oq yoki qorani qo'shish bilan hosil qilinishi mumkin»¹.

Bu mashqlar bo'lajak rassomlar uchun muhim ahamiyat kasb etib, ko'zni rang tuslarining nozik farqlarini sezishga o'rgatadi. Ish jarayonida samarali natijalarga erishish uchun, yaqindan yordam beradi. Ko'p ranglarning tusini sezishga ko'mak beradi. Bu qobiliyat rassomlar uchun muhim ahamiyatga ega.

♦ Yorug'lik yutilishi. Ranglarni aralashtirish

Fizikadan ma'lumki, oyna shisha prizmadan o'tgan nur bir nechta rangli nur bo'lakchalarga bo'linadi (*25-rasm*). Ana shu nurlar oldiga oq ekran qo'ysak, ekranda har xil spektr ranglar hosil bo'ladi. Bular bir tomondan gilos ranglar ikkinchi tomonda ko'k — binafshadir. Bu ikkala spektr rang orasida esa qizil, qizg'ish — zarg'aldoq, zarg'aldoq, sariq — zarg'aldoq, sariq, sarg'ish — yashil, yashil, ko'k yashil, zangori, zangori — ko'k, ko'k, ko'k — binafsha ranglar joylashganini aniqlaymiz. Kulrang yoki qora ekranda esa to'liq spektr ranglarni to'qroq holda ko'ramiz. Ana shu rangli nurlar yo'liga xromatik rangdagi ekran qo'ysak, bu ekranda spektr butunlay boshqacha bo'lib ko'rinadi. U holda ranglar qisqarib (qizil yoki ko'k rangsiz) yoki qaysi bir bo'lagida rangsiz, to'liq bo'lmagan yorqinlikda joylashgan holatini ko'rishimiz mumkin.

Oq, kulrang va qora tekislik yuzasida rangli nurlar bir xil aks etsa, xromatik tekislik yuzasida rangli nurlar har xil aks etadi. Ba'zilar ko'proq hajmda, boshqalari esa kamroq. Shuning uchun oq, kulrang va hatto qora buyumlar rangli nur yorug'ligi ostida rangli bo'yoqqa bo'yalgandek ko'rinadi. Qizil, yashil, ko'k va boshqa rangdagi buyumlar (shakllar) rangi shu rangdagi nurlar ostida quyug'lashadi. Agar buyum rangi yorug'lik rangi (yorug'ligi) bilan mos kelmasa, u holda rang to'yinganligi kamayadi va qoramtir tusga kiradi. Ba'zi holda qoramtir holda ko'rinishi mumkin. Chunki yorug'lik nurining bir qismini buyum rangi o'ziga yutadi. Yorug'lik nur energiyasini yutishi natijasida boshqa energiyaga

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. II bob.

aylanadi, ya'ni issiqlik energiyaga. Shunday qilib qora rangdagi buyumlar quyosh nuri ostida oq rangdagidan ko'ra ko'proq qiziydi. Axromatik rangdagi buyumlar har xil rangdagi yorug'lik nurlarni bir xil yutadi va qaytaradi. Xromatik rangdagi buyumlar ba'zi rangdagi nurlarni ko'p holda yutadi, boshqalari esa kamroq. Qizil rangdagi buyumlar ko'p holda yashil rangli nurlarni ko'proq yutadi, qizilni esa kamroq. Yashil rangdagi buyum esa aksincha qizil rang nurlarni ko'proq miqdorda yutadi va aksincha yashil nurlarni kamroq yutadi.

Agar qizil rangli oyna qizil nur bilan yoritilsa, u holda nur oyna orqali to'laligicha o'tadi. Yashil yorug'lik nurini yo'llasak, ko'p qismini yutadi va o'tkazmaydi. Oyna rangsiz yoki qoramtir bo'lib ko'rinadi. Qizil va yashil oyna birgalikda qo'yilib yorug'lik nurini o'tkzaksak, yorug'lik nuri kam o'tadi. Oyna ko'rinishi esa o'ta qoramtir bo'lib ko'rinadi.

Sariq va ko'k oynani birgalikda qo'yib, nur o'tkzaksak undan yashil rangli yorug'lik o'tadi. Shunday qilib oyna shisha ba'zi yorug'lik nurini o'tkazadi, ba'zilarini esa o'tkazmaydi.

Savollar:

1. *Ranglarni mexanik usulda aralashtirish qanday amalga oshiriladi?*
2. *Ranglarga oq yoki qora aralashtirib qanday ranglarni hosil qilish mumkin?*
3. *Aylantirgich yordamida hosil bo'lgan rangning mexanik usuldan farqi nima?*
4. *Spektr ranglar qanday hosil bo'ladi?*
5. *Spektr ranglar qaysilar?*
6. *Rang tuslarini qanday hosil qilish mumkin?*
7. *Ranglarni aralashtirishning qanday usullari bor?*
8. *Xromatik va axromatik ranglarning nurga bo'lgan ta'siri qanday?*

3.7. Rang munosabatlarining proporsionalligi

Rangtasvirda tabiatdagi mavjud ranglarni haqiqiy yorqinligi va rang kuchida aks ettirish imkonsizdir. Rangtasvirda tabiatdagi ranglarning mutloq yorqinligi va qudratiga taqlid etilmaydi, balki ularning proporsional munosabatlarini aks ettirish orqali haqqo-niylikka erishiladi.

«Tasavvur qilginki, senda chizishing lozim bo'lgan bir nechta kulrang matolar bor, — deb aytadi Korovin — Agar sen ularni

aniq nusxasini ishlasang, natijada siniqqan, kulrang, zerikarli tasvirga ega bo'lasan. Biroq tasvirlash jarayonida sen ularning tus va rang munosabatlari orasidagi tafovutni izlasang hamda tabiat ularga jo etgan o'ziga xos farqni qidirish bilan mashg'ul bo'lsang, demak, senda oddiy nusxa ko'chirish emas, balki koloritga ongli yondashuv jarayoni sodir bo'ladi».

Rangtasvirda yorug'lik kuchi doirasidagi munosabatlardan tashqari rang kuchi (yorqinligi) va rang munosabatlari proporsionalligi ham berilishi lozim. Bu jarayonda rangning yorqinlik munosabatlari muhim o'ringa ega. Chunki rangtasvirdagi haqqoniylik rang tuslarining aniq berilishiga nisbatan rang kuchi munosabatlarining to'g'ri topilishiga bog'lik bo'ladi. «Yorug'lik predmetning tashqi ko'rinishni belgilaydi. Yorug'lik tufayli uning qirralarini, uch o'lchamli relyefini, o'z haqiqiy rangini va uning aniq o'lchamlarini ham sezish mumkin. Yorug'likda mayda qismlarni, ranglardagi soya xususiyatini, material tuzilishini, g'ovaklarni, taxlamlarini, yuza tuzilishi va uni qayta ishlashni ko'rishimiz mumkin»¹.

Agar buyumlarning mutloq rang va yorug'lik kuchi munosabatlarini barobor berishga harakat qilinsa, tasvirda tuslarning to'liq chalkashuv holati sodir bo'ladi. Natijada matoda haqqoniy tasvir paydo bo'lmaydi. Odatda, yosh rassomlar soddalik bilan palitradagi bo'yoqlarning kuchi tabiatdagi ranglar kuchi bilan teng deb hisoblab, aynan unga mos rang va yorug'lik darajasini topish mumkin deb o'ylashadi. Ular o'z ishlarida jon-jahdlari bilan naturani ko'chirishga harakat qilishadi. Bir necha bor qayta va qayta nusxa ko'chirishadi, qiynalib aniq rangni topishga intilishadi, ba'zan sovuq ba'zida esa issiq ranglardan iborat turli buyoq qorishmalarini sinab ko'rishadi. Biroq ularning nihoyasiz urinishlariga qaramay haqqoniy tasvirga erishib bo'lmaydi. Naturani haqqoniy tasvirlash yoki o'z taasurotlarini aniq ifodalash zaruriyati haqidagi fikrni ular to'g'ridan to'g'ri tushunadilar. Ular naturadagi buyumlar rangidan nusxa ko'chirishning imkonsizligini va buning zarurati ham yo'qligini anglamaydilar.

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. V bob.*

Yagona natura kompozitsiyasini chizayotgan bir nechta rassomlarda tasvir goh sovuq, goh esa issiq ranglarda aks etishi mumkin. Ularning ba'zilarida kolorit biroz yorug', ba'zilarida esa to'q ko'rinishda bo'lish ehtimoli bor. Rassomlar ifodalagan alohida jismlar taqqoslansa, ularning barchasi rangi, yorqinligi va yorug'lik darajasi bilan o'zaro farqlanishi mumkin. Shu bilan birga agar rang va yorug'lik kuchining buyumlar orasidagi o'zaro farqi aniq bir xillikda ifodalansa har bir rassom tomonidan amalga oshirilgan tasvir naturaga aynan o'xshashlik taassurotini beradi.

Bo'yoqlar orqali ishlangan haqqoniy tasvirni musiqiy ohang bilan taqqoslansa bo'ladi. Agar musiqa tarkibidagi ohanglar orasidagi munosabat saqlanib qolingan bo'lsa inson musiqani baland yoki past registrda o'ynalganligidan qat'iy nazar bir xilda his etadi. Biroq uning ohanglari tarkibidagi o'zaro munosabatlar buzilsa, mavjud musiqa ham yo'q bo'ladi. Bu jarayon bo'yoqlar bilan ham yuz beradi. Rassom och yoki to'q yorqinlikdagi bo'yoqlar gammasini tanlashi mumkin, ammo uchta asosiy xususiyat doirasida buyumlar orasidagi o'zaro tafovutga, albatta, amal qilishi kerak. Shundagina asar haqqoniy, yaxlit va garmoniya taassurotini beradi. Naturadagi ranglar yorug'ligi, rangi va yorqinligi munosabatlari bilan proporsional tarzda bog'lanmagan bo'yoqlar musiqadagi qalbaki nota kabi ajralib turadi va nomutanosiblik taassurotini uyg'otadi.

Xulosa shuki, rassom o'z oldiga tasvirning rang, yorug'lik va yorqinlik jihatidan natura bilan mutloq tenglashtirmasdan tasvir lanayotgan buyumlar yuzasi bilan naturadagi tus va rang munosabatlari orasidagi tafovutning proporsionalligini saqlab qolishni asosiy vazifa etib qo'yishi kerak. Shundagina rassom kutilgan natijaga, ya'ni haqqoniy tasvirga ega bo'ladi (*13-rasm*).

Ikkita yoki bir nechta buyumlar orasidagi ravshanlik, tusi va yorqinlik sifatleri naturadagi ranglar munosabati deb ataladi.

Matoda tasvirlangan bir nechta buyumlar orasidagi yorug'lik tus va *yorqinlik* jihatidan naturaga proporsional tafovuti rangtasvirda *rang munosabatlari* deb yuritiladi.

Rangtasvirda o'zaro munosabatlar vazifasi ranglarni ifodalash bilan murakkablashib boradi. Chunki endilikda nafaqat nur va

soya o'yinlarini, balki rang munosabatlarini ham berish zaruriyati tug'iladi.

Istalgan obyekt yuzasidagi rangni aniq va to'g'ri munosabatlarda tasvirlash quyidagilar bilan belgilanadi. Birinchidan, mazkur yuza rangi yorug'ligi tasvirda boshqa yuzalar (yoki buyumlar) yorug'ligining darajasi nisbatida bir xil bo'lishi lozim. Ikinchidan esa naturada yuzaning rangi intensivlik jihatidan qanchalik kuchli yoki kuchsiz bo'lsa, tasvirda ham intensivligi shu darajada kuchli yoki kuchsiz ifodalanishi kerak.

Rangtasvirda nur va soya munosabatlarining ifodalanishi ranglar munosabatlari bilan ajratilmaydi. Ular chuqur birlikda, o'zaro uzviylikda hal etiladi. Rangtasvirda rang aniqligi nafaqat nur va soya munosabatlarining aniq ifodalanganligi natijasidir, balki rang munosabatlarining to'g'ri topilganligi mahsuli hamdir. Shuning uchun ham rangtasvirda buyum shakli asosiy rangning to'qlik yoki ochlik sifatleri bilan hosil bo'lmaydi. Rangning uchta sifatleri va rang tuslarining aniq ifodasi orqaligina bunday natijaga erishiladi. Realistik rangtasvirda biror bir shakl ifodasida nur, soya hamda rang munosabatlari asosiy hal qiluvchi o'ringa ega. Rang va yorug'lik kuchi yagona nisbatga rioya qilingan holda ifodalangan taqdirdagina, ya'ni har bir yuzaning tus va rang jihatidan proporsional munosabatlari aniq topilgandagina asar tekisligida tasvirlanayotgan shaklning hajmi, tabiiy xususiyatlari, fazoviy makon va yorug'ligi hosil bo'ladi (12, 13, 14, 15, 16-rasmlar).

Noto'g'ri tasvirlangan tus va rang asardagi yaxlitlik hissiyotini buzib yuboradi, unga belgilangan joy yoki ma'lum bir makondan uzilib qolganlik taassurotini beradi.

Savollar:

1. *Tabiatdagi ranglar qanday aks ettiriladi?*
2. *Rassom Korovin rang haqida nima degan?*
3. *Rang munosabatlari nima?*
4. *Rang proporsionalligi nima?*
5. *Shaklda yorug'lik orqali nimani ko'ramiz?*
6. *Buyumlarning mutloq rangini aks ettirish nimaga olib keladi?*
7. *Rang koloriti nima?*
8. *Rang munosabatlari nima?*

IV BOB

4.1. Ranglarning ruhiy tasiri

Ranglarning hayotda insonlarga ruhiy ta'siri katta. Bola tug'ishi, beshik to'yi, nikoh to'ylari kabi quvonchli voqealar va bayramlar bo'lib o'tadi. Bularning hammasi yaxshilik, xursandchilik, jo'shqin hayotni ko'rsatuvchi voqealardir. Atrofdagi ranglar ham shularga monand qizil, sariq, yashil, moviy rangda jo'sh urib charaqlaydi. Chunki bu ranglar insonning ko'tarinki kayfiyatiga monandir.

Ko'tarinki ruhdagi mavzularda asar yaratgan rassomlarimizning rangtasvir asarlariga nazar tashlasak, unda yorqin, sho'xchan rangdagi bo'yoqlar ishlatilganini ko'ramiz.

O'rol Tansiqboyevning «Mening qo'shig'im» kabi asarlari bizga ma'lum. «Mening qo'shig'im» manzara asari shunday ishlanganki, bir qarashda kishini o'ziga maftun qiladi, shunday joylarga borib dam olish havasini uyg'otadi. Manzaraning old tomonida ochilib turgan yorqin sariq rangli tog' gulini, orqa tomonida tog' manzarasini va qishloqni ko'ramiz. Moviy manzara tomoshabinlarni o'z bag'riga chorlayotgandek go'yo (*26-rasm*).

Rassomlardan P.P. Benkovning «Uzum uzish», N.G. Karaxanning «Oltin kuz» asarlari ham tomoshabinlarga katta estetik ta'sir qiladi.

Tarixda dahshatli tabiat voqealari, siyosiy voqealar, urushlar yuz berib turgani ma'lum. Rassomlarimizning ana shunday mavzularda ishlangan rangtasvir asarlarini eslaylik.

Bryullevning «Pompeyning oxirgi kuni» asarida eramizning I asri boshlarida Italiyaning Pompey shahrini lava (yuqori darajadagi qizib yotgan suyuq modda) bosadi, butun imorat, daraxt va boshqa narsalarni vayron qiladi, aholi vahimaga tushib, bu dahshatdan qutilish uchun qocha boshlaydilar. Rassom bu voqeani har tomonlama o'rganib, polotno yaratgan. Biz bu asarni tomosha

qilar ekanmiz, albatta, birinchi galda ranglarga, qora bulutsimon tutunga, olovga, kishilar harakatiga ko'zimiz tushadi. Bunda katta fojia qayg'u va azobni sezamiz.

Demak, qora, qizil, zarg'aldoq ranglar qayg'uni, fojiani ifodalashga xizmat qiladi.

Rus rassomlaridan Boris Iogansonning tarixiy mavzuda ishlagan (1937-y) «Eski Ural zavodida» degan asarini olib ko'raylik.

Bunda og'ir mehnatdan qiynalgan ishchilarning eski qorong'i zavod sexida, zavod xo'jayini bilan yuzma-yuz uchrashuv tasvirini ko'ramiz. O'tirgan ishchi horg'in, kiyimlari eski-tuski orqa tomondan keksa va yosh ishchilar ham tushkun kayfiyatda tasvirlangan. Chap tomonda zavod xo'jayini tasvirlanadi, uning po'stini, do'mboq, semiz oppoq qo'li, barmog'idagi oltin uzuklari ishchilarga qarama-qarshi qo'yiladi.

Bu asarda qoramtir quyuq ranglarni ko'ramiz. Inson qalbida qayg'ulik, og'ir ruhiy holat aksi sodir bo'ladi.

◆ Ranglar iqlimi (ta'siri)

Uy devorini bo'yash uchun rang tanlash, parda uchun qaysi rangdagi gazlamani olish xususida maslahatlashib o'tirilmaydi, chunki o'zimizni bu sohada bilimdon deb hisoblaymiz.

Bu sohada biror umumiy tavsiya bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Ammo shunday tavsiyalar bor. Ular rangning insonga ta'sirini o'rganib tuzilgan.

«Rang va inson» muammosini turli mutaxassis olimlar o'rganishyapti. Ular orasida doktorlar, fiziologlar, kimyogarlar, fiziklar, muxandislar, psixologlar bor.

Ranglar inson organizmiga, uning asab tizimiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish binolarini bo'yash bo'yicha taniqli mutaxassis, Fransiyadagi texnika estetika institutining asoschisi Jan Venon bunday yozgan: «Rang har narsaga qodir: u nur orqali xotirjamlik va hayajonni keltirib chiqara oladi. U garmoniyani vujudga keltirishi va larzaga solishi mumkin, undan mo'jizalar kutsa bo'ladi, ammo falokatga olib kelishi ham mumkin». Asrlar davomida to'plangan tajriba ham bu fikrni tasdiqlaydi. Qizil rang hayajonga solishini,

ko'k rang xotirjam qilishini, qora rang qayg'ular uyg'otishini qadim zamoniardayoq bilganlar. Sariq rang esa kayfiyatni yaxshilaydi.

Ranglarni qadim zamonlardayoq iliq va sovuq ranglarga ajratganlar. O'rta asr doktorlari ba'zi ranglarning sehrli kuchiga ishonib, odamlarni rang bilan davolamoqchi bo'lganlar. Davolashning bunday usullari hozir ham qisman saqlanib qolgan. Masalan: Fransiyada ruhiy kasallarni devorlari maxsus rangga bo'yalgan xonaga joylashtirib davolaydilar.

Rus ruhshunosi va asabshunosi V.M. Baxterov laboratoriyasida rangli yorug'likning ruhiy jarayonlar o'tish tezligiga ta'siri aniqlangan. Uzun to'liqlik yorug'lik ruhiy jarayonni tezlatishi, o'rtacha to'liqlik reaksiya tezligini pasaytirishi, qisqa to'liqlik yorug'lik kishini ezishi ma'lum bo'lgan. Moviy rang kishi asabini xotirjam qilgan. Ruhan ezilgan kishilarga esa och qizil rang foydali ta'sir qilgan.

Olimlarning tajribalari anemiya — kam qonlik kasalligi uchragan bolalarni davolashda qizil rang foydali ekanligini ko'rsatadi. Bunday bolalarda qizil rang ta'sirida qizil qon tanachalari ko'payib, kayfiyati yaxshilanib, semira boshlaganlar.

Ko'k rang ko'zning qon bosimini kamaytirib, qonning qon tomirlaridan normal yurishini ta'minlaydi. Buni professor S.V. Kravkov aniqladi. Uning shogirdlari esa rang bilan davolash usulini ishlab chiqdilar.

Gloukoma kasaliga chalingan kishilar uchun hozir ko'k shishali ko'zoynaklar ishlab chiqariladi.

Bularning hammasi va boshqa faktlar turli rang kishi organizmiga, asab sistemasiga va ko'zga turlicha ta'sir qilishidan dalolat beradi.

Ko'zimiz juda murakkab va eng takomillashgan optik asbob, asosiy sezgir organlarimizdan biridir. Odamlar hayot tajribasining 80—90 % ni ko'z orqali o'rganishlarini ruhshunoslar aniqlaganlar.

Ko'zning sezgirlari ham hayron qolarlidir. Agar havo musaffo bo'lganda edi, inson 200 km uzoqlikda yonayotgan shamni ko'rishi mumkin bo'lardi. Ko'z bir sekundning mingdan uch qismi davomida yaltiragan yorug'likni seza oladi, ko'z quyosh spektrida bir-biridan farq qiladigan rangni ajratib oladi.

Qanday rang ko'zni ko'proq charchatadi? Ma'lum bo'lishicha sariq, ko'k, oq ranglarga ko'z tez o'rganib qolar va uncha charchamas ekan. Qizil va moviy ranglar ko'zni tez charchatar ekan. Bir necha maktabda o'tkazilgan tajriba ham shuni tasdiqladi. Maktabda oddiy matematika misollari yechiladi. Lekin bu misollar oq qog'ozga emas, och qizil, och ko'k rang qog'ozlarga yozildi. Misollar ko'k qog'ozda oq qog'ozdagiga nisbatan 21.3 % ko'p to'g'ri hal qilingan. Qizil qog'ozdagi to'g'ri hal qilingan misollar esa 19 % kam bo'lgan.

Olimlar tomonidan ko'p yillik tajribalarda to'plangan ma'lumotlar asosida professor E.B. Rabkin turli ranglarning ko'zga ta'siri grafisini tuzib chiqdi. Bu grafikka ko'ra, ko'z o'rta to'liqlik o'zgaruvchi sharoitga ham moslashishini aytib o'tish kerak. Shu xususiyat tufayli inson kunduzi yorug'da ham, tungi zulmatda ham yo'ldan adashmaydi. Rangni ajrata bilish har kishi uchun eng qimmatli xususiyatdir. Bu xususiyatni saqlash va undan to'laroq foydalanish masalalari bilan tibbiyotning ko'rish gigiyenasi degan tarmog'i shug'ullanadi.

Ba'zi ranglar ko'zni quvontiradi, boshqalari charchatadi. O'rinsiz ishlatilgan rangli bo'yoq mehnat unumdorligini pasaytirishgagina emas, balki jarohatlanishga ham olib kelishi mumkin.

«Ko'z charchadi» deyishning mohiyati nima? Oson bir tajriba buni tushuntirishga imkon beradi. Qip-qizil doiraning yarmini qora qog'oz bilan berkitib, doiraning o'rtasiga 30—40 daqiqa tikilib turing. So'ngra qora qog'ozni olib tashlasangiz, qog'oz bilan berkitilgan qismi xiraroq ko'rinadi. Bu bilan rang o'zgarmaydi, balki ko'zning rangga sezgirligi vaqtincha va ko'k ranglarni oson farq qilishini ko'rsatadi.

Eslatma. Qizil va to'q sariq rang uzun to'liqlik, och sariq va ko'k rang o'rta to'liqlik, moviy, zangori, binafsha ranglar qisqa to'liqlik hisoblanadi.

Savollar:

1. *Ranglarning insonga ruhiy ta'siri qanday?*
2. *O'rol Tansiqboyevning «Mening qo'shig'im» asari qanday ta'sirga ega?*
3. *Bryullevning «Pompeyning oxirgi kuni» asarida ranglar qanday?*
4. *«Eski Ural zavodida» asarining ranglari qanday?*

5. «Rang va inson» muammosini kimlar o'rganayapti?
6. Fransuz Jan Veno rang haqida nima degan?
7. Issiq va sovuq ranglar ta'siri nimada?
8. Qayg'u hissini hosil qiluvchi ranglar qaysilar?

4.2. Rang koloritini hosil qilish

Biz rassomlar san'atimizning ayrim bo'limlarini nazariy isbotlash va asoslashga zarurat sezamiz, negaki ularda shaxsiy munosabatdan nariga o'ta olganimiz yo'q.

Boshqa san'at turlari vakillari bilan solishtirganda rassomlar unchalik yaxshi ahvolda emasligi ko'rinib qoladi, negaki musiqa sohasida kompozitsiya va garmoniya nazariyasi konservatoriyada zaruriy kurs sifatida o'qitiladi. Rangtasvirda esa uning ko'pgina bo'limlari, ayniqsa, kolorit masalasi ilmiy asoslanmagan. Albatta biz rangtasvirni o'rganishda ilmiy ishlangan, shuningdek, tajriba yordamida isbotlangan perspektiva, optika va rangshunoslik masalalariga duch kelamiz.

Kolorit masalalarini nazariy jihatdan o'rganilmaganining sababi ushbu muammo rassomlar va tadqiqotchilarni qiziqtirmaganligida emas. Rassomlar ongida koloritga nisbatan hurmat qadimdan mavjud, ammo ulardan ko'pchiligi o'zini o'ylantirgan sohaning qonuniyatlariga kirishiga harakat qilmadi. Shuning uchun ham koloritni «o'rganib bo'lmaydi» deyiladi. «Kolorit deganda hamma ko'rinib turgan narsalarning rang qiyofasi tushuniladi. U yorug'lik, ko'rib idrok qilish va fikrlashning qator qonunlariga bog'liq. Bizning vazifamiz mana shularni ko'rsatish: kolorit tabiatda qanday yuzaga keladi, qanday anglanadi va keyin tasvirda ifodalanadi; umumiy va juz'iy koloritni yuzaga keltiradigan qonuniyatlarni, predmet yorug'-soyasi, uning xususiy va yuzaga kelgan rangi, yorug'lik ta'siri ostida predmet tashqi qirralarining o'zgarishini ochib berish; bizning ongimizda kolorit haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradigan qonunlarni ko'rsatish va kartina tekisligida real koloritni aks ettirishga yordam beruvchi texnik usullarni ko'rsatish. Shunday ketma-ketlikda bizning ifoda tarzimiz rivojlanadi»¹.

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. I bob.

Bizni rangtasvir ustalari oldida, ularning koloristik asarlari oldida bosh egishimiz ostonada tiz cho'kkan holda to'xtatib qo'ymasligi kerak. Koloristik soha bilan nomi chatishib ketgan Delakrua o'z davrida shunday degan edi: «Mening nazarimda ijodkorlar kolorist bo'lib tug'iladi, so'ngra rassom bo'lib qoladilar».

Biron bir sohada ham progress va navotorlik bolalarcha o'yin sifatida paydo bo'lmaydi, shu asosda rangtasvirda ham. XX asrda uning metodik qonunlari va jihatlarini anglamaslik o'ta soddalik bo'lar edi.

Ajoyib san'at asarlari oldidagi hayajonlarimiz koloristik to'xtamlar asosini tashkil etuvchi tamoyillarni tushunishga, ularning avval o'tgan rassomlar ijodi bilan bog'liqligi va navbatdagi kashfiyotlar muallifi bo'lib qolgan boshqa rassomlar navotorligini anglashga turtki bo'lishi zarur.

Falsafa, biologiya fanlaridagi kabi tasviriy san'atda ham ikki nuqtai nazar mavjud bo'lib, ular doimiy o'zaro kurashib keladi. Birinchisi o'z terminologiyasini o'zgartirsa-da, san'at voqeli-gidagi ijodiy jarayonlarni anglay olmaysiz. Go'yo ular shaxsning qonida vujudga kelishini yoqlovchi nuqtai nazardan iborat. Yana boshqa rassom u yoki bu asarni yaratayotgan paytda uni o'rab turgan jamiyatga bog'liqligi jihatidir. Har ikkala nuqtai nazar o'z o'rnida haqdir. Negaki asar yaratilish jarayoni individumga bog'liq, bu asardan esa jamoatchilik manfaat ko'radi.

Dasturlarda ro'y berayotgan o'zgarishlardan qat'iy nazar bizning o'rta va oliy o'quv yurtlarida chizmatasvir darsi nihoyatda tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan o'qitilayapti. Shunga qaramay rangtasvir va koloritga nisbatan munosabat har bir kishi uchun xususiy ishga aylanib qoldi va talabalar «o'zini» topishi uchun berilgan bu «to'la erkinlik» chog'ida kim qanday eplasa shunday harakat qildi.

Ko'pchilik taniqli rassomlar rangtasvir va kolorit sohasiga qanday munosabatda bo'lishi haqida fikr qoldirganlar, xususan, ular ta'limning dastlabki bosqichida «ong» va «qonunlar tizimi»ga murojaat qilishni maslahat bermaydi, ya'ni rangni tafakkur va aql bilan emas, balki qalbdan, bo'yoqlar bilan izlash lozim.

Shunday qilib, shogirdga rahbarlik qilish chog'ida rangtasvir masalalarida uning intuitsiyasi, didiga murojaat qilinadi.

San'atga aloqasi bo'lmagan kishilar odatda did rassomning muhim xususiyati ekanligini qat'iy ta'kidlaydilar va buni estetik etalon deb biladilar.

O'zlari esa «didlar haqida tortishmaydilar» degan fikrlarida qat'iy turadilar.

Ammo «didlar» va oddiy did bor. Tortishuv ana o'shalar orasida boradi. Rassom ta'bga ta'bsizlik qarshi turishini yaxshi biladi va ularning tortishuvi tabiiy bo'libgina qolmay, balki qonuniy hamdir. Kurash san'atdan tashqaridagi didsizlik va rassom didi o'rtasida emas, balki san'atning o'zidagi didsizlik orasida ketadi. Demak, didsiz rassom bo'ladimi, degan savolga ijobiy javob olish mumkin.

Bundaylarni har qanday san'at, har qanday ijtimoiy formatsiya, turli ijodiy o'qimlardan topsa bo'ladi.

Aynan o'shalar tabiat, hayot voqeligini bezab ko'rsatishga va oxir-oqibatda butun borliqni yo'qolishiga olib keluvchi «go'zallikni» tiqishtirishga intiladilar.

Haqiqiy rassomda did — bu cheksiz go'zallikni yig'ish va biror narsaga hisobsiz tarzda e'tiqod qo'yishidan iborat emas, balki yengil shon-shuhrat ortidan quvmaydigan shaxsini belgilab beruvchi, rassom ijodini nazorat qiluvchi ajdodlar mahoratida, yillar davomidagi ish tajribasida jamlangan mavzu, kompozitsiya, plastika, kolorit kabilarni egallashdan iboratdir.

Bu ko'pchilik rassomlar uchun xos xususiyatdir.

Albatta, didga nisbatan salbiy munosabatda bo'lmagan, unga ega bo'lgan rassomlar bor, ammo ular e'tiborga sazovor bo'lgan asar yaratmagan, san'atda o'zigagina xos yo'lga ega bo'lmagan. Bunga jo'shqinlik, ijodiy jur'at, yorqin shaxsiy xususiyatning mavjud emasligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Nihoyat, katta iqtidorga ega, san'atda yangi yo'l ochgan, o'z asarlari shakli va mazmuni bilan didning oddiy talablarini buzgan rassomlar bor.

Ba'zan rassomning didi o'zgargan payt ham bo'ladi. I. Repinning yoshi yetmishga borganda xuddi shu holat ro'y berdi.

Shunday qilib, did rassomning yagona eng muhim jihati bo'lmasa-da, lekin uning zaruriy xususiyatlaridan biri bo'lib qoladi. Did qanchalik yuqori bo'lsa, rassom ustidan hukmron bo'lgan hislar va g'oyalar o'zining mustahkam estetik ifodasini shunchalik yuqori ko'taraveradi.

Shu narsa quvonarliki, san'at tarixida yuksak mahoratli, ajoyib didga ega bo'lgan, o'ziga xos ijod uslubini topgan, jahon san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan rassomlar ko'plab topiladi.

Tasviriy san'at tarixidan ma'lumki, buyuk mahoratli, chuqur ma'noga, didga ega bo'lgan K. Behzod, Leonardo da Vinchi, Tisian, Ep Greko, Veroneze, Vermeer, Delakrua¹, Surikov, Serov, Yu. Elizarov, N. Qo'ziboyev va boshqalar yaratgan asarlar jahon xalqining merosidir.

◆ Kolorit manba(resurs)lari

Nazarimda koloritni boyitish yo'llari tabiatni kuzatish va haqiqiy xalq san'atlarini o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xalq san'ati o'rganib bo'lingan, yangilik uchun asos bo'la oimaydi deydiganlar bo'lishi mumkin. Ammo «Butunlay unutilgan eskilik – bu yangilikdir» deydilar xalqimiz. Ko'p eskilikka yangicha qarash va yangicha his qilinishi mumkin.

Ma'lumki, o'rganishga tabiat, uning boy hayoti va o'zgarishlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Dekorativ – bezak san'ati rassomlari allaqachon tabiatdagi gullarni boy koloritiga, kapalak va boshqalarga murojaat qilganlar.

Biz bilamizki tabiatda to'tilar, kapalaklar va boshqalarning yorqin ranglarini didsiz, palapartish deb bo'lmaydi, balki aksincha.

Ammo ba'zi rassomlar o'z asarlarida kolorit ketidan quvib didsizlikka uchraydilar. Tabiatda tosh, daraxt, ko'kat, gullardagi ranglar tusi nisbatlarini hosil qilgan kolorit bizga saboq bo'lishi mumkin.

Haqiqiy kolorist – rassom uchun atrof-muhitni, hayotni kuzatib olishi muhim. Kuzatilgan hodisalarni va narsalarni eslab qolish zarur.

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World.

Rassom har doim, hamma joyda kuzatishni o'z ongiga singdirishi kerak. Odamlar guruhida ritm va chiziqlar, rang dog'lari, kiyimlari uyg'unligi yangi va esdan chiqmaydigan kuchga egadir. Bola ko'targan ayol, uning kiyimlari uyg'unligi, tuzilishi o'zgacha go'zallikka ega bo'lishi mumkin.

Tabiatning badiiy ijodi cheksiz bo'lib, har qanday rassom uchun haqiqiy ilhom berib, koloritini boyitadi, rang-baranglikka, doimiy yangilikka ruhlantiradi. San'at hayotga taqlid qilibgina qolmay, balki shoirona aks ettiradi, undan zavqlanadi. Bu rassom oldida cheksiz izlanish, yangi vositalar topish kabi buyuk vazifalar turadi. Shuningdek shablonlardan qochishga undaydi.

Koloritni o'rganish, izlash, yangi tomonlarini ochish, ixtiro qilish kartinada mavzuni qalbdan aks ettirish uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ranglarning *koloristik* asosi — bu ranglar birligi, hamohangligi prinsipidir. Kartinadagi bo'yoq ranglar birligiga bo'ysundirilmasa, u doim yorqinligi bilan ajralib qoladi, jami bo'yoqlar gammasiga begona bo'ladi. Shuning uchun kartina yoki etyudga biron bir rang berishda boshqa ranglar koloriti bilan bog'lash muhim. Umumiy rang ohangi bilan bog'lanmagan rang xolost sathidan chiqib ketadi va tasvirning umumiy rang tuzilishini buzadi. Kartina rang koloritini hal qilmaslik, kartinaning qisman bo'linib ketishiga, kompozitsiya yechimiga salbiy ta'sir qiladi. Ma'lum yorug'lik vaqt holatini ko'rsatib bermaydi.

Kolorit va rang munosabatlari qonuni, shaklni chiziqlar orqali proporsiyalar birligida ko'rsata bilish, uning relefini, materialligini, fazoviy makonini aniqlash, o'rab olgan jismlarga, har xil vaqtdagi yorug'lik holati va har xil ob-havo sharoitini sezish kabilardan iborat bo'ladi (*26-rasm*).

«Naturada kolorit deb yorug'lik muhitiga, predmetlarning o'z rangiga va nigohning sezgirligiga bog'liq bo'lgan kuzatilayotgan predmet va holatlarning rang qiyofasiga aytiladi»¹.

Haqiqiy kolorist — rassom bo'lish, bu «rangdorlik» uchun ishlash degani emas. Agar rassom talanti katta ma'noni, mavzuni,

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. III bob.

go'zallikni ochib beruvchi asar uchun xizmat qilsa rangtasvir, rangdorlik o'z-o'zidan yo'qolmaydi.

«Kartinadagi kolorit deb predmet yoki holatning rangtasvir holati yoki rang qiyofasini beruvchi bo'yoqlar jamlanmasiga aytiladi. U real dunyo rangini aks ettiradi va kartina g'oyaviy mazmunini ifodalashga yordam beradi»¹.

Ba'zida «ranglar chiroyli» deyilganda, bu rassom uchun unchalik maqtov emas. Balki kartinaning ma'nosi, g'oyasi e'tiborga loyiq bo'lmay, rassom o'z oldiga qo'ygan ijodiy maqsadga erisha olmagan yoki u butunlay bo'lmagan.

Buyuk rassom o'z ijodida koloritdan kartina g'oyasida rangtasvir, mavzu, chizmatasvir, nur, rang, shakl plastik uyg'unligini ajratmaydi.

Savollar:

1. Kolorit deganda nimani tushinasiz?
2. Kolorit haqida Delakrua nima degan?
3. Rang koloriti qanday hosil qilinadi?
4. Asar yaratilish jarayoni nimaga bog'liq?
5. Jahonning buyuk mahoratli rassomlari kimlar?
6. Issiq kolorit qanday hosil qilinadi?
7. Sovuq kolorit qanday hosil qilinadi?
8. Kolorit hosil qilishda nimadan foydalaniladi?

4.3. Rang estetikasi

Garmoniya so'zi grekcha («*harmonia*») bo'lib, bog'lovchi, umumiy, xushbichim ma'nolarini beradi. Umuman garmoniya deganda qismlarning umumlashgan, o'zaro bog'langanligini aks ettirishni tushuniladi.

Teng miqdorda aralashtirilgan sariq va ko'k ranglardan yashil hosil bo'lib, inson ruhini ko'taradi.

Baqlajon (*ultramarin*) rangga qo'shimcha yashil — sariq qo'shilsa, kontrast rangga esa qovoq rang. Binafsharangga qo'shimcha sariq — yashil, kontrastga esa sariq hisoblanadi. Ba'zida kontrast rang tushunchasini soddalashtirib qo'shimcha rang deb yuritiladi.

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. III bob.*

Rassomlar buyumning shaxsiy rangi tushunchasini «lokal rang» deb yuritadi. Lokal rang — bu yorug‘likda o‘zgarmaydigan, buyum rangiga xarakterli, «xotiroviy» rang bo‘lib, ular tuslanmaydigan, tekis ranglar hisoblanadi. «Umuman kartinadagi rang buyum-shaklining aynan o‘z rangi emas. Kartinadagi rang rassomning his qilib, boyitib aks ettirilgan ranglar majmuasidir», — deydi N.N. Volkov. R.M. Iverson esa: «Rang — bu ko‘zingizga ko‘ringan, ammo ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan rang emas!», — deydi.

Rassomlar qoramtir va och rang majmuasidan foydalanib, eng yorqin rang ko‘rinishini hosil qilishi mumkin. Rang his qilish nisbatlarini kuzatish yordamida yorqinliklarni rang-barangligini ko‘ramiz. Rassomlar tabiat(plener)da rangtasvir ishlayotganda ranglarning aynan o‘zini ko‘chirmay, balki sun‘iy ravishda ularning yorqinligini, tusini nisbatlarda saqlab, kolorit hosil qilib asarlar yaratadilar. Tomoshabin kartinadagi ranglarni his qilishining, tabiatdagi ranglarni his qilishidan farqliligi rassomning muvaffaqiyatidir. Shuning uchun ham kartina natura rangidan farq qilishi lozim. Rang rassom tomonidan yaxshi Tashkil qilinsa va rassom ehtirosiga monand bo‘lsa, kartina ta’sirchan bo‘lishi mumkin.

Ranglar nisbati garmoniyasining umumiy prinsiplardan biri, ranglar tusining bir-biriga yaqinligi va o‘zaro qo‘shimcha ranglar majmuasidan hosil bo‘lishidir. Ranglar garmoniyasi nisbati har xil bo‘ladi. Ularning kombinatsiyasi shu ranglarga juda yaqin, har xil tusdagi ranglardan tashkil qilinishi mumkin (13, 18-rasmlar).

Ranglar garmoniyasini quyidagi misolda ko‘ramiz:

<i>Ko‘k — qovoqrang</i>	}	<i>Qizil — sariq — ko‘k</i>
<i>Binafsha — sariq</i>		<i>Gilosrang — sariq — moviy</i>
<i>To‘q qizil (gilos rangi) — yashil</i>		<i>Qizil — yashil — ko‘k</i>
<i>Ko‘k — yashil — sariq</i>		<i>Sariq — binafsha — qovoqrang</i>
<i>Moviyrang — qizil</i>		

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. III bob.*

Ranglar garmoniyasi nisbatini o'rganishda axromatik (qora va oq) ranglar go'zalligini esdan chiqarmaslik kerak.

Ma'lumki naqsh san'atida (gilam, chit, kulolchilik, arxitektura, qurilish, sanoat va boshqalar) ranglar garmoniyasi nisbati to'g'ri ishlatilganini ko'ramiz. Ammo rassomlar badiiy asar yaratish jarayonida kompozitsiya va kolorit obraz uchun zarur bo'lsa rang garmoniyasidan ham, garmoniya bo'lmagan ranglardan ham foydalanishi mumkin.

4.4. Yorug'lik ta'sirida rang holati

Tabiatni kuzatar ekanmiz quyosh charaqlab turganida ranglar yorqin, jozibali ko'rinsa, kun botish arafasida esa qoramtir, bo'g'iq ranglarda ko'rinadi. «Yorug'lik bepoyon, yorqin dunyoni ochib beradi va ko'z ilg'aydigan darajada sezilarli qilib ko'rsatadi. Yorug'lik tufayli biz och va to'qni, rangli va rangsizni, relefli va tekisni, uzoq va yaqinni idrok qilamiz. Yorug'lik ko'rib idrok qilishning zarur sharti hisoblanadi, bizning ongimizga jonli ko'rish obrazlari dunyosini yaratish imkonini beradi. Yorug'lik tufayli biz tabiat koloritini his qilamiz, uni tasvirlash uchun rangtasvir texnikasi xizmat qiladi»¹.

Matoda inson portretini tasvirlayotgan rassom shu kishi xarakteriga mos rang kuchini har doim ham bera olmasligi mumkin. Naturaning rang kuchini aniqlash bizning rangni idrok qilish qobiliyatimizga bog'liq.

Inson chehrasiga qaraganimizda, uning haqiqiy rangini atrof-muhit, ya'ni yorug'lik ta'siri, masofa ta'siri kabilarda ko'ramiz.

Kechqurun, oydinda va sun'iy yorug'likda rang sifati, albatta, o'zgaradi. Yorug'lik rangi inson chehrasi atrofidagi hamma rangni o'ziga bo'ysundiradi, natura rangini biroz kuchaytiradi. Masalan: elektr chiroqning zarg'aldoq nurida oq rangli mato oq bo'lib ko'rinadi. Ammo uning issiq rangi unchalik emas. Haqiqatda, matodan oq rang taralish miqdori katta emas.

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. I bob.

Elektr yorug'ligidagi oq mato zarg'aldoq rang tarqatishi, apelsinning kunduz kuni tarqatayotgan rangidan kuchlidir. Agar bu oq matoni kechqurun yoki elektr yorug'ligida tasvirlamoqchi bo'lsak, uni albatta yorqin va to'q rangda oq bo'yoq aralashtir-masdan tasvirlash kerak. Biz ishlayotgan portret rang gammasida oq bo'yoqni ko'p ishlatsak, uning tabiiy koloritini aniqlay olmay-miz.

Surikovning «Menshikov Berezovkada» kartinasida rang gam-masi hamjihatligini, yaqqolligini ko'ramiz. Kartinning barcha qismlari yorug'lik shartlariga bo'ysundirilgan. Oq bo'yoq ishlatil-ganini sezmaymiz.

Kolorit har doim ham rang kuchi asosiga qurilmay, balki netral ranglar, rang tusi va natura ranglari munosabati asosida qurilishi ham mumkin. Bu holat Serov va boshqa rus realist rassomlar asarlarida aks etgan. Charaqlagan quyosh nurida natura rangi oqarib, ular orasidagi farq darajasi kamayadi yoki yo'qoladi. Bulardan ham rassom tasvirni haqqoniy va jozibali chiqishida mahorat bilan foydalanishi mumkin.

Ba'zi rassomlar rangtasvir san'atida rang yorqinligini yoki bo'yoqlar charaqlab turishini xush ko'rsalar, ba'zilar oqish — xira va uncha kuchli bo'lmagan ranglarni ma'qul ko'radilar. Ammo, yorqinlik, bo'yoq kuchi, xiralik kolorit qimmatini oshir-maydi.

Haqiqiy koloritni ma'lum yorug'likda natura rangini tasvirlash, tabiat holatini va obrazni ochib berish bilan bog'lash rassom uchun muhimdir (*27-rasm*).

◆ Rangning ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari

Lak surkalgan moybo'yoq tasviriy asar rangi porloq va yorqin ko'rinadi, lak surkalmagani esa aksincha. Moybo'yoqda ishlangan kartina yuzi rang-barang qo'yilgan bo'yoq fakturasini odam ko'zi yaxshi qabul qiladi.

Kartina rangi sun'iy yorug'likda tabiiy yorug'likdagidan bosh-qacha ko'rinadi. Sun'iy yorug'lik quyosh nuriga nisbatan ko'k va binafsha nurlarni juda kam beradi. Shuning uchun ham sun'iy yorug'likda hamma ranglarning tusi o'zgaradi.

Ba'zi ranglarning sun'iy yorug'likda ko'rinishi va o'zgarishi

Tabiiy yorug'likdagi rang	Elektr yorug'ligida bo'yoq, rangning o'zgarishi
Cq	Sarg'ishsimon kulrang
Kulrang	Qizg'ishsimon kulrang
Sariq	Oqarib ko'rinadi
Zarg'aldoq	Qizg'ishsimon zarg'aldoq
Qizil	Quyucsimon qizil
Binafsha	Qizg'ish binafsha.
Nilobi(havorang)	Yashilsimon havorang
To'q ko'k	Qoraga yaqin

Savollar:

1. Rang garmoniyasi nima?
2. Lokal rang nima?
3. N.N. Volkov rang haqida nima degan?
4. R.M. Iverson rang haqida nima degan?
5. Rang koloriti va estetikasi qanday?
6. Sun'iy yorug'likda rang qanday o'zgaradi?
7. Oq rangning ko'rinishi qanaqa?
8. Rang kuchi nimada?
9. Rangning ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari nimada?

4.5. Ranglarga fon tusining ta'siri

Bir rangli jismning orqa tomonidagi rangga nisbatan ta'sir kuchinining o'zgarishi kuzatiladi. Albatta, shu holatlarni nazarga olish, muhimdir.

Fon tusi ta'sirida rang o'zgarishi

Rang	Fon tusi	Rangni optik o'zgarishi
Qizil	Sariq	Binafsha – qizil
Qizil	Ko'k	Zarg'aldoq -- qizil
Qizil	Zarg'aldoq	Ko'kimtir – qizil
Qizil	Yashil	To'q – qizil

Sariq	Qizil	Yashilsimon – sariq
Sariq	Ko'k	Zarg'aldoq
Sariq	Qora	Rang quyuqlashadi
Sariq	Zarg'aldoq	Yashilsimon – ko'k
Sariq	Binafsha	Kuchli – sariq
Ko'k	Qizil	Yashilsimon – ko'k
Ko'k	Zarg'aldoq	Quyuq ko'k
Ko'k	Kulrang	Qizg'ish – ko'k
Ko'k	Oq	Tim qora
Zarg'aldoq	Qizil	Yashilsimon – sariq
Zarg'aldoq	Sariq	Kuchsiz yashil
Zarg'aldoq	Yashil	Qizg'ish
Zarg'aldoq	Binafsha	Och – zarg'aldoq
Zarg'aldoq	Qora	Kuchli yorug'
Yashil	Qizil	To'q yashil
Yashil	Ko'k	Och – yashil
Yashil	Qora	Quyuq yashil
Yashil	Zarg'aldoq	Ko'ksimon – yashil
Binafsha	Ko'k	Yashilsimon – qizil
Binafsha	Yashil	Qizil – binafsha
Binafsha	Kulrang	Qizg'ish – ko'k
Binafsha	Oq	Yorqinroq ko'rinadi
Oq	Qizil	Yashilsimon – oq
Oq	Sariq	Qizg'ish – oq
Oq	Zarg'aldoq	Ko'kimtir – oq
Oq	Yashil	Qizg'ish – oq
Kulrang	Qizil	Yashilsimon
Kulrang	Ko'k	Sarg'ish
Kulrang	Sariq	Ko'kimtir
Kulrang	Yashil	Qizg'ish
Kulrang	Zarg'aldoq	Ko'kimtir

Savollar:

1. Rangga fon qanday ta'sir qiladi?
2. Issiq rangga kulrang fon tabiati qanday?
3. Fon ta'sirida ranglar o'zgarishi qanday?

4. *Sariq rangli qizil fonda qanday o'zgarish hosil bo'ladi?*
5. *Qizil rangli sariq fonda qanday o'zgarish hosil bo'ladi?*
6. *Ko'k rang kulrang fonda qanday o'zgarish hosil bo'ladi?*
7. *Yashil rangli ko'k fonda qanday o'zgarish hosil bo'ladi?*
8. *Kulrangli yashil fonda qanday o'zgarish hosil bo'ladi?*

4.6. Ranglar tusini to'liq talqin qilish (amaliy tavsiyalar)

Asliga qarab ranglar holatini va umumiy ohangini, ularning munosabatlarini proporsional miqdorini to'g'ri topish uchun, eng avvalo, ranglar tusini va nisbatini aniqlash kerak.

Ish boshida eng yorug' va eng to'yingan rangi qismini aniqlash, qaysi rang gammasi qaysi rang to'yinganligini, rangi oq yoki qoraligini aniqlash lozim (*12, 13-rasmlar*).

Rangtasvir ishlashni boshlaganda tus (ton)ni haddan tashqari oqish rangda yoki o'ta to'yingan ranglarda bo'yash maqsadga muvofiq emas.

Masalan: yoritilgan qomat yoki boshni olaylik, yorug'lik tushgan qismini o'ta yorqin rangda ishlansa, keyinchalik shu joydagi yaltiroq (blik) joylarini tasvirlash juda qiyin bo'ladi. Shakl tasviri mato tekisligidan chiqib qovushmay, asar yaqqolliqi amalga oshmaydi. O'ta rangdorlik darajasi ham maqsadga muvofiq emas.

Asli (natura)ga qarab chizilayotgan narsalarning umumiy tusini va rang holatini aniqlash maqsadida ba'zi rassomlar molbert yoniga oq yoki rangli mato bo'lakchasini osib qo'yishadi. U eng yorug' va to'yingan rangni natura bilan taqqoslab, tus nisbatlarini, koloritini aniqlashga yordam beradi.

Manzara tasvirini ishlashda umumiy tus va rang holatini to'g'ri tanlash lozim. Eng avvalo osmon, suv va yerning rang nisbatini hal qilmoq kerak.

Umumiy tus va rang inobatga olinmasa, manzaraning asosiy holati, kayfiyat tasviri amalga oshmaydi (*12-rasm*).

Rassom har bir ishlayotgan rasmida yoritilish holatini aniqlashi kerak. Ana shundagina tasvir haqqoniy chiqishi mumkin.

«Rangtasvir ustalari yoritilgan va soyalangan predmetlarni tasvirlash uchun yoritilgan joylarga yorqin, soya joylarga noaniq qiyofa berib, bu qonuniyatlardan doim foydalanganlar»¹.

Rangtasvir san'atida ashyoviylik (materiallik)ni (mato, yer, temir, chinni, meva va boshqalar) va fazodagi o'rnini tasvirlash yoritilish holatiga ham bog'liqdir.

Agar narsalarning tus jihatdan farqlari tasvir yuzasida naturadagiga mutanosib berilgan bo'lsa (oq buyum oq ko'rinsa va h.k.) biz buyum tusini va rangini, shuningdek u bilan bog'liq muhitni haqqoniy idrok etamiz.

Kun davomida yorug'lik kuchi turlicha bo'ladi, ammo barcha sharoitda ma'lum bir yuzaning idrok etilayotgan yorug'ligi o'zgarishsiz qolaveradi. Qog'oz varag'ini har qanday sharoitda ertalab, kunduzi, kechqurun biz oq rangda ko'raveramiz. Shunga ko'ra, bizning nigohiy tasavvurimiz yorqinlik munosabati bilan belgilanadi.

Agar kartina yoki etyudda yorqinlik munosabati saqlangan bo'lsa, tasvir o'zgarishsiz va haqqoniy ko'rinadi. Buyumlarning haqiqiy rangi ham, ularning makonda joylashuvi ham haqqoniy tasvirlab beriladi.

Nigohiy idrokning bu qonuniyati tus yoki rangli tasvirni bajarishda muhim ahamiyatga ega.

Agar shakllarning tus farqlari nigohiy naturaga mutanosib munosabatlarda tasvirlangan bo'lsa, tasvir yuzada ularning tus va rang xususiyati naturaga nisbatan haqqoniy tarzda saqlanadi. Grizayl usulida naturadan ishlash, tusli chizmatasvir yoki rangtasvir bajarilish paytida tasvir yuzasida tuslarni yorug'dan soyaga o'tishi shunday bo'lishi kerakki, naturadagi eng yorug' joy chizmatasvirida ham eng yorug', eng qorong'u joyi esa qorong'u bo'lishi zarur. Oraliq tuslar esa o'shalarga nisbatan kuchliroq yoki kuchsizroq tarzda tasvirlab boriladi.

Leonardo da Vinchi shunday yozadi: «...Agar sen rassom bo'lsang, yaxshi chizishga o'rganishni xohlasang, asta-sekin chizishni, rasm solishni o'rgan, qanday ranglar va ular yorug'lik-

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. III bob.

ning birinchi darajasida qanchalik ekanligini baholab bor va tusning ham quyuqligini kuzat».

Xulosa qilib aytish kerakki, tusli tasvir (grizaylda ishlangan chizmatasvir va rangtasvir) yorug' — soya munosabatlarining tuzilishga, naturaning nigohiy obraz nisbatlariga asoslanadi. Eng yorug' va eng qoramtir qismlarni tasvirlayotganda ularning bir-biridan och yoki to'q rang ekanligini naturadagidek saqlash muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ranglarning yoritilganlikdan qat'iy nazar munosabatlarga asoslanishi haqida gapirilgan edi. Ammo yorug'likning kuchli o'zgarishi bilan tus va rangning yorqinlashuvi yoki kuchsizlashuvini kuzatish mumkin. Yorug'likning o'zgarishi bilan naturaning faqat yoritilganligi emas, balki rangi ham o'zgaradi. Kuchsiz yoritilganda natura rangining to'yinganligi kamayadi. Xonada naturalar derazadan uzoqlashgan sayin rangi quyuqlashadi. Kunduzgi yorug'lik bilan qarama-qarshi yoritilgan joylar quyuq, iliq soya bilan yonma-yon bo'ladi. Shunday qilib naturadagi rangning turfa xilligi yorug'lik holatiga bog'liq bo'ladi.

Realistik rangtasvirda tabiatning yoritilganlik holatini ifodalay olish muhim hisoblanadi. Naturaning ma'lum bir soatdagi yoki ma'lum bir fasl, ob-havodagi umumiy tusi va rangdorligi shu vaqtga xos bo'ladi. Kunning turli paytida va turli ob-havoda yoki faslda ishlangan manzaralari bir-biridan farq qilishi zarur. Yetuk rassomlarning turli yoritilgan asarlari kuzatiladigan bo'lsa, ularda havo ochiq yoki bulutli kunni ifodalovchi tasvirlar ajralib turadi. Rangning quyuqligi yoki yorqinligi vaziyatning nozik yoki qaltisligini, qahramonning kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi (*16-rasm*).

Turli yorug'lik manbaida rassomlar ishlagan asarlarni kuzatganimizda, quyosh botish sahnasi barcha tasvirlarda umumiy pushti — qizil rangda ekanligini kuzatish mumkin. Oy yorug'ida yashil — ko'k, kulrang bo'yoqlar asosiy o'rin egallaydi (*12-rasm*).

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, rang birligi va bo'yoqlar muvofiqligi barcha holatlarda asosiy yoki aks etayotgan yorug'lik manbaining spektral tarkibiga bog'liq. Shuning uchun rassom naturadan asar ishlayotganda ma'lum bir tus va

rang qamrovida umumiy ranglar munosabatini tiklabgina qolmasdan, ranglar uzviyligini yoddan chiqarmasligi lozim.

Shunday qilib realistik tasvirda rang tasvirining barcha jihatlarini o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Ranglarning boyligi va muvofiqligi uning eng muhim jihati hisoblanadi. Etyud yoki kartina rangi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) hajmi, shaklni berishda va makonni ifodalashda ranglarning boyligi va xilma-xilligi;

2) yoritilganlikning umumiy tus va rang holatini hisobga olgan holda naturada asosiy rang munosabatlarining muvofiqligi;

3) naturadagi ranglarni birlashtiruvchi yorug'lik rangi ta'sirini berish.

Asarda bu vazifalarni bajarish badiiylik vazifasini hal etish bilan barobardir, shunda rangning emotsional ta'sirchanligiga erishiladi. Insonlarning idrok qilish hissiyotlari, sezgilar harakati tabiatning ko'tarinki, ham tushkin holati bilan uzviy bog'liq. Yoritilganlikning haqiqiy sharoitini aks ettirib, bu sharoitda naturaning hajmiy, moddiy, makoniy sifatlarini talqin etib tasvirning rang qurilmasi tomoshabin hissiga ta'sir qiladi, ma'lum bir kayfiyat beradi, estetik hissiyotlar uyg'otadi.

Savollar:

1. *Ranglar proporsional miqdorini to'g'ri topish uchun nima qilinadi?*
2. *Shaklning umumiy tusini va rang holatini aniqlash maqsadida ba'zi rassomlar nimadan foydalanganlar?*
3. *Kun davomida yorug'lik kuchi narsalarga qanday ta'sir qiladi?*
4. *Yorug'likda tus o'zgarishi qanday?*
5. *Nigohiy idrokning qanday ahamiyati bor?*
6. *Ranglarga ob-havoning qanday ta'siri bor?*
7. *Ertalab, kunduz, kechqurun, kechasi ranglar tusi qanday?*
8. *Etyud yoki kartina rangi nima bilan belgilanadi?*

5.1. Rang bilan ishlash

«Rangtasvir haqiqatning aniq nusxalarini emas, jonli, ko'z ilg'aydigan obrazlarini beradi; u tabiatga yorug'likning yorqinligi bilan amal qilmaydi, balki yorug'likning berilgan yorqinligida va ushbu holatda ko'rish sezgirligida shakllar tashqi xususiyatlarining o'ziga xosliklarini haqqoniy berish bilan amal qiladi»¹.

Rangtasvir savodxonligi nazariyasini doimiy ravishda o'rganib borish tasviriy san'at ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Rangtasvirning mustahkam nazariy qonun-qoidalariga tayanibgina, yosh rassom amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi va ijod yo'lga kirib borishi mumkin.

«Nazariyasiz amaliyotga kirib borgan kishi, -- deb yozadi Leonardo da Vinchi, -- kompassiz yo'lga chiqqan dengizchiga o'xshaydi va qayoqqa ketayotganligini o'zi ham tuzukroq anglab yetmaydi. Amaliyot hamisha yaxshi ishlab chiqilgan nazariyaga tayanishi lozim va nazariyasiz rangtasvirning muvaffaqiyatini hech qachon ta'minlab bo'lmaydi»².

Rangtasvirchi rassom D.N. Kardovskiy quyidagilarni yozgan edi. «... san'atni o'rganayotganlar ifoda usullari va qoidalariga bo'ysunishlari, shakl, rang, tus, xususiyat, harakat, mutanosiblikni bera olishi, ularning qonuniyatlarini bilishi lozim».

Tasviriy san'at tarixida rangtasvirga o'rgatishning amaliyoti bilan bog'liq katta tajriba to'plangan. Uslubiy adabiyotda texnik va texnologik maslahatlar bilan boyitilgan qimmatli ma'lumotlar to'plangan. Nazariyaga kelsak, bu sohada tarixiy meros yetarli emas.

Keyingi yillarda tasviriy savodxonlik nazariyasini o'qitishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bir qator uslubiy qo'llanmalar chop etildi, ularda chizma mahoratning ayrim nazariy yo'nalishlari

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. III bob.

² ЖИВОПИС. Под редакции Иогансона.

yoritib berilgan: xususan, yorug‘ — soya, ranglar, havoyi perspektiva qonuniyatlari shular jumlasidandir. Ammo bu qo‘llanmalarning mazmuniga e‘tibor beriladigan bo‘lsa, ma‘lum yetishmovchiliklarni ko‘rish mumkin. Gap shundaki, talaba yoritish, muhit, havoyi perspektiva asosida narsalar rangini qanchalik tushunib va anglab etmasin, u haqiqiy rangtasvirchi bo‘lib etisha olmaydi. Negaki bularning barchasi bilan chizmasasvir va rangtasvir nazariyasining asosiy masalalarini hal etib bo‘lmaydi.

Rassom tafakkur butunligini ko‘rish orqali anglash qobiliyatiga ega bo‘la boshlagandagina realistik rangtasvir mahoratini egallashga kirishadi. O‘nlab mashhur rassomlarni tarbiyalab etishtirgan tajribali rassom — pedagog D.N. Kardovskiy ta‘biri bilan aytganda, «Postanovkada ish jarayoniga rahbarlik qilayotganda e‘tiborni rang munosabatlarini to‘g‘ri topishga qaratish muhimdir... har vaqt munosabatlar asosida tafakkur yuritish va ishlashga o‘rganish zarur». Talaba eng avvalo rangtasvirning tus va ranglar munosabati va ularni belgilash usulidek asosiy qonunni egallash zarur.

Bulardan tashqari rangtasvir ta‘limining nazariy kursi tarkibiga chizmasasvirning rangtasvirdagi etakchi roli, perspektiva, yorug‘ — soya qonunlari, tasviriy yuzada tasvirlanayotgan ashyolarning hajmiy, moddiy, makoniy sifatlarini yetkazish qoidalari, tasvirning tus va rang butunligiga erisha olish singari masalalar ham kiritilishi zarur (*12, 16, 26-rasmlar*).

Chiziqlar va bitta rangda (bo‘yoqda) ham ajoyib portret yoki kartina yaratish mumkin.

Ammo realistik dastgohli rangtasvirda, rangli, havoyi va borliqni haqqoniy tasvirlash tili, usuli tasviriy san‘atning negizi hisoblanadi.

Hajmini, materialini, buyumlarining bir-biri bilan bog‘liqligini biz perspektivada, yorug‘ va soyada, shuningdek, rangda kuza-tamiz, ko‘ramiz. Material va hajmni idrok qilish shakl yuzasining rang-barangligi va yorug‘ — soyaning xilma-xilligiga bog‘liq. Shakl ranglari ko‘zimizdan uzoqlashgan sari o‘zgarib, birinchi plandagisi ikkinchi plandagisidan farq qilib ranglar kuchi, tusi ham o‘zgaradi.

Biz hayotda kuzatgan narsalar rangini matoda yoki qog‘ozda tasvirlayotganimizda ularni go‘zal, ta‘sirchan qilib yaratishimiz mumkin. Narsalar (shakl)ning rangini emas, ularni bizning ko‘zi-

mizga qanday ko‘rinishini hisobga olgan holda tasvirlaymiz. Ya’ni jisnlarni perspektiva orqali ko‘ringan ranglar yordamida aks ettiramiz. Bizga ko‘ringan ranglar jismning haqiqiy rangidan ancha farq qilishi mumkin. Barcha ko‘ringan jism rangi uning yaqin yoki uzoqda turishiga, rangiga, yorug‘lik kuchiga va tevarakatrofning ta’siriga ham bog‘liq. Shu bilan birga uning ravshanligi, rangi va tuyinganlik kuchi ham o‘zgaradi. Agar yosh rassom naturada rang va rang — tus munosabatlarini ko‘ra olsa, hali u yaxshi asar yarata oladi degan gap emas. U mahorat bilan ayrim ashyolarning yorug‘ — tusidan nusxa olishi, ularning hajmini ham berishi mumkin, ammo makonning moddiyligi, yoritilish holatini bera olmaydi.

Realistik rangtasvir mahoratini egallash uchun uning ikki asosiy xususiyati, mohiyatini tushunib olish zarur. Shundagina yosh rassom ixtisoslikni yaxshi egallaydi va uning har ishi takomilga erishib boraveradi.

Birinchi xususiyat shundaki, naturadan rangtasvir, uning xajmiy, makoniy va moddiy sifatlari tabiatning rang munosabatlarini nigohiy obrazlarga mutanosib o‘tkazish, ranglar o‘yinidan iborat bo‘ladi. Etyudda berilayotgan rang munosabatlarining mohiyati nigoh bilan qabul qilinayotgan munosabatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Zero, etyud rang munosabatlarining tuzilishi, yoritilganlikning umumiy tus va rang holatini hisobga olib amalga oshiriladi. Rang munosabatlari bilan ishlash metodi rangtasvir ta’limining asosiy qonuni hisoblanadi.

Ikkinchi xususiyati shundaki, natura ashyolarining rang munosabatlarini ularni chog‘ishtirish bilan belgilanadi. Naturaning rang munosabatlarini yaxlit ko‘rishga erishmay, uning tasviri to‘la ravishda bo‘lmaydi. Aynan shu ikki xususiyatlarga erishish natijasida tasvirning to‘laqonli, ta’sirchan ranglar munosabatini yaratish mumkin.

Ta’limning dastlabki paytidanoq munosabatlar metodi bilan ishlash zarur. Har bir rangni aynan va boshqalardan ajratib nusxalash mumkin emas. Bunday nusxa ko‘chirishda ranglarning o‘zaro aloqasi, ularning farqini bilib bo‘lmaydi. Bunday nusxa olish natijasida jonli nigoh tasavvuridan yiroq bo‘lgan tasvir hosil bo‘ladi.

Etyuddagi barcha bo'yoqlar bir-biriga nisbatan olinadi. Rangtasvirdagi ranglar atrof-muhit bilan solishtirish asosida topiladi va ular proporsional munosabatlarda tasvirlanishi kerak.

Savollar:

1. Rangtasvirning nazariy qonun-qoidalarini nima beradi?
2. Nazariyasiz amaliyot haqida Leonard o da Vinchi nima degan?
3. Rangtasvirdagi nazariyani amaliyot bilan bog'lash qanday amalga oshiriladi?
4. Rassom D.N. Kardovskiy rangtasvirni urganayotlarga nima degan?
5. Rassom uchun nazariy bilim nima beradi?
6. Narsalarni qanday tasvirlaymiz?
7. Nazariy bilimining rangtasvirdagi roli qanday?
8. Natura ishlashda tus nisbatlari qanday aniqlanadi?

5.2. Guash bilash ishlash

Guash — suvli yelimli bo'yoq bo'lib, akvarel bo'yog'idan katta farq qiladi. Oq qog'oz, karton, faneralarga ishlanganda yuzani tekis berkitib, ashyolarni tag rangi ko'rinmaydi, akvarelda esa qog'oz rangi bo'yoq ostidan ko'rinib turadi. Guash quyuc qilib suriladi va tekis yuza hosil qilinadi. Guash asosan plakat, panno, katta xalq amaliy san'atini bajarishda qo'l keladi. Guash bo'yog'i tez ishlanadigan vazifalarda va eskiz ishlashda qo'l keladi. U biroz oqarishi mumkin. Uning ana shu xususiyatini inobatga olish kerak. Shuning uchun ham biz rangshunoslik fanining amaliy vazifalarini bajarishda guashdan keng foydalanamiz (*28-rasm*).

Guash bilan ishlangan suratlar ob-havo sharoitiga qarab 30 minutdan 3 soatgacha vaqt ichida qurishi mumkin. Guash bo'yog'ini ikki xil ko'rinishda (Moskva, Peterburg) zavodlari ishlab chiqaradi (44 to'plamda), bu plakat guashdir. Bu tashkilotlar chiqarayotgan mahsulot o'zining oliy sifati bilan ajralib turadi. Bu bo'yoqning rangi yorqin, jozibali va o'z rangini yaxshi saqlaydi. Bu guash bo'yog'i quyoshga chidamliligi jihatidan 3 qismga bo'linadi.

1 qism. A — quyosh nuriga juda chidamli (5 ball), guash qutisida ikkita qizil yulduzcha bor. B — guash quyosh nuriga chidamli, guash qutisida ikkita qora yulduzcha bor (4 ball).

2 qism. Guash quyosh nuriga chidamliligi kuchsiz (2 ball), qutichada yulduzcha yo'q.

BADIIY GUASH

BO'YOQLAR NOMI	Yorug'likka chidamliligi (ball)
Belilasinkovaya (ruxli oq bo'yoq)	5
Belilaserebristaya (kumush tusli oq bo'yoq)	5
Strasionnayajoltaya (och tusli oq bo'yoq)	3
Kadmiy limonniy (yorqin limon rangli bo'yoq)	5
Limonnayaganza (limon tusli bo'yoq)	4
Kadmiy jyoltiy svetliy (yorqin, och sariq tusli bo'yoq)	5
Travyanayazelyonaya (o't rangli barikaram bo'yoq)	3
Yarko zelyonaya (yorqin tusli barikaram bo'yoq)	2
Izumrudno – zelyonaya (to'q barikaram rang)	2
Zelenovato – golubaya (barikaram tusli havo rang)	2
Okis xroma (barikaram rang turi)	5
Zelyonayatyomnaya (to'q barkaram)	4
Parijskayasinyaya (porlan zangori rang)	2
Kobalt siniy (yorqin ko'k rang)	5
Ultramarin (zangori rang)	4
Sinyayaantraxinovaya (ko'k rangning bir turi)	4
Fioletovo – tyomnaya (to'q tusli binafsharang)	2
Kraplak krasniy (och tusli qirmizi rang)	2
Litol krasnaya (qizil rangning bir turi)	4
Kadmiy krasniy tyomniy (to'q qizil rang)	5
Kadmiy krasniy svetliy (och qizil rang)	5
Kinovar (imitasiya) shangof, och qizil rang	3
Oranjevaya (zarg'aldoq rang)	3

Kadmiy oranjeviy (yorqin zarg'aldoq rang)	5
Oxrasvetlaya (och tusli mallarang)	5
Oxrazolotistaya (oltin tusli mallarang)	5
Siyenayanaturalnaya (to'q mallarang)	5

5.3. Moybo'yoq bilan ishlash (Amaliy maslahatlar)

«Har qanday bo'yoqlarning eng muhim texnik xususiyati ularning tuzilishi, shaffofligi, yorug'ligi, to'yinganligi va chidamliligidir. Hamma bo'yoqlar rang-barang va bog'lovchi moddalardan tarkib topadi. Bo'yoqlarning rang-barang moddasi — yog'li, moyli, tempera va boshqalar; bo'yoq turlarining farqi turlicha tayyorlanishi va bo'yoq zarralarining o'zaro va kartina tekisligi bilan aloqasining konstruktiv ishini bajaruvchi bog'lovchi moddalar tarkibi bilan belgilanadi. Bog'lovchi modda bo'yoqlarning asosiy texnik xususiyatlarini belgilaydi va ularning rangtasvirda qo'llanish usul va yo'llariga ta'sir etadi»¹.

Moybo'yoqda ham suvbo'yoqdagi kabi uzoq muddatli ishlashga kirishishdan avval postanovka(qo'yilma)dan uncha katta bo'lmagan etyud ishlab olinadi, kompozitsiya va asosiy rang munosabatlari aniqlanadi. Bundan tashqari moybo'yoqda ishlash uchun avvaldan chizmatasvir ishi ham bajariladi, bunda asosiy shakllargagina e'tibor beriladi, ikkinchi darajali qismlari moybo'yoq bilan ishlash jarayonida bajariladi. Ammo tasvirning kompozitsion joylashuvi aniq bo'lishi lozim. Moybo'yoqqa kirishishdan avval naturadagi ranglar farqi diqqat bilan o'rganiladi, ashyolar rangi qiyoslanadi. Yoritilganlikning umumiy tus va rang holati aniq belgilab chiqiladi. Ish jarayonida doim munosabatlar asosida fikrlash lozim, ashyolar rangi chog'ishtiriladi, yorug'lik va soyadagi ranglarning xususiyatlari o'rganiladi. Chizmatasvirdan so'ng mato yuzasiga yengil bo'yoq (podmolyovka) beriladi. Bunda asosiy tus va rang munosabatlari belgilab olinadi.

Moybo'yoq jarayonida bir ashyo ustida to'xtab qolish yaramaydi. Tez-tez shakldan shaklga o'tib turish kerak. Ba'zida yosh

¹ *Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.*

rassomlar ashyoni yetarli darajada yoritilganligini ko'rib, uni yoritishga kirishib ketadi, aslida esa qo'shni bo'lgan joyni quyuqlashtirish lozim bo'ladi.

Etyud¹ ustida ishlayotganda rang munosabatlarini umumlashgan holda olish zarur. Tasvir xona devorlaridan aks etayotgan yorug'lik shakllarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yorug'lik xususiyati xona devorlarining qanday rangga bo'yalganligiga bog'liq.

Yirik plandagi yorug' – soya va rang munosabatlari topilgach, har bir ashyoning yorug' – soyasini shakllantirishga o'tiladi. Har bir ashyo deyarli bir xilda bo'yalgandek, barcha ashyoning har tomoni bir xilda yoritilmaydi, shuning uchun rang bir xilda bo'lishi mumkin emas. Orqa matoni ham rang orqali barcha buklamlarini to'g'ri ifodalash zarur bo'ladi.

Rangtasvirni ishlash chog'ida barcha rang jihatlarini ko'zdan qochirmaslik zarur. Albatta ikki, uch rang jihatlariga ega bo'lgan holatlarni nigohan qamrab olish qiyin, ammo bu rang jihatlarini qiyoslab borish uchun zarur bo'ladi.

Naturadan har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uni umumlashtirish zarur. Yetarli darajada ishlanmagan yoki ortiqcha yorug' yoki quyuqlashtirilgan joylar yumshatilishi lozim. Ayrim joylarning chegarasini belgilash va mayda qismlar (detallar)ga ishlov berish talab qilinadi.

1. Moybo'yoqni aralashtirish. «Bo'yoqlarni aralashtirishda ularning rangi, to'yinganligi va fakturasini inobatga olish zarur. Rangi bo'yicha ularni oddiy, spektral va murakkablarga ajratish mumkin. Oddiy deb boshqa bo'yoqlardan tashkil qilish mumkin bo'lmagan bo'yoqlarga aytiladi. Oddiy bo'yoqlardan boshqa hamma bo'yoqlarni hosil qilish mumkin. Ko'rinadigan spektrga kirgan yoki to'liq rangli spektr tuzish mumkin bo'lgan ranglarga spektral ranglar deyiladi. Murakkab bo'yoqlar – tabiatda uchrashi mumkin bo'lgan boshqa barcha bo'yoqlar»².

2. Moybo'yoq bilan ishlash jarayoni nihoyatda murakkab hisoblanadi, ayniqsa, suvbo'yoqdan o'tilganda seziladi. Suvbo'yoq-

¹ (fransuzcha – o'rganish, mashq qilish) – naturadan bajarilgan ish (rasm).

² Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.

da qog'ozning rangi ahamiyatli bo'lsa, moybo'yoqda oq mato yuzasining unchalik ahamiyati yo'q. Tabiatda yetti xil rang mavjud: qizil, pushi, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha. Asosiy bo'yoqlarni qo'shish orqali boshqa ranglar hosil qilinadi.

«Umumiy tayyorgarlikning tanlangan rangi tabiatda yoritishning ma'lum va xarakterli holatini tasvirlashga asoslanishi kerak. Naturadan ishlashda umumiy tayyorgarlik rangi bevosita idrok qilingan kolorit qirralarini o'zida mujassam qilishi kerak; tasavvurga ko'ra, u kolorit bilan, g'oyaning obrazli mohiyati bilan belgilanishi kerak»¹. Moybo'yoqqa oq bo'yoq qo'shish bilan yorqinlashtiriladi. Shuning uchun rangtasvirchi asosiy bo'yoqni oqlash yo'li bilan boshqacha rang ko'rinishlariga *ega bo'lishni bilishi* zarur.

Ba'zan bo'yoqlar bir-biriga qo'shilgach, yorqinligini yo'qotadi. Amalda oq va qora bo'yoqni toza holda qo'llab bo'lmaydi. Qora rangni boshqa ranglar bilan mohirona aralashtirib nozik ranglar olish mumkin. Moybo'yoq bilan ishlash chog'ida etyudnik²da besh xil bo'yoq bo'lishi yetarli hisoblanadi: oq, sariq, ko'k, qizil, qora. Bu besh bo'yoqdan tabiatda mavjud barcha ranglarni hosil qilish mumkin (*13-rasm*).

3. Moybo'yoq bilan faqat quruq yoki nam yuzaga ishlanadi, yarim nam yuzaga ishlash mumkin emas. Qurimagan joyga bo'yoq berilsa, u rang sifatini yo'qotadi. Biron joy o'zgartirilishi kerak bo'lsa, bo'yoq pichoq (mastixin) bilan qirib olinadi. Bo'yoq qurib qolgan bo'lsa, ustidan kartoshka yoki sarimsoqpiyoz surilib, so'ngra boshqa bo'yoq beriladi.

4. Bo'yoqni pala-partish berish mumkin emas. Bu shakl, makon, hajm buzilishiga olib keladi. quyuuq berilgan bo'yoq asarni tomoshabinga yaqinlashtiradi, yupqa va tekis berilgani uzoqlashtiradi. Osmon tasvirida yupqa berilgan bo'yoq samarali bo'ladi. Bo'yoq maydoni kattaligi etyud yoki surat kattaligiga mos bo'lishi zarur. Mahobatli rangtasvirda rang dog'larining qamrovi alohida ahamiyatga ega.

¹ Richard Shmidt. ALLA PRIMA. II bob.

² Rassomlarning o'qish — o'rganishi uchun ichida mo'yqalam, bo'yoq, qalam, palitra va qog'ozlari turadigan quti.

5. Rassom palitrasi . Palitrada bo'yoqlarning har biri o'ziga mos joyda bo'lishi lozim, shunda rassom e'tiborini ko'proq naturaga va matoga qaratishi mumkin. Iliq rangli bo'yoqlar odatda yuqori qismga joylashtiriladi, sovuq ranglilari pastroqqa, belila esa har qanday o'rinda turaverishi mumkin.

6. Palitra rangi. Odatda rassomlar jigarrang yoki oq rangli palitradan foydalanadi. Ammo palitra rangi natura joylashayotgan fonga mos kelmaydi. Ba'zan palitrada rang to'g'ri tanlangandek bo'ladi, lekin matoga tushgach o'zgarib qoladi. Qanday palitradan foydalanilmasin, oq matoga berilgan dastlabki bo'yoq quyuq va kirga o'xshaydi. Tajribasiz rassom darhol uni yorqinroq qilishga intiladi. Natijada butun tasvir oqarib ketadi. Shuning uchun ham palitra rangi imkon qadar mato rangiga mosroq bo'lgani maqsadga muvofiq.

7. Matoga gruntovka berishdan avval ramka tortiladi. Mato erkin qo'yilsa, u osilib qoladi, bu bo'yoq qatlami yorilib ketishiga olib keladi. Mato ramkaga nisbatan 3–4 sm. kengroq olinadi, uning iplari yo'nalishi ramka chetlariga parallel bo'lishi zarur. Mato ramkaga har tomondan barobar tortiladi.

8. Matoni gruntlash. Grunt ikki elementdan iborat bo'ladi: yupqa yelim qatlami va bir necha bo'yoq qatlami. Yelim qismi bo'yoqni matoga singib ketishdan asraydi. Yelim bir yoki ikki qatlam qilib beriladi. Grunt bo'yoq mato yuzini tekislaydi, tegishli rangni hosil qiladi. U 2–3 qatlam qilib beriladi.

Savollar:

1. *Guash bo'yog'ining tarkibi qanday?*
2. *Guash bo'yog'ining boshqa bo'yoqlardan farqi nimada?*
3. *Guash bo'yog'i quyosh nuriga chidamliligi qanday belgilanadi?*
4. *Moybo'yoqning boshqa bo'yoqlardan farqi nimada?*
5. *Moybo'yoq bilan ishlashda nimaga e'tibor berish kerak?*
6. *Moybo'yoq bilan ishlash bosqichlari qanday?*
7. *Etyud ishlashda nimalarga e'tibor beriladi?*
8. *Moybo'yoqda oq bo'yoq nima uchun kerak?*

¹ Rassomning rang bo'yoq aralashtirish va bo'yoqlarini joylash uchun ishlatiladigan yog'och taxtacha.

5.4. Ranglardan kompozitsiya tuzish

Muzeylarda saqlanayotgan rangtasvir asarlarini tomosha qilar ekanmiz chiroyli ranglar bilan ishlangan asarlar albatta diqqatimizni tortadi.

Masalan: A.I. Kuinjining «Dnepr ustida oydin kecha», Van Gogning asarlari, R. Axmedovning kuz manzaralari albatta ko'pchilikning havasini uyg'otadi. Bu asarlarda ranglar yechimi mohirona, ustalik bilan hal qilinginini ko'ramiz. Shakllarni to'g'ri chizishdan tashqari badiiy obraz uchun ularga go'zal ranglar berish katta ahamiyatga ega.

Kartinada ranglar yordamida badiiy obraz yaratiladi. Shunday ekan rangtasvirda rang muhim rol o'ynaydi. Asar yaratishda bo'yoq bilan ishlashdan tashqari ranglarni maqsadli o'z o'rniga qo'yabilish ham katta ahamiyatga egadir. Ana shu maqsadda bo'lajak rassom rang ko'rish qobiliyatini rivojlantirishi uchun mashq qilishi zarur. Buning uchun suvbo'yoq yordamida mavzuli kompozitsiya (manzara, natyurmort, dekorativ abstraksiya) ishlash maqsadga muvofiqdir.

Kompozitsiya bahor, yoz, kuz, qish, oydin kecha, tun, oqshom payti kabilar bo'lishi mumkin. Manzarada qancha ko'p ranglar ishtirok etsa shuncha yaxshi. Umumiy ranglar tusi va turi bir necha yuzdan (300–500) tashkil topishi kerak. Ana shu rang turlaridan qog'oz parchalar tayyorlab mayda bo'lakchalarga qirib chiqamiz va oldindin tayyorlangan kompozitsiya ustiga shakl bo'yicha mo'zayka kabi qo'yib elimlanadi. Rang parchalari qancha mayda bo'lsa, kolorit hosil qilish qiziqarli bo'ladi. Bunda issiq va sovuq ranglar yonma-yon turishi yaxshi natija beradi. Rang tuslari qancha ko'p bo'lsa kompozitsiya rang koloriti shuncha jozibali chiqadi (*29, 30-rasmlar*).

«Kolorit yorug'lik va ko'rib idrok qilishning ma'lum obyektiv qonunlari bo'yicha yuzaga keladi. Bu qonunlar bo'yicha bizning ongimizda predmetlarning kolorit obrazlari paydo bo'ladi. Kolorit va uning qonuniyatlari haqidagi ta'lim rangtasvir texnikasining nazariy asosini, uning hamma usullari tashkil qiladi. Rassom har qanday tasviriy materialga murojaat qilmasin, ularga xos bo'lgan

rangtasvir texnikasi xususiyatlariga ega kolorit qonuniyatlari o'zgar-may qolaveradi»¹.

Kolorit kompozitsiyasini yaratishda kompozitsiya markazi (ak-sent), tekislikda muvozanat, yaxlitlik va birlik, havoyi perspektiva kabi tushunchalarni ham hisobga olish zarur. Umuman olganda kompozitsiyada g'oya va maqsad aniq amalga oshirilishi koloritga bog'liqligini sezish muhim hisoblanadi. Bunday mashqlarni har doim amalga oshirib turish, rang ko'rish qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Shuningdek, tabiat manzaralaridan qisqa muddatli etyudlar ishlash ham yaxshi natija beradi.

5.5. Rang va faktura

Rang surilgan buyum, shakl va tekislik yuzasi har xil, g'adir-budir yoki silliq bo'lishi mumkin. Shu yuzaga qarab bir xil rang bilan bo'yalgan silliq yuzadagi rang tekis jozibali va jarangdor ko'rinishda bo'ladi.

«Rang va rangtasvir xarakteristikasiga, rang tusi bilan birga bo'yoqlarning faktura, shaffoflik, to'yinganlik, yorug'lik kabi xususiyatlar kiradi. Hamma bu xususiyatlar kartina bo'yoq qatla-mining murakkab tuzilishini yuzaga keltiradi va tomoshabinda rang hisiyotlarining xilma-xilligini hosil qiladi»².

Faktura deganda buyum, shakl va tekislik yuzasining sifatini tushunamiz. Masalan: chinni yuzasi, emal bo'yoq bilan bo'yalgan chelak, lagan, moybo'yoq, guash, akvarel bo'yoq bilan bo'yalgan yuzalar farqi nazarda tutiladi.

G'adir-budir tekislik yuzasidagi rang esa yorug'lik tushishiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Ba'zan jarangdor, ba'zan esa xiraroq ko'rinishda bo'ladi. Chunki notekis yuza qiya yoritilganda nur oz bo'lsa-da soya hosil qiladi. Masalan: olma rangini, pishgan qovun rangi yuzasi bilan taqqoslab ko'raylik, fakturaga qarab ranglar ham har xil ko'rinishda bo'ladi.

Guash bo'yoq bilan bo'yalgan yuza tekisligidan moybo'yoq bilan bo'yalgan yuza tekisligi albatta farq qiladi.

¹ *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. I bob.

² *Richard Shmidt*. ALLA PRIMA. II bob.

Guash bo'yoq bilan bo'yalgan yuza tekislik yaltiramaydi va yumshoq ko'rinishda bo'ladi. Nur qaytarish xususiyati pastdir.

Moybo'yoq bilan bo'yalgan tekislik yaltirashi mumkin. Ayniqsa, lak surilgan tekislik (kartina). Chinni buyumlar rangi ham tiniq va silliq bo'lib yaltiroq yuzaga ega. Akvarel bo'yoq bilan bo'yalgan tekislik albatta qog'oz sirtinining sifatiga qarab har xil va tekis bo'yalgan bo'lmasligi mumkin.

Shuningdek, faktura bo'yash usullariga ham bog'liq. Tekis yoki notekis qilib ham bo'yalishi mumkin. Bunga chinni idishlar, mashina, xo'jalik buyumlari tekis qilib bo'yalgan yuzaga misol bo'lsa, badiiy asar turlaridan rangtasvir ko'p rangli va fakturasi har xilligi bilan farq qiladi.

Rangtasvirda faktura turi ya'ni bo'yalish turi, usuli muhim ahamiyatga ega.

Savollar:

1. Rang kompozitsiyasi nima uchun kerak?
2. Rang kompozitsiyasi qanday bajariladi?
3. Kolorit va uning qonuniyatlari nima?
4. Kolorit kompozitsiyasida nimalarga e'tibor beriladi?
5. Rang kompozitsiyasida nimaga e'tibor berish kerak?
6. Rang bo'yoqlarining fakturasi nima?
7. Rang va rangtasvir xarakteristikasi nima?
8. Rang bo'yoqlarining bir-biridan farqi?

5.6. Rangshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar

Rangshunoslik qonunlari va rang tuzilishlarini tabiatda kuza-tishdan tashqari bir necha amaliy mashg'ulotlar bajarib o'z mahoratlarimizni oshirib borishimiz kerak. Mashq qilingan ko'z 10.000 ga yaqin rang va tus bo'lakchalarini ajratish qobiliyatga ega. Rassom o'z asarida shunga yaqin ranglardan foydalanishi maqsadga muvofiq.

1. Rang doirasi 6–12 ta rangdan tuzilgan. Bironta rang orqali to'g'ri chiziqni doira markazidan o'tkazsak, unga kontrast bo'lgan rangni ko'rishimiz mumkin. Bunda qo'shimcha juft rang yuzaga kelganini ko'ramiz.

2. Quyosh yoki elektr chirog'i nurlari ko'zimizga oq bo'lib ko'rinadi, chunki ular xromatik ranglar nuridan iborat. Bu nurlarning optik aralashmasi oq rangni hosil qiladi.
3. Rangli uchta oyna shishani ustma-ust qo'ysak, qora rangni hosil qiladi, (ranglarning mexanik aralashmasi).
4. Axromatik kontrast ranglar tusi bilan farq qiladi.
5. Xromatik kontrast ranglar bir-biriga qarama-qarshi rang hisoblanadi.
6. Spektr ranglar kontrast fonida ko'rinadi.
7. Rangni ravshanligi, tusi va kuchi uning foniga bog'liq.
8. Rangli diskning «elektr aralashtirgich» yordamida sinab ko'rish. Qizil, ko'k va sariq rang aralashmasi kir jigarrangni hosil qiladi. Doirada qo'shma qizil yashil rang bilan kulrangga o'xshab ko'rinishi mumkin. Ammo kulrang jilosini (turini) nisbatlarini o'zgartirish bilan hosil qilish mumkin. Karton, trafaret yordamida ravshan, har xil qatorli va teng qatorli rang bo'lakchalari hosil qilish mumkin. Agar moviy – ko'k rangli diskka oq va qora xalqa joylashtirib aralashtirish natijasida ko'k rang hosil qilsak, qo'shma rang uning foniga yaqin ko'rinishda bo'ladi.
9. Oq va qora rang aralashmasidan hosil bo'lgan kulrang har xil tusda bo'lishini ko'ramiz.
10. Spektr ranglar doirasidagi ranglardan birini oq qora va kulrang bilan alohida aralashdirsak, har uchala holatda ranglar jilosi va tusining xilma xilligini ko'ramiz .
11. Qo'shma juft ranglar va ularning tus ko'rinishi bir-biriga yaqinlashtirilsa murakkab holatni ko'ramiz.
12. Har xil ranglardan hosil qilingan mavzuli rang kompozitsiyasini hosil qilish (kontrast, nyuans ko'rinishlarda).

5.7. Rangshunoslikning amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1-vazifa.

Axromatik rang: qora va oq rang yoyilmasi bo'lakchasini ishlash.

Vazifaning maqsadi: tus tushunchasini mustahkamlash va sezgi hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda qora bilan oq rangning bir necha tusini topish va 6x1,5 sm bo'lakchasini qirqib yonma-yon bir qator tizib joylashtirish.

2-vazifa.

Spektr ranglar aylanasini asosiy sariq, ko'k, qizil ranglar asosida topish.

Vazifaning maqsadi: Spektr ranglarni topish va rang, tus tushunchalarini mustahkamlash va sezgi hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda ranglarni topish va diametri 20,30 sm aylanaga 12 yoki 24 rang bo'lakchasini qirqib yonma-yon bir qator aylana bo'ylab tizib joylashtirishi.

3-vazifa.

Spektr ranglarni qora, kulrang va oq bilan aralashtirib rang tusi yoyilmasi bo'lakchasini ishlash.

Vazifaning maqsadi: ranglarni aralashtirib tus tushunchalarini mustahkamlash va rang tusi o'zgarishlarini kuzatish, ko'zni chiniqtirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda rang aylanasiidagi 12 rangni qora, kulrang, oq rang aralishtirib, bir necha tusini topish ($12 \times 3 = 36$) va 6x1,5 sm dan 12 dona rang bo'lakchasini qirqib yonma-yon bir qator tizib joylashtiriladi

4-vazifa.

Spektr ranglardan kontrast juft ranglar hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: ranglar kontrasti tushunchasini mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda rang aylanasiidagi 12 rangdan 4x4, 6x6 sm dan 2 dona rang bo'lakchasini qirqib ustma-ust yoki yonma-yon joylashtirib kontrast shakl hosil qilinadi.

5-vazifa.

Spektr ranglarini kulrang fonda joylashtirib, tus o'zgarishini ko'rish.

Vazifaning maqsadi: ranglar yorqinligi, tusi o'zgarishi va fon ta'siri tushunchalarini mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda rang aylanasidagi 12 rangdan 4x4, 6x6 sm dan 2 dona rang bo'lakchasini qirqib, kulrang fonga ustma-ust joylashtirib shakl hosil qilinadi.

6-vazifa.

Spektr ranglarini uzoqlashtirish yoki yaqinlashtirish (perspektiv o'zgarish holati)ni topish.

Vazifaning maqsadi: ranglarni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish, tus o'zgarishi tushunchalarini mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda rang aylanasidagi 12 rangdan 4x4, 6x6 sm dan bir necha dona rang bo'lakchasini qirqib, ustma-ust yoki yonma-yon joylashtirib perspektiv shakl hosil qilinadi.

7-vazifa.

Spektr ranglar yordamida murakkab ranglar hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: Spektr ranglar yordamida murakkab tus tushunchasini mustahkamlash va rang tusi o'zgarishlarini kuzatish, ko'zni chiniqtirish.

Vazifani bajarish metodikasi: Spektr ranglarga boshqa ranglarni, qora, kulrang va oq bilan aralashtirib murakkab rang tusi bo'lakchasini ishlash. 10x15 sm to'rtburchak tekisliklarda rang aylanasidagi 12 rangga qo'shni rang yoki qora, kulrang, oq aralishtirib bir necha murakkab rang tusi yoyilmasini topish, 6x1,5 sm dan 12 yoki 24 dona murakkab rang bo'lakchasini qirqib yonma-yon bir qator tizib joylashtiriladi.

8-vazifa.

Spektr ranglar yordamida murakkab ranglardan har xil shakl yordamida rang markazi (aksent) hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: Spektr ranglar yordamida murakkab tus tushunchasini mustahkamlash va rang yordamida aksent hosil qilishni o'rganish, ko'zni chiniqtirish.

Vazifani bajarish metodikasi: Spektr ranglarga boshqa ranglarni, qora, kulrang va oq bilan aralashtirib murakkab rang tusi bo'lakchasini ishlash. 10x10, 15x15 sm to'rtburchak tekisliklarda murakkab ranglardan tusli tekislik kompozitsiyasini hosil qilish va markaz (aksent) topib joylashtirish.

9-vazifa.

Spektr va murakkab ranglar yordamida har xil tusli rang kompozitsiyasini ishlash.

Vazifaning maqsadi: Spektr va murakkab ranglar yordamida har xil tusli rang kompozitsiyasida issiq va sovuq ranglar yordamida dekorativ kompozitsiya ishlashni, kolorit tushunchasini mustahkamlash va rang yordamida holat, aksent, uzoqlashtirish, yaqinlashtirish, kolorit tushunchasini hosil qilishni o'rganish, ko'zni chiniqtirish.

Vazifani bajarish metodikasi: Spektr va murakkab boshqa ranglarga qora, kulrang va oq bilan aralashtirib issiq, sovuq ranglar tusi bo'lakchalaridan kompozitsiya hosil qilishda 10x10, 15x15 sm to'rtburchak tekisliklarda murakkab ranglar bo'lakchalaridan tusli tekislik (40x50, 50x60 sm o'lchamdagi planshet)da rang kompozitsiyasi hosil qilib bo'lakchalar yelimlash.

6.1. Badiiy obrazlarning ifoda vositalari va qurollari

Badiiy obraz ifodasining asosiy tasviriy vositalaridan biri shakldir. Shakl harakatdagi nuqtani paydo qiluvchi chiziqdan hosil bo'ladi. Chiziqning siljishi tekislikni hosil qiladi, tekisliklarning tutashuvi jismni hosil qiladi.


Nuqta, chiziq, dog' – bularning hammasi tekislikda kompozitsiya hosil qilish elementlaridir. Chiziq va dog' joylashishiga bog'liq holda tomoshabinga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon assotsiativ (tasavvur, his-tuyg'u, fikr) va intuitiv (sezgi) darajada, shuningdek, xotira darajasida ro'y beradi. Insonning shaklni fizik idrok qilishi ham mavjud hol (*31-rasmlar*).

Chiziq – tasvirning oddiy, shu bilan bir vaqtda asosiy elementi. U bu ahamiyatini ishning deyarli barcha bosqichlarida saqlab qoladi. Yordamchi funksiyalarni bajarib, badiiy mohiyatga ham ega bo'lishi mumkin, ya'ni:


1) biror predmet shakli bilan bog'lanmay, tasvirning mustaqil badiiy elementi sifatida, masalan, predmet tasviri vazifasi bo'limganda, chizikli ornamentlarda; 2) predmet tasviri elementi va predmet badiiy shakli qurilishi asosi sifatida.

Chizikli tasvirning san'atdagi ifodaviyligi va ashyoviyligi predmet shaklining real sifatlari, uning kattaligi, nisbatlari bilan bog'liq. Bunda predmetning chizikli ifodasi vositalari emas, uning o'zi asosiydir.

Masalan: chiziqning vertikal tizilishi – mustahkamlik, diagonal tizilishi – dinamika, gorizontal tizilishi – xotirjamlik, kenglik hissini paydo qiladi; egri chiziqlar ko'rinish shakliga qarab tutashganlik yoki o'zgaruvchanlik tasavvurini beradi. Ammo asosiy chizikli elementlar vertikal, gorizontal, qiya va egilgan chiziqlar abstraksiya (mavhum) sifatida qabul qilinsa-da, ular qandaydir predmetlar konturi sifatida ifodalanadi yoki bizning baland




31 a-rasm. Chiziqlar



31 b-rasm. Chiziqlar



31 v-rasm. Chiziqli rasm



31-rasm. Dog'lar

daraxtlar, uylar yoki gorizont chizig'i haqidagi real tasavvurlarimiz bilan bog'liq. Chiziqning bu xususiyatlari bilan to'g'ri burchak (kub), qiya (piramida, konus) va tuzilishi bo'yicha statik, dinamik, yoki o'zida shu va boshqa sifatlarni mujassamlashtirgan murakkabroq shakllarni hosil qiluvchi shakllar ham bog'langan.

Grafikaning chiziqli tili, ifodaviyligi chiziqning ko'rinishi (to'g'ri, egri, ingichka, tutash, uzuq-yuluq) xususiyati, chiziqning koloriti va rangiga (qora, kulrang, och rang, rangli) ham bog'liq. Chiziqning bunday xususiyatlari bilan birga, ularning turli munosabatlariga asoslanuvchi qonuniyatlar ham mavjud. Bunday qonuniyatning ko'rinishlaridan biri chiziqli kontrast va nyuansdir.

Chiziqli kontrast va nyuanslarning ahamiyati kompozitsiyada chiziq ko'rinishi, kolorit, rang va ritm orqali hosil qilingan.

Chiziqli kontrast va nyuanslar sanoat grafikasida tekislik tasvirlarida qanday bo'lsa, fazoviy tasvirlarda ham xuddi shunday favqulodda muhim rol o'ynaydi.

Tasviriy tekislikning obrazli imkoniyatlaridan foydalanib, rassom unga turlicha ifoda berishi mumkin: bir holda — tekislik boshqa holda — fazo (fazoviy tasvirda). Shunday qilib, tasviriy tekislik o'z ifodaviy imkoniyatlariga ega bo'lgan badiiy shakl sifatida qabul qilinishi kerak.

Hech qanday tasvir elementlariga ega bo'lmagan tekis yuzaga chizilgan chiziq dastlabki tashkil qiluvchi element hisoblanadi. Chiziqning simmetrik yoki assimetrik joylashishi tasvirning statik yoki dinamik negizini belgilaydi (*32-rasm*).


Ikki kordinatlar — vertikal va gorizont tekis yuzga to'g'ri burchakli shakl xarakteristikasini belgilaydi va sanoat grafikasida tekislik tasvirining boshlang'ich elementi hisoblanadi.

Aniq bir maromli ritmik tartibda mohiyati bo'yicha bir xil gorizont va vertikal chiziq bilan bo'lib chiqish orqali, tekis yuzga bir xilligining idrok qilinishiga erishiladi.


Ko'rinishi va mohiyati bo'yicha turli chiziq bilan notekis bo'linish tekis yuzaning buzilishi, o'zgarishi kabi soxta tushunchani keltirib chiqaradi. Buni tekis yuzaning bo'linish vositalari yoki chiziqning kontrast va nyuans vositalari bu yuzaning



32 a-rasm. Dinamika



32 b-rasm. Dinamika




32 v-rasm. Dinamika



32 g-rasm. Statistika



32 d-rasm. Statistika



32 e-rasm. Dinamika



32 j-rasm. Dinamika

gorizontal, vertikal, tekislik va fazoviy — aniq tuzilishini ko'rsatib berishi kerak bo'lganda inobatga olish zarur.

Chiziqlar kontrasti, bo'linish usullari badiiy shakl sifatida tekis yuzaning boshqa sifatlarini ham ochib beradi (katta, kichik, yengil, og'ir, yorqin, to'q va sh.k.).

Tekis yuzani sifat (fazilat, xislat) chizig'i bilan namoyon qilish-rasmda ko'rsatib o'tilgan (32-rasm).

Turli qalinlikdagi chiziqlar bilan chizilgan bir qancha bir xil geometrik shakllar (kvadratlar) chiziqlar va qog'ozning turli o'zaro ta'siri sababli, ular tomoshabindan turli masofada yotgandek bo'lib ko'rinishini sezish mumkin. Qalin kontur shaklni birinchi planga ko'taradi.

Chiziqlar va qog'ozning kontrast o'zaro aloqasida grafikaning boshqa xususiyatlari ham chiziqli tasvirda yaratiladi. Chiziq faqat shakl chegarasini aniqlab qolmay, uni to'ldiradi ham.


Ko'rinishi bo'yicha turli chiziqlar bir-biri bilan birgalikda va shtrixlar, kolorit, rang va faktura tuyg'usini beradi.

Ko'rib idrok qilishning bu qonuniyati chiziqli chizmada ashyo xususiyatlarini, uning tashqi sifatlari — yorqinligi, rangi, fakturasini ko'rsatib berish uchun foydalaniladi.

Shtrixovka. Bu usul shtrixlar orqali tus berishdir. Bunda o'tkir qalamni uch barmoqda ushlab, yoki bir-biri bilan bog'lab ingichka

shtrix chiziqlarda amalga oshiriladi. Shtrixlar yoʻnalishi vertikal, gorizontal va qiya burchak ostida shakllar yuzasini, uning stukturasi, shaklini, oʻlchamini va boshqalarni tasvirlash mumkin. Shtrixlar yoʻnalishi tasvir elementlarini koʻrsatishga xizmat qilib, u narsalar shaklini va oʻlchamini nigohimizda oʻzgartirishi mumkin. Burchak ostidagi shtrixlar taʼsiri nigohimizda kuchli boʻlmasligi mumkin. Shunga qaramasdan oʻng qoʻl bilan yengil ishlangan shtrixlar koʻp hollarda ishlatiladi. Uni qoʻl harakati bilan oʻngdan yuqoriga, chapdan pastga shtrix chiziqlar paralelligini saqlagan holda bir xil tusda va bir xil intervalda chiziladi.

Bunday shtrixlash parallel deyiladi. Koʻndalang shtrixlar bir necha qatlam parallel shtrixlar yordamida amalga oshiriladi. Shtrixlar yoʻnalishining har bir qatlami yengil oʻzgartiriladi, natijada rombo shaklidagi setkalar hosil qilinib shtrixlangan harakatli qomat hosil boʻladi (*33-rasm*). Chap tomonga qiyalashtirilgan shtrixlash kam hollarda ishlatiladi, chunki oʻng qoʻl bilan shtrixlash qiyinchilik toʻgʻdiradi.



33 a-rasm. Shtrix



33 b-rasm. Shtrixli tasvir



32 d-rasm. Shtrixlangan rasm

Bir xil tusli shtrix qatlamlarini to‘qroq shtrixlar bilan hosil qilish mumkin.


Tushyovka. Bu usul shtrixlarning bir biriga qo‘shilishi natijasida hosil qilinadi. Odatda grafit qalam uchining yon tomonini yotqizib soya beriladi.

1. **Kvadrat.** Tugallangan, mustahkam shakl, tasdiqlovchi obrazlarni ifoda etishga tayyor. Ma‘lum sharoitlarda — harakat, ayniqsa, «parvoz»dan yiroq og‘ir, turg‘un shakl.

2. **Uchburchak.** Tekislik va fazoda rivojlanuvchi, harakatning potensial imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan faol shakl. U agressiv obrazlarni ifoda etishi yoki yuzaga keltirishi mumkin. U uchi yuqoriga qaratilgan holda mustahkam, pastga qaratilganda mustahkam emas. Bu shaklda qarama-qarshiliklar kurashi yaqqol aks etgan, bu ham o‘z o‘rnida aniq obrazlarni yaratish uchun zarur bo‘ladi.

3. Aylana. Bu shaklda boshqalardan ko'ra ko'proq tabiat, yer, olam g'oyasi tasvirlangan. Shuning uchun «ezgulik», «hayot», «baxt» kabi tushunchalar ustun (34-rasm).

Dog' siluetini chegaralovchi tutash chiziq, shu dog'ning shaklini idrok qilishga bog'liq. Yumaloq egrilikdagi chiziqlar, aylana, eilips va boshqa shunga o'xshash shakllar, serqirra siniq



34 a-rasm. Nuqta. To'rtburchak. Uchburchak. Doira



34 b-rasm. To'rtburchak. Uchburchak. Doira

chiziqlar uchburchakni eslatadi. Dog‘ga nisbatan chiziqda ko‘proq harakat yotadi, chunki bu erda uning optik talqini ifoda etiladi. Harakat shiddatli yo‘naltirilgan yoki sekin, kamroq maqsadga yo‘naltirilgan, mantiqsiz obrazlarni tashkil qiluvchi bo‘lishi mumkin. Bir chiziq sezgilarning saviyasi, bir qancha takrorlangan chiziqlar ta’sirni kuchaytiradi. Xarakteri bo‘yicha turli chiziqlar idrokni boyitadi, obrazni murakkablashtiradi, lekin bema’nilik uni tartibsizlikka olib borishi mumkin.

6.2. Tekislik va fazo

Kartina — bu har xil rang, bo‘yoq dog‘li chegaralangan tekislikdagi tasvirdir. Rang dog‘lari tekislik yuzasidagi shakllar, uning plastikasi, bo‘shliq, vaqt va harakatdagi kartina tasviri kompozitsiya qurilmasidir. Tasvir (kartina) — bu haqiqiy tekislik va u ham boshqa haqiqatning obrazi. Kartina tekisligidagi haqiqat tasviri rassom tomonidan amalga oshirilgan obraz hisoblanadi. Kartina kompozitsiyasi — bu tekislik yuzasidagi rang dog‘lari va chiziqlar



35 b-rasm. Rajael. Afina maktabi

yordamida shakllar guruhi, harakat va sujet tasviri qurilmasidir. Kompozitsiya talablaridan biri kartinada yoki tekislikda makon qurilmasi muhim hisoblanadi. Bu ruhiy va jismoniy kuchning tekislikdagi kurashuvi, uchrashuvi va tekislikda shakllar, qiyofalardir. Unda hayotni yoki obrazli tasvirni ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib kartina tekisligida rassom tomonidan yaratilgan voqea obraz qurilmasini anglashimiz, his qilishimiz, uning ichiga kirib hamdard bo'lishimiz mumkin.

Bu holat haqiqiy tekislikdagi voqeaviy haqiqat qurilmasidir. Makon tasviri shakl tasviriga bog'liq. Arxitektura binolarining tasviri yangi fazo tasviri (perspektiv) tushunchasini, tabiat manzalarida plener rangtasvirini va havoyi perspektivasini o'rganishni talab qiladi. Tasvirda makon, fazoni hosil qilishda shakl qurilmasi, uning joylashuv xarakteriga bog'liq.

Rafaelning «Afina maktabi»¹ asarida tekislikdagi makon tasvirini uch ulchamda ko'ramiz. Biz kartinada haqiqiy makonni, fazoni ko'ramiz. Kuchli tasvir mahoratidan va makondagi tasvirdan bahramand bo'lamiz (*35-rasm*).

Savollar:

1. Nuqta, chiziq, dog' nima?
2. Chiziqning ko'rinishi xususiyati qanday?
3. Chiziqning ko'rinishlari qanday?
4. Kartina tekisligi qanday?
5. Fazo deganda nimani tushunasiz?
6. Shtrixovka nimaga xizmat qiladi?
7. Tushyovka qanday amalga oshiriladi?
8. Kartina nima?
9. Tekislik nima?
10. Tasvir nima?

6.3. Fazoviy qurilma

Fazoviy qurilma dastgohli kartina tekisligi bo'shlig'ida voqea harakatlari va shakllarning obrazli tasviri uchun xizmat qiladi. Unda harakatlar rivojlanib, kartina chuqurligini hosil qiladi. Agar

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World

voqea tasviri faqat frontal tekislikda bo'lsa, uning ta'sirchanlik kuchi biroz zaiflashadi.

Kartina chuqurligida fazoviy qurilma bir necha bo'laklarga; 1) qatlam bo'laklariga va 2) plan bo'laklariga bo'linadi. Fazo (makon) qatlamlarini planlarga bo'lish, shakllar va odam qomatlarini pastda va yuqorida joylashuviga qarab belgilanadi. Bu holatda joylashtirish konstruktiv a'loqa, g'oyaviy bog'liqlikni saqlashi zarur.

Yevropa taviriy san'atida Uyg'onish davridan boshlab kartina bo'shlig'ini planlarga bo'lish hukmronlik qilib kelgan. Plan – bu gorizontal tekislikda, yerda qurilgan tasvir bo'laklari. U frontal qurilish bilan yakunlanadi. Agar bu frontal guruhi harakat qurilmasini tashkil qiluvchi bo'lsa, plandagi qurilmalar o'ziga tegishli ranglarda va tusalarda tasvirlanadi. Chuqurlik qadam (plan)lar orasidagi bog'lovchi hisoblanib, shakllar orqali amalga oshiriladi (*35-rasm*).

Djotto asarlaridagi bir planli kompozitsiyasida voqealar tomoshabin oldida birinchi planda joylashtirilgan. Qomatlar ritmi, simmetriyasi yengil o'qiladi. Bir planli harakat qurilmasi aniqlik va siluetlar ta'sirchanligini talab qiladi. A. Ivanovning «Xristosning xalqqa ko'rinishi» kartinasida birinchi plan alohida ajratilmagan. Ikkinchi planda bosh harakat personajlari joylashtirilib, Ioannaning qo'l harakti Xristosga qaratilgan. Bu kartina chuqurligini tashkil qiluvchi diogonal qurilma. Uchunchi planda g'ira-shira ko'rinayotgan shahar va tog' ko'rsatilgan. Xristos qomati bosh planga ta'liuqli bo'lib, uzoqdagi planlar bilan bog'lanib harakat aloqasini yakunlaydi.

Planlarning manzara kompozitsiyasida fazoviy tuzilishi o'zgacha. Shaksiz manzaralarda (masalan: dengiz, o'tloqlar, o'rmonlar) rang orqali kartina chuqurligi hosil qilinganligini ko'ramiz. A. Kuindjining «Qayinzor», Klod Manening «Qizg'aldoqli dala»¹ kartinalari bunga misol.

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World

6.4. Chiziq (Liniya)

Qog‘oz yuziga tortilgan chiziq yoki chiziqcha chizmatasvirning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U vazifasiga qarab har xil xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Chiziq yassi bo‘lib, hech nimani ifodalamasligi mumkin. Bunday holatda chiziq yordamchi vazifasida bo‘lishi, ya‘ni u natura chegaralarini xomaki chizmatasvirda belgilashi mumkin. Chiziqalar qalam yordamida goh noziklashib, goh yo‘g‘onlashib, goh umuman uzilib ko‘rinmas turlarda hosil qilinadi. Ba‘zan qalarni kuchining boricha to‘q qoramtir tusi hosil bo‘ladi.

Ayniqsa, Mikelanjelo chizmatasvirida erkak kishining yonog‘och qomati tasviridagi jozibali chiziqalar nisbati bunga misoldir. Har xil xarakterdagi chiziqalar rassomga plastik va makon vazifalarini yechishga katta yordam bergan. Qalamni kuchli bosish bilan qomatning yuqori qismi uzoqlashuvini ko‘rsata olgan. Chizmatasvirning har bir chizig‘i anatomiya va plastikka asoslanib tasvirlangan.

V. Serov «Balerina T.P. Karsavina» portretida chiziqalar jozibali, go‘zal chizmatasvirni yaratgan (36-rasm).

Havaskor rassom chizmatasvirda chiziqalar yordamida murakkab shakllar yaratish mumkinligini sezmay, odatda yassi, shartli va bir xil chiziqalar bilan shakl, toshlar va daraxtlar chegaralarini shaklni, yorug‘likni, muhitni hosil qila olmaydi. Ular muhit, makonni tavsirlashda e‘tiborsizlik bilan ishlab, faqat shakllar tashqi chegarasiga e‘tibor beradilar, xolos. Uning mexanik nusxasini ko‘chirib, kontur chiziqalar orasini yorug‘ va soya dog‘lar bilan to‘ldiradilar.

Yassi chiziqalar san‘atda o‘z vazifasiga ega. U rangtasvir — bezak ishlarida; devoriy rospisda, mozaykada, vitrajda,



35 b-rasm. Chiziqi tasvir
V. Serovning «Balerina
T.P. Karsavina»

dastgohli va kitob grafikasida, plakatda va jami yassi xarakterga ega bo'lgan asarlarda ishlatiladi.

Yassi va fazoviy chiziqlar orasidagi farqni avvaldan anglab olib, ularni keyinchalik chizmatasvirda har xil elementlarini aralashtirib yubormaslik kerak.

Savollar:

1. *Fazoviy qurilma nimaga xizmat qiladi?*
2. *Kartinada fazoviy qurilma nechaga bo'linadi?*
3. *Plan nima?*
4. *«Xristosning xalqqa ko'rinishi» kartinasi necha plandan iborat?*
5. *Shaksiz manzara kompozitsiyasida planlar qanday amalga oshiriladi?*
6. *Chiziq nima?*
7. *Chiziqlardan qanday foydalanish mumkin?*
8. *Chiziq turlari qanday?*

6.5. Yorug'lik, soya, rang

Yoritish — badiiy obrazning yana bir tasvir vositasi. Turli yoritishda hajmiy shakl ham turlicha ishlaydi. To'g'ri, yorqin yoritish hajmni aniq ko'rsatadi, yuzaning hamma notekisliklarini qat'iy ochib beradi, tekis fakturalarni nurlanishga majbur qiladi. Boshqa obrazni yaratish uchun shaklning tabiiyligini namoyon qiluvchi, unga chuqurlik beruvchi, g'adir-budirligini yumshatadigan tarqoq yoritish talab etiladi.

Demak, yoritishning turli darajasini qo'llab, yorug'lik manbai sonini, uning yo'nalishini o'zgartirib, yaratilgan badiiy obraz xarakteristikasini chuqurlashtirish, uni boyitish mumkin.

Ko'pgina san'at asarlari yil fasli yoki kun vaqti, aniqrog'i, yoritish va boshqa atrofdagi omillarga, rangga bog'liq holda turlicha idrok qilinadi. Aynan shuning uchun hajmni muhitdan ajratish, uni o'rab turgan olam ta'siridan ozod qilish mushkul. Shu sababli rassom turli yoritishdagi variantlarni, tomoshabinga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli omillarni, ranglar yonma-yonligini inobatga olishi zarur.

Ayniqsa, asarda sizni aynan nima hayratga solganini aytish qiyin. Shaklmi? Rangmi? Fakturami? Balki, aynan yoritishdir?

Yoki u ham, bu ham birgalikdami? Idrok etish, biz bilganimizdek, subektiv. Bir kishiga, aytaylik, hammadan ko'p hajmiy shakl ta'sir qiladi, boshqasiga esa rang. Biz ko'pincha faktura haqida unutib qo'yamiz, lekin uni tasviriy vositalardan chiqarib tashlab turingchi, siz darhol sezasisiz, asarlar qanchalik ifodasiz va sayoz bo'lib qoladi.

6.6. Faktura va tekstura

Faktura — bu predmet olamining o'rab turgan voqelikni aniqlashga yordam beruvchi shakl va rang bilan bir qatordagi xususiyatlaridan biri, shuningdek, asar badiiy obrazi ifodasining vositalaridan biri hamdir. Faktura predmet yuzasini tashkil etuvchi xomashyo xususiyatlari va unga ishlov berish usuli bilan aniqlanadigan xarakter hamdir.

Demak, tosh yoki yog'och fakturasi muallif vazifasi va yaratilayotgan badiiy obrazga bog'liq holda jilva beruvchi tekis bo'lishi yoki g'adir-budir, dag'al ishlangan bo'lishi mumkin.

Yuza xarakteri yoki fakturani, biz ko'rib idrok qilamiz-u, yorug'ni predmet bo'ylab qo'limizni yurgizib sezamiz. Birer vaqt faktura yoki biror xomashyo bilan ishlab, biz anchagacha uning yuzasidan olgan sezgini saqlaymiz va bu sezgini oson xotirlaymiz. U yoki bu faktura bilan yuzaga kelgan assotsiatsiyalar (his-tuyg'ular birlashuvi) uzoq muddat bizning xotiramizda qolishi mumkin. Demak, xomashyoviy faktura ruhni hosil qiladi, ruh esa o'z navbatida, xomashyoviy haqidagi xotirani saqlaydi. Masalan: tajovuzkor, qahrli obrazlar yumshoq va mayin fakturalarga nisbatan yorqin va achchiq obrazlar bilan bog'langan. Yumshoq, dag'al yoki ayrim hollarda qayishqoq (egiluvchan) fakturalar esa xotirjamlik va jinjitlik bilan assotsiatsiyalanadi. Mana, nima uchun o'z turar joyini va o'zini bezatishda inson odatda «iliq» fakturalardan foydalangan: yog'och o'zining turli ishlanish darajasi bilan (tarashlangan, sayqallangan, mumlangan, naqshlangan, relyefli va sh.k.), mato fakturasi, to'qishning turli fakturalari (sherst, qayin po'stlog'i, rogojka — yo'g'on ipdan siyrak to'qilgan dag'al gazlama — chipta, zig'ir tolali mato), teri va mo'yna fakturasi,

keramikaning loy fakturasi va sh.k. Yana san'at asarlarida keng qo'llanilgan va hozir ham faol foydalaniladigan turli xomashyolarning qator fakturalarini sanab berish mumkin. Bu suyak, metallar (bolg'alangan, zarb qilingan, quyma), tosh, oyna fakturalari va boshqalardir (37-rasm).

Faktura rang kabi fizik xususiyatga, shuningdek, estetik ifodaviylikka ega. Fakturaning fizik xususiyatlariga silliqlik, dag'allik, tikanaklilik, g'adir-budirlik, momiqlik, yumshoqlik kiradi. Ko'p hollarda bu xomashyolarga ishlov berish texnologiyasiga bog'liq (to'qilgan, o'yma, bosma naqsh tushirilgan, g'ijimlangan, qirrali va boshqalar).

Faktura tomoshabinda turli ta'sir sezgisini uyg'otishi, unga psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin. U yoqimli va noxush, notinch va xotirjam, quvnoq va zerikarli, hashamatli va xunuk, mayin va tikanakli bo'lishi mumkin.

Shakl bilan mutanosiblikda hajm yoki dog' fakturasi tomoshabinga ta'sirni, uning hissiy-emotsional idrokini ancha kuchaytirishi, ma'lum obrazlar, xotiralar, assotsiatsiyalarni paydo qilishi mumkin.

Fakturalarning turli-tumanligi va takrorlanmasligi badiiy obraz yaratish uchun keng imkoniyatlar beradi. Fakturani to'g'ri tanlash, material va unga ishlov berishni to'g'ri tanlash obraz yaratishda yordam beradi.

Faktura rang kabi shaklsiz mavjud bo'la olmaydi. Rangsiz shaklni tasavvur qilish qiyin, fakturani aniq materialdan shakldan tashqarida tasavvur qilish, chindan ham shakl va fakturaning nomuvofiqligi, ularning birligi — rassom hal etishi zarur bo'lgan muhim muammolardan biridir.

Masalan: dizaynerga, aniq bir obrazni hal etishi uchun og'ir, qo'zg'almas shakl kerak. Faktura ham shu vazifaga javob berishi kerak: uziq-yuliy tosh, opalubka — qalin izi qolgan temir-beton, sayqallanmagan metall va boshqalar.

Agar yengil, romantik obrazni ifodalash zarur bo'lsa, material yoki bir qancha materiallar mutanosibligini tanlash va ularga ishlov berish darajasi, berilgan obraz va shaklga muvofiq kelishi kerak: ipak matolar, shishasimon iplar, oynalar aks tasviri va h.k.

Mutanosiblik faktura va rang orasida mavjud bo'lishi kerak.

Faktura badiiy obraz ifodasining shunday vositasiki, uning ta'siri asarni bevosita idrok qilishda aks etadi. Faqat shundagina fakturaning obraz shakllanishidagi va namoyon bo'lishidagi butun ahamiyati seziladi. Shuning uchun biz asl nusxada ko'ra olmaydigan ko'plab san'at asarlari tasavvurimizda yetarlicha taassurot qoldira olmaydi va muallifni to'liqinlantirgan hayajonni to'raligicha bera olmaydi. Rangli fotosuratlar ham, kinohujjatlar ham, golografiya ham tomoshabinning asar bilan bevosita muloqotini almashtira olmaydi. Lekin fakturani rang va shakl kabi yoritish, uni turli xilda jaranglashga majbur qiladi.

Savollar:

1. *Yorug'lik nima?*
2. *Soya nima?*
3. *Yorug'lik va soyada rang ko'rinishi qanday?*
4. *Faktura nima?*
5. *Fakturalarning farqi qanday?*
6. *Mo'yna teksturami yoki teksturami?*
7. *Faktura turlari qanday?*
8. *Faktura nimaga xizmat qiladi?*

KOMPOZISIYANING ASOSIY QONUNLARI

7.1. Kontrastlar

Kontrastlar (*zidliklar*) — hayotimizning deyarli har qadamida uchraydigan hodisa. Bu tushuncha ikki holatning qarama-qarshiligidan ya'ni tun va kunduz, yoz va qish, yaxshi-yomon, katta-kichik, issiq-sovuq, o'tkir-o'tmas, yumshoq-qattiq, achchiq-chuchuk, kalta-uzun, kulgi-qayg'u, oq-qora, qizil va yashil va boshqalar har doim yonma-yon bo'lib, bir butun kontraslikni hosil qiladi.

Ana shu ziddiyatlar asosida tuzilgan naqsh, tasviriy asar, shakllar jozibali, ta'sirchan, esda qolari bo'lishi mumkin. Masalan: katta va kichik shakllar, qizil va yashil ranglardan tashkil topgan naqshli kompozitsiyasini tuzib ko'raylik.

Agar bir xil shaklni turnaqator qilib joylashtirib chiqsak, ancha zerikarli kompozitsiya, aksincha, bir shaklning yoniga boshqa ikkinchi turdagi shaklni qo'yib joylashtirsak, albatta, qiziqarli kompozitsiya hosil qilishimiz mumkin.

Tabandagi naqshlarga nazar solsak, har xil kalta va uzun, egri, katta va kichik shakllardan tuzilganligini ko'rish mumkin. Rang berishda ham och va to'q, issiq va sovuq ranglar yonmayonligi naqshning chiroyli chiqishiga yordam berganini ko'ramiz (*38-rasm*).

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda uning elementlariga e'tibor berish muhimdir. Kompozitsiyaning qayerga mo'ljallanayotgani va uning o'rni, yaqin yoki uzoqdan ko'rinishini esdan chiqarmaslik kerak.

Kontrastlar kompozitsiya ishlashning boshlanishida rassom, haykaltarosh, arxitektorlar keng foydalanadigan (vosita) usuldir.

Ko'p asrlik san'at tarixida kontrast asarning turiga qarab mualliflar tomonidan har xil ko'rinishlarda ishlatilib keliindi. Bu muallifning bilimiga va xarakteriga ham bog'liqdir. Dunyo

me'morchiligida kontrast muhim rol o'ynab kelgan. Buni qadimiy binolar qurilishida to'g'riburchakli bino fasadidagi portal, minora ko'rinishi misoldir.

Rangtasvirda esa yorug' (yorqin) ranglar va quyuq to'q — qoramtir ranglar kontrastida, shuningdek, obrazlar kontrastida ko'rish mumkin.

Kontrastdan foydalanish — bu kompozitsiyada ichki kurashni hosil qilish, jonlantirish va qarama-qarshiliklar garmoniyasini hosil qilishdan iborat (*45-rasm*).


Kontrast har qanday shaklni jonlantiradi. ammo kontrast garmoniya uchun to'la kafolat bermaydi. Maqsadga erishish uchun kompozitsiyaga bog'lash, mutanosiblikni hosil qilmoq, yaqqollik bo'lishi zarur. Kontrast kompozitsiyada me'yori bilan ishlatilsa asarning muvaffaqiyatli chiqishini kafolatlaydi.

Kontrastdan to'g'ri foydalanib yaratilgan asar tomoshabin xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Asarning yaxshi chiqishi uchun kontrast me'yori bilan ishlatilgani ma'qul, aks holda maqsadga erishish natijali bo'lmaydi. Kompozitsiyada kontrast nyuans bilan uzviy bog'liqdir. Shakllarning kontrastida ularning nisbati, ya'ni bir-biriga munosabati va boshqa shakllar bilan bog'lanishi *nyuans* orqali amalga oshiriladi. Nyuans kontrastga nisbatan aksinchadir, ya'ni yumshatish, nisbatlikni me'yorida hal qilishga yordam beruvchi hisoblanadi.

Kartina kompozitsiyasining tuzilishida taqqoslash va kontrastlar muhim rol o'ynaydi. Kartina tuzilishini katta va kichik, turg'un va harakatli, yorqin va bo'g'iq ranglar, chiroyli va xunuk, oq va qora kabi taqqoslash asar kompozitsiyasi ifodaliligini oshiradi.

Rassom ko'p qomatli kompozitsiya ustida ishlab asar yaratar ekan, uning ko'z oldida voqelik holati namoyon bo'ladi. U voqelikning ma'lum bir ko'rinishini aks ettirishga harakat qiladi. Bu rassomning imkoniyati chegaralangan, degani emas. Rassom bir voqelikni tasvirlar ekan boshqa voqelikka turtki beradi, undaydi.


Rangtasvirchi rassom o'z kompozitsiyasi haqida o'ylar ekan, qaysi voqelikni aks ettirish va qaysi tamonini rivojlantirish haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. V. Surikovning «Boyarinya Morozova» kartinasidagi kulminatsiyasi poytaxtni tark etayotgan




45 a-rasm. Kontrast



45 b-rasm. Chiziqli kontrast



45 v-rasm. Dog'li kontrast



45 g-rasm. Dog'li kontrast



45 d-rasm. Nyuans



45 e-rasm. Nyuans

boyar ayoli, tarafdorlarining uni kuzatib qolishi bilan bog'liq sahna orqali tasvirlangan. Uning hayoti bilan bog'liq ravishda dinning tarixiy bo'linishi tasvirlangan. Qator turgan kishilarning yuzida aks etgan holatlar, haqiqatan tarixiy bir voqea ekanligini ko'ramiz (43-rasm).

Dramatik harakatning, voqelikning asosi — bu qarama-qarshilik.

Tasviriy san'at kompozitsiyasi asosida qarama-qarshilik, ya'ni kontrastlar yotishi kerak. Rassom Gening mashhur «Pyotr I Petrgofda Alekseyi so'roq qilmoqda» asarida xarakterlar qarama-qarshiligi ko'rsatilgan. A. Ivanovning asarlarida kambag'al va boy kishilarning xarakterlari kontrast qilib ko'rsatilgan. Ular nima haqida gaplashayotganini bilmasakda, qiyofalaridan keskin tortishuv bahslar bo'layotganini anglash mumkin.

Bu qarama-qarshilik bilan butun tarixiy davrning tunganmas kelishmovchiligini ochib bergan.

Bunday kontrastlar kartinada rang, shakllar orqali aks ettiriladi. Masalan: Rembrandning «Adashgan o'g'il», Delakruaning «Barrikadada ozodlik», Rubensning «Persey va Andromeda»¹ kabi asarlari kontrast asosiga qurilgan.

Rangtasvirning shakl, ritmlarida va kartina bo'yoqlarida kontrastlar katta ahamiyatga ega bo'lib, ular asarning hayotiy chiqishiga yordam beradi.

Kontrast. Kontrast kompozitsiyaning asosiy qonunlaridan biridir. Gorizontal va vertikal chiziqlar katta masshtabdagi qiyofaga mayda qiyofa, yassi tekislikka chuqurlik kontrasti — bular hammasi kontrast holatlar ko'rinishi (39-rasmga qarang).

Rangtasvir — bu san'at insonning ongiga, qalbiga o'z ta'sirini o'tkazishi. Rassomlar asarlar yaratar ekan insonni o'ylashga, ruhlanishga, hayajonlanishga, fikrlashga undaydi.

Kompozitsiya qonunlari tus va ranglar kontrastiga asoslanadi. Tus va ranglar kontrasti tasvirni masofadan idrok etishni ta'minlaydi. Tus va ranglar kontrasti sezilarli darajada bo'lmasa bo'shliqdagi shakllar (uzoq yoki yaqinda) hajmi yoki joylashuvini deyarli

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World

idrok qilib bo'lmaydi. Ana shuning uchun ham kompozitsiya eskizida asosiy kontrastlarni aniqlab olish lozim.

7.2. Stilizatsiya

Shaklning tomoshabinga badiiy ta'sirini his qilib, rassom o'z ijodida odatda stilizatsiya (o'xshatib ishlash) va transformatsiya (bir holdan boshqa holga o'tish) kabi usullardan faol foydalanadi. Ular real mavjud, tanish predmetlar va ularning shakli orqali u yoki bu obrazni berishga imkon yaratadilar (38 a, b, 40-rasmga qarang).

Stilizatsiya — obrazli ifodalilikning vizual tashkii qilish usullaridan biri bo'lib, bunda predmetning xarakterli jihatlari saqlangan holda namoyon bo'ladi va keraksiz detallar olib tashlanadi. Umumiy xarakteri shartli ravishda o'zgargan badiiy obrazli ko'rinishga ega bo'ladi. Badiiy bezak san'atida va dizaynda muhim ahamiyatga kasb etadi. Xususiy mavjud prinsip va kiritilgan xususiyat bo'yicha stilizatsiya qiladilar.

Savollar:

1. *Kontrastlar nima?*
2. *Rangtasvirda kontrastlar qanday?*
3. *Nyuans nima?*
4. *Kontrastlar nima?*
5. *Rangtasvirda kontrastlar qanday?*
6. *Nyuans nima?*
7. *Kontrastdan foydalanishda nima hosil qilinadi?*
8. *Kontrastlar qaysi kartinalarda aks ettirilgan?*
9. *Stilizatsiya nima?*
10. *Stilizatsiya ranglari va shakllari qanday?*

8.1. KOMPOZITSIYANING XUSUSIYATI

Kompozitsiyaning xususiyat va sifatlarida mahsulotning quyidagi ko'rsatkichlarini ajratish mumkin: mahsulot shaklining uyg'unlikdagi yaxlitligi, elementlarning bir-biriga bo'ysunishi, elementlarning kompozitsion muvozanati, ular kombinatsiyasida simmetriya va assimetriya, ularning dinamikligi va statikligi, xarakter birligi.

Mahsulot yoki badiiy asar shaklining garmonik yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion talqini aloqasining mantig'i va uzviyligini ifodalaydi.

Asar yoki shaklning garmonik yaxlitligi va uning boshqa parametrlari tahlili sxemasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

- dastlabki taassurot va muhokamani tuzish;
- shakl tuzilishi nazariyasi asosida kompozitsiya tahlili va xulosalarni ta'riflash;
- muhokama va xulosalarni taqqoslash, yakunlovchi qarorni qabul qilish.

Tabiiyki, mahsulot (badiiy asar, loyiha) estetik darajasi haqidagi yakunlovchi qarordan oldin funksiya, materiallar konstruksiyasi va texnologiya ko'rinishidagi obyektiv shakl hosil qiluvchi omillarni o'rganish kerak.

Shakl va buyum elementlarining bir-biriga bo'ysunishi ham kompozitsiya qonuniyatlariga tayanadi. Buyum xarakteriga bog'liq ravishda uning elementlari bir-biriga bo'ysunishi turli asoslarga ega bo'ladi.

Elementlarning kompozitsion muvozanati va mahsulot (kartina) shakllari uning kompozitsion markazga nisbatan muvozanati bilan belgilanadi.

8.2. Yaxlitlik va o'zaro bog'liqlik

Tabiiyki, kompozitsiyada yaxlitlik katta ahamiyatga ega. Qiyofalar, shakllar va ranglar ma'lum bir maqsadga, obrazga bo'ysundiriladi. Dastgohli rangtasvir kompozitsiyasida bo'linmaslik yaxlitlikni tashkil qiladi. Bu holat tomoshabin kartinani o'qishi va rassom fikrini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Mukanmal yaxlit kompozitsiyadan biron bir shakl yoki odam qiyofasini olib tashlash yoki qo'shish kompozitsiya ma'nosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, kompozitsiya o'lchamini o'rinsiz kattalash-tirish yoki kichraytirish ham yaxlitlikning buzilishiga, uning badiyiligiga zarar yetkazadi. Bunda shakllar o'z ma'nosini yo'qo-tishi, ortiqcha bo'shliqlar paydo bo'lishi yoki bo'shliq kichrayib yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Kompozitsiya yaxlitligida kartinaning o'lchami ham katta rol o'ynaydi.

Kompozitsiya yaxlitligini buzmay turib, biron bir shaklning o'rnini o'zgartirib, yoki boshqasiga almashtirib bo'lmaydi. Shu-ningdek, olib tashlash ham yaxlitlikni buzishi mumkin. Yaxlit kompozitsiya ana shunday talablarga ega. Daraxt tanasi, shoxlari, barglari, tomirlari yaxlit bir ko'rinishi bo'lsa, shoxlarini yoki barglarini olib tashlasak yaxlitlik yo'qoladi. U endi oldingi daraxt emas, u shoxlarsiz, bargsiz daraxtdir. Yaxlitlik tushunchasi ham ana shunga o'xshash farqlarga ega kompozitsiyadir.

8.3. Kompozitsiyada muvozanat

Agar kartina tekisligi tasvirlanayotgan qiyofalar bilan notekis to'ldirilgan, shakllar bir chekkaga joylashtirilgan bo'lsa, kartinaning bir qismi og'irlashtirilib, qolgan joyi o'ta engillashtirilgan bo'lib idrok etiladi. Unda muvozanat sezilmaydi. Bunday tasvir tomo-shabinga xalaqit beradi, noto'g'ri tashkillashtirilgan ko'rinadi va tabiiyligini yo'qotadi.

Biz kartinaga qaraganimizda ko'rish maydonimizdagi narsalar bir tekisda joylashtirilgan bo'lib, optik markaz taxminan tekislik o'rtasida joylashganini ko'ramiz. Shu bois kartinada narsalar kompozitsiya markaziga joylashtiriladi. Kompozitsiya markazi ko'p

holda geometrik markazga to'g'ri kelmasligi mumkin, shu bilan birga markazdan uzoqlashib ham ketmaydi.

Haddan tashqari markazdan chetlashtirilgan shakllar, narsalar yoki bir guruh qiyofalar kompozitsiyaning bir qismida og'irlik tug'dirib boshqa qismida bo'shliq hosil qiladi va muvozanat buziladi.

Kompozitsiya muvozanatini kartina tekisligidagi tasvir elementlarini chap va o'ngga, yuqori va pastiga bir tekis joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Kartina tekisligining o'rtasidan vertikal o'q chizig'ining chap va o'ng tomonlariga tasvir elementlarini to'g'ri joylash muhim ahamiyatga ega. Ammo kartina tekisligini ikki qismga bo'lish, shuningdek, gorizonta va vertikal bo'lakchalarga bo'lishdan qochish kerak.

Kartina muvozanati aniq geometrik simmetriya bo'lishi shart emas. Kompozitsiya markazda bo'lsa, u tabiiylikni yo'qotadi, qiziqarli chiqmaydi. Bosh voqelikni kompozitsiya markazidan bir tomonga surish zarur.

Kompozitsiya muvozanatida tasvir shakllaridan tashqari uning tusi va rangi ham muhim ahamiyatga ega. Kichkina qoramtir shakl katta och rangli shakl bilan teng ko'rinishi mumkin. Bir tomondagi yorqin rang ikkinchi tomonda ham bo'lishini, takrorlanishini talab qiladi.

Kartina tekisligida shakl (natura) tasvirlarini to'g'ri joylashtirish uchun, avvalo, qalamda qoralamalar chizib izlanish, variantlar yaratish yaxshi natija beradi. Bitta yoki ikkita variant bilan chegaralanish kamlik qiladi. Shuningdek, ranglarda variantlar yaratish ham maqsadga muvofiq, har qanday mavzuli kompozitsiyaga qayta-qayta qaytish, izlanish rassomga muvaffaqiyat keltiradi (*16-rasmga qarang*).

Shuningdek, kartina tekisligi to'ldiriladi, tasvir masshtabi aniqlanadi va kompozitsiyaga kerakli narsalar joylashtiriladi. Shuni aytish kerakki, rassom badiiy obraz yaratish maqsadida tasvirda shakllar muvozanatini ongli ravishda buzish huquqiga ega. Bu rassomning ijodiy usuli va yaratuvchanlik qobiliyatiga, talantiga bog'liqdir.

San'at asarini yarata turib, uning ikki zaruriy shartini bajarish kerak: birinchisi — muvozanat, ikkinchisi — umumiylik va bir-biriga bog'liqligi. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari ana shunday.

Kompozitsion muvozanat. Bu kompozitsiyaning shunday holatiki, uning hamma elementlari o'zaro muvozanatlashtiriladi. Lekin bu tushunchani o'lchovlarning oddiy tengligi bilan chalqashtirmaslik kerak. Muvozanat kompozitsiya asosiy massasi joylashuviga, kompozitsion markazni tashkil qilishga, kompozitsiyaning plastik va ritmik qurilishiga, uning proporsional bo'linishiga, alohida bo'laklarning o'zaro va umumiy faktura munosabatlariga bog'liq. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kompozitsiyaning vosita va qonunlaridan birortasi ham alohida holda uyg'unlashgan asarni yaratmaydi, chunki ularning hammasi o'zaro bog'liq va muvofiqlashgan.

Kompozitsiya qonunlari muvozanat, simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Simmetriya o'zicha kompozitsiyada muvozanatlashtirish kafolati bo'la olmaydi. Simmetrik element va tekislikning miqdoriy nomuvofiqligi ko'rinishdan muvozanatlashmagan bo'lib ko'rinadi. Inson doimo shakl — fazoviy muhitda to'la hissiy qulaylik va yashash garmoniyasini yaratuvchi shakl muvozanatiga intiladi. Simmetrik kompozitsiyani muvozanatlashtirish asimmetrik kompozitsiyani muvozanatlashtirishdan ancha oson va bunga ancha oddiy vositalar bilan erishiladi, chunki simmetriya kompozitsion muvozanat uchun zamin yaratadi.

Yaxshi topilgan simmetrik kompozitsiya, uning tuzilish murakkabligiga bog'liq bo'lmay, oson va tez idrok qilinadi. Assimmetrik kompozitsiya ko'pincha uzoq vaqt o'ylashni talab qiladi va asta-sekin namoyon bo'ladi. Lekin simmetrik kompozitsiyani ifodaliroq deb tasdiqlash noto'g'ri. San'at tarixidan ma'lumki, garmoniya qonunlari bo'yicha asimmetrik qurilgan kompozitsiyalar, simmetrik kompozitsiyalardan badiiy qiymati jihatidan qolishmaydi. Simmetriyaning vertikal yoki gorizontal o'qli aks tasvir, markaziy va burchakli turlari ko'proq qo'llaniladi (*41-rasm*).

Biz markazga faol e'tibor qaratuvchi markazli, shuningdek, burchakli simmetriya haqida eslatdik. Markazlidan farqli o'laroq, unda harakat yaratiladi, ya'ni markazga qarab harakat — markazga

intilish, markazdan qochish. Bunday kompozitsion usul keng qo'llanilgan va hozir dekorativ amaliy san'atda ham qo'llaniladi: kulolchilikda, ro'mollar naqshida, intererda shift, pol tekisligi echimida va sh.k.larda.

Simmetriya faqat tekislik kompozitsiyalarida emas, shuningdek, hajmiy — fazoviy kompozitsiyalarda ham qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, XX asr boshlarida tezliklar, qanoatlanmaslik, mantiqsizlik asrida simmetriya ikkinchi planga o'tib qoldi va assimetrik kompozitsiyaga birinchilikni berdi. Assimetriyadan foydalanish, talaba oldida turgan vazifalarga bog'liq holda elementlar guruhini joylashtirish zarur bo'lgan tekislikka faolroq munosabatda bo'lish imkonini beradi. Bunday hollarda kompozitsiyani muvozanatlashtirish ancha murakkab, lekin buning uchun rang va uning to'yinganligi, shakl va uning qiyofasi, tekislikda mo'ljall olish, faktura kabi tasviriy vositalar, shuningdek, garmonizatsiya vositalari: ritm, proporsiya, kontrast, nyuans va masshtab mavjud.

Kompozitsiyada garmoniya, ya'ni uyg'unlik haqidagi, uning asosiy va zarur sharti — muvozanat haqidagi gap shunday logik xulosaga olib keladiki, hamma narsa — elementlar miqdori, ularning shakli, ularning kompozitsion tekislik bilan munosabati, ularning rang, kolorit va faktura echimi o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Shuning uchun uyg'unlikning bir qonunini bajarishga erishib, ikkinchi qonuni — birlik va bir-biriga bo'ysunishlik shartlarini bajarish zarur. Va aksincha, asar birligi, yaxlitligini yaratib, siz shu bilan uning muvozanati masalasini hal etasiz. Shu ikki shartni bajaribgina, uyg'unlikdagi kompozitsiya yaratdim, deb aytyshingiz mumkin.

Savollar:

1. *Kompozitsiyada yaxlitlik nima?*
2. *Yaxlitlik nima uchun kerak?*
3. *Kompozitsiyada muvozanat nima?*
4. *Muvozanat qanday amalga oshiriladi?*
5. *Kartinada gorizont chizig'i nima?*
6. *Kompozitsiya muvozanatida nima ahamiyatga ega?*
7. *Simmetriya va assimetriya kompozitsiyada qanday rol o'ynaydi?*
8. *Garmonizatsiya vositalari nima?*

9.1. KOMPOZITSIYA ELEMENTLARI

«Kompozitsiya» soʻzi italyancha *compositio* («kompozito») soʻzidan olingan boʻlib, tuzish, birlashtirish, bogʻlash, turli xil ramziy qism ifodalarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron bir gʻoyani madh etish maʼnosini bildiradi.

Rangtasvirda kompozitsiya — bu kartina tekisligiga tasvir elementlarini joylashtirishda fikr(gʻoya)ni ravshan, aniq va toʻla-qonli bera olish imkonini beradi.

Rangtasvirda rassom tomoshabin diqqat-eʼtiborini qaratish uchun kuchli va ifodali tasvir vositalaridan foydalanishga harakat qiladi. Har qanday kartina kompozitsiyasi tuzishda tasvirni va shaklni ifodali koʻrsatishga harakat qiladi. Keraksiz narsalarni olib tashlaydi, faqat eng keraklilari qoldirilib, ikkinchi darajalilari birinchi darajali qismlariga boʻysundiriladi. Kartinada tasvirlanayotgan narsaning ichki mazmuni quvonch va hayajon uygʻotishi kerak. Shuning uchun kompozitsiyada hamma elementlari, har xil vositalari: xolst hajmi, tekislik, yoritilish xarakteri, kompozitsiya markazining oʻrni va boshqalardan foydalaniladi. Bular hammasi kartinaning zavqli chiqishiga taʼsir qiladi.

Kompozitsiyaning tuzilishi kartina oldiga qoʻyilgan gʻoyaga, vazifaga bogʻliq boʻlib oʻzgarib turadi. Kartinaning xarakteri mazmun va gʻoyadan kelib chiqadi.

Rassom oʻz ijodiy kompozitsiyasida tabiat qonunlari va tomoshabinning idrok qilish xususiyatlarini hisobga oladi. Tasvirda simmetriya, assimetriya, tenglik va ritm, tuzilishining maqsadga muvofiqligi, shaklning xilma-xilligi, ranglar yaxlitligi, koʻrish nuqtasi, masshtab, oʻlcham va hajmi kabi kompozitsiya elementlarini rassom gʻoya va fikrga birlashtiradi.

9.2. Simmetriya

San'atning real muhitida shakllarning simmetriya tuzulishiga ko'zimiz tushadi.

O'ng va chap tomonlarining bir xilligi, uy buyumlari, barglar, mevalar, shuningdek, odam qomati ham simmetrik tuzilganligi tenglik haqida tushuncha beradi. Simmetriyani tabiatda ham, har xil san'at turlarida ham kuzatish mumkin. Kompozitsiyada simmetriya hosil qilish uchun uning qismlari, tusi, rangi va shaklining tengligi xarakterlidir. Bu holatda shaklning o'rtasidan o'tgan o'q chizig'idan bir tomoni ikkinchi tomoniga ko'zgudagi aksidek o'xshash va teng bo'ladi (*41-rasmga qarang*).

Simmetrik shakl aniq markazga ega bo'ladi. Odatda, u kartina tekisligining geometrik markaziga to'g'ri keladi. Agar ko'rish nuqtasi markazdan chetda bo'lib, yoki tasvir diagonal bo'ylab joylashtirilsa, kompozitsiya dinamik (harakatchan) bo'ladi va ideal tenglik buziladi.

Simmetriya ornamentlar tuzilishida eng ko'p uchraydi va o'z-gacha go'zallik kasb etadi

Kompozitsiyada simmetriya, ayniqsa o'q chizig'idan o'tuvchi simmetriya birlashtiruvchi roldir. Kartinadan ikki qismga bo'luvchi o'q chizig'ini o'tkazsak, simmetriya chizig'ini o'tkazgan bo'lamiz. Bu chiziq kartinani ikki qismga bo'lsa-da, bu holat kuzgu simmetriyasi bo'lmasligi mumkin.

Aksincha, shakllar, qiyofalar ikki tomonda takrorlanishi mumkin. Bunda ikki tomon shakllari, ranglari, holatlari bilan tenglik saqlangan bo'lib, nigohiy simmetriyani hosil qiladi. Simmetrik kompozitsiyasida ko'p hollarda markazga intilib umulashtirilganini ko'rish mumkin.

«Uchovlon» ikonasi simmetriya kuzgudagidek takrorlanmasa-da, qo'l va o'tirish ichki holatlari, ma'no-mazmunan markazga qaratilgan. O'rtadagi va ikki chetdagi qomati markaziy simmetriyadan biroz chetlatilgan. Erkin simmetriya orqasida shakl va mazmun simmetriyasi bo'lsa-da assimmetriya kabi qarash mumkin. Ikki tomonning muvozanatini umumlashtirib turuvchi qiyofalar birlashtiruvchi kuchga ega.

Qadimiy grek rassomlari ham simmetriya qoidalaridan keng foydalanganlar. Eramizdan avvalgi V asrga mansub rasmlar, shuningdek, antik ko'zadagi rasmlar va Pompey freskalari bunga misol bo'la oladi.



41-rasm. Simmetriya. B. Jalalov. Raqs. Devoriy rasm

Rassomlar simmetriya qoidalaridan foydalanib, ko'p qomatli kompozitsiyalar yaratganlar (35, 42-rasmga qarang).

Uyg'onish davri rassomlari simmetriya qoidalariga katta e'tibor berib, mahobatli rangtasvir asari yaratganlar (masalan: Jotto freskalari). Italiyada Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiyada katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan: Leonardo da Vinchi «Anna bilan Mariya va chaqaloq Xristos»¹ asarida uch qomatni joylashtirish uchun uchburchakdan foydalangan.

Leonardo da Vinchi «Sirli oqshom» asaridagi kompozitsiya tuzilishini ham simmetriya deyish mumkin.

9.3. Assimmetriya

Rangtasvirda, chizmatasvirda, bezakli pannoda, freskada buyumlar tasvirida, arxitektura binolarida assimmetrik joylashtirishda kartina tekisligini vertikal o'q chizig'i bilan ikki qismga bo'lsak, kompozitsiyaning og'irligi, shakllari, tus holati tengligi buzilganini ko'rish mumkin. Assimmetrik kompozitsiyada tenglik harakatini hosil qilish shakllar oralig'idagi bo'shliq pauzalari yordamida amalga oshiriladi. Bunda shakllar bir-biriga yaqinlashadi

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World

yoki bir-biridan uzoqlashadi. Tenglik esa katta va kichik shakllarni oq va qoramtir tus, yorqin va bo'g'iq ranglarni qarama-qarshi qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Tekislikda assimetrik ya'ni markazlashtirilmagan kompozitsiyada tenglik ongli ravishda susaytiriladi yoki umuman bo'lmaydi.

Masalan: fikr, g'oya sujet markazi kompozitsiya tekisligining bir tomoniga yaqin bo'lib, ikkinchi tomonda kam shakllar tasvirlanadi. Agar sujet kontrast holatda ochib berilgan bo'lsa, bunda psixologik kontrast, bosh qahramon va bir guruh qiyofalar bir-biridan qandaydir masofada joylashtirilib, tashqaridan qaralganda kompozitsiya bo'linganday assimetriyani hosil qiladi. Ikki qismini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, kompozitsiya mutanosibligi ta'minlanadi.

Kompozitsiyada mutanosiblik saqlangan assimetriya tuzilishiga rassom K.P. Bryullovning «Pompeyning oxirgi kuni», Ya. Axmarovning A. Navoiy nomidagi Opera va balet teatri binosidagi «Farhod va Shirin» asarini misol qilib ko'rsatish mumkin (42 a, b-rasmga qarang).

Savollar:


1. Kompozitsiya nima?
2. Kompozitsiyada nimalar aks etishi kerak?
3. Kompozitsiya ishlashda rassom nimalarni bilishi kerak?
4. Simmetriya nima?
5. Simmetriyani nimalarda kuzatish mumkin?
6. Simmetriya qanday hosil qilinadi?
7. Assimetrik holat nimadan iborat?
8. Assimetriyaning simmetriyadan farqi nimadan iborat?
9. Assimetriya qanday hosil qilinadi?

9.4. Ritm, harakat (dinamika) va tinch (statika) holatni tasvirlash

Ritm — tabiatda jism va hodisalarning ma'lum tartibda, muntazam izchillikda takrorlanishi.

Ritm — bu kompozitsiya qismlarining bir tekis, uzluksiz, ketma-ketligi bo'lib, kompozitsiya qismlarining va ular orasidagi

masofalarning takrorlanish qonuniyatini anglatadi (46 a, b-rasm).



46 a, b-rasm. Ritm. Odam harakati

Asar ritmi — bu nafaqat o‘xshash, balki bir-biriga o‘xshamagan, uzoq joylashgan tizimlar ketma-ketligi. U takrorlanuvchi chiziqlar, rang dog‘lari, nur va soyalar ko‘rinishida bo‘ladi. Shu omillardan biri yetakchi rolni egallab, asardagi ritmiylikni o‘zi orqali belgilab beradi. Teng elementlar ketma-ketligi ko‘rinishidagi ritm teng masofalar bilan belgilanadi va u odatda metr deb yuritiladi. Kompozitsiyada ritm va metr uyushganligini ko‘p marotaba uchratish mumkin. Shuningdek, rang ham ritm hosil qiluvchi omil sifatida nazarga olinadi. Chunki chiziqlar ritmdan tashqari holatda bo‘lganda matoda rang taqsimlovchi ma‘lum rang-tus qonuniyatlari mavjud bo‘ladi. Ritmlar chiziqli, rang dog‘lari, plastik massa kabi bir necha turlarga ajraladi. Chiziqli ritmga misol sifatida o‘rta asrlarga oid Varaxsha saroyi devoriga ishlangan suratlardagi fil ustidagi chavandozlarning yirtqichlar bilan qilayotgan janglari

sahnasini keltirish mumkin. Har tomonga xilpirayotgan tasmalar hayvon va inson jussalarining sinussimon ritmlarida takrorlanadi.

Ritm o'ziga xos tabiiy borliqdir. U tabiat ko'rinishlari va hodisalarida doimo ishtirok etadi. Jonli tabiat olamining u yoki bu holatda ritm bilan aloqadorlik misollarini eslab ko'ring. Koinot hodisalari, sayyoralarning aylanishi, kun va tun almashinuvlari, fasllar davriyligi, o'simlik, minerallarning o'sish jarayonlari kabilar shu jumladandir.

Ritm har doim harakatni anglatadi.

Hayotdagi va san'atdagi ritmlar bir ma'no degani emas. San'atda ritmning uzilishi, ritmik bo'rttirish, notekis ritm, matematik darajada bo'lmagan aniqsizliklar jonlilik, har xillikni berib, kerakli yechim topilmalariga olib keladi.

Tasviriy san'at asarlarida va musiqada ritm faolligining parchalanishini yumshoq, bosiq va sokin ohanglarda sezish va ajratish mumkin. Ritm bu ba'zi elementlarning ketma-ketligi va ma'lum darajadagi bosqichlaridir. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va analiy san'atda ritm kompozitsiya g'oyalarini ifodalash uchun faol ishtirok etadi va tasvir qurilmasida qatnashibgina qolmasdan, balki unga ma'no va jozibadorlik baxsh etadi.

Ritmni chiziqlar, yorug' va soya, dog'lar hamda rang dog'lari bilan berish mumkin. Kompozitsiyaning ba'zi qismlaridan, masalan, odamlar qomati, qo'l va oyoqlari yoki naqshning ramziy qismlaridan galma-gallik sifatida foydalanish mumkin. (35-rasm). Ritm kontrast shakllarda qurilgan bo'lishi ham mumkin. Xalq amaliy san'ati asarlarida ritm asosiy rol o'ynaydi. Amaliy san'atda kompozitsiyalar turli xil naqshlar ritmi, ketma-ketlik asosida quriladi. Ritm sehrli tayoqchaga o'xshaydi, uning yordamida tekislikdagi harakatni bilib olish mumkin (46-rasm.)

Biz doimo uzluksiz o'zgaruvchan dunyoda yashaymiz. Rasomlar o'z san'at asarlarida o'tayotgan vaqtni, davrni, muhitni tasvirlashga intiladilar.

Kartinada aks etgan harakatlar — vaqt o'lchovidir.

Rangtasvir asar, freska, grafik illyustratsiyalarda biz tomondan harakatlarning qabul qilinishi oddiy bir holatdek tuyuladi. Chuqur borliqni va odam xarakterini yorqin, ishonchli va aniq tasvirlashda

harakat dinamikasi paydo bo'ladi. Hattoki, rassomlar portret, manzara yoki natyurmortlarni matoda aks ettiribgina qolmasdan, bu tasvirlarni dinamik harakat bilan to'ldirish, uning ko'rinishi va borlig'i, harakatini, ayrim hollarda o'tmish, hamda hozirgi kun va kelajakni ham ifodalaydilar. Faqatgina biror bir shakl o'zgartirilishi yoki siljtilishi bilangina emas, balki uning ichki holati ham dinamik ko'rinishga bog'liq bo'lishi mumkin. San'at asarlarida harakatning ishtirok etishi dinamik harakat deb yuritiladi.

Nima uchun ritm harakatni beradi? Bunga sabab ko'rish a'zolarimizning o'ziga xos xususiyatlari borligidadir. Tasvir qismlarini ko'rish maqsadida biridan ikkinchisiga va shunga o'xshashiga o'tish jarayonida go'yoki harakatda kuzatuvchining o'zi qatnashayotgandek tuyuladi. Masalan: bir to'ldiqindan boshqasiga ko'chayotgandek nigohimizni qaratamiz. Ularda illyuzion harakatlar aks etadi. Tasviriy san'at asarlari, musiqa va adabiy asarlardan farqli o'laroq, alohida ajralib turadi. Albatta, bunga sabab unda voqea va harakatlar borligidir.

Biz harakatni tekislikda berish haqida gapirar ekanmiz, albatta, uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Yana qanday yo'llar bilan dinamik harakatini ko'rsatish mumkin? Rassomlar illyuzion harakat ko'rinishlarini tashkil etishda usul va sirlarni qo'llashda xarakterlarga alohida urg'u beradi. Ba'zi bir ifodalangan ko'rinishlarga e'tiborimizni jalb etamiz.

Agar kitob salgina qiya qilinsa, ustida turgan koptok joyidan qo'zg'ala boshlaydi. Kitob qancha ko'p qiya qilinsa, koptok shuncha tezlik bilan harakatga keladi va kitob burchagiga yetib boradi. Nima uchun bunday bo'layapti? Har kim shunday tajribani o'tkazib ko'rish va uning asosida tezlik harakati kitobning baland qiyaligida ekanligiga ishonch hosil qilib olishi mumkin. Buni chizmatasvirda tasvirlashga harakat qilib ko'rilganda kitob qiyaligi burchaklarga nisbatan diagonaligi ko'rinadi.

Harakatni berish qonunlari:

Agar kartinada bir yoki bir necha diogonal chiziqlardan foydalanilsa, unda tasvir yanada dinamik harakatchan bo'ladi (43-rasm).

Harakatni berish uchun uning alohida holatini tanlab, xarakterini aniq tasvirlash maqsadning eng yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, agar elementlari biror bir asl holatdagi harakatga bosqichma-bosqich fazalar orqali kiritilsa, tasvir harakat qilayotgandek tuyuladi. Qadimgi misrliklar relefidagi qo'l holatlariga e'tibor bering. Har bir qomat ma'lum holatni egallagan bo'lib, aylana atrofida bosqichma-bosqich harakatlanayotgan kompozitsiyani ko'ramiz.

Asarning alohida holatlarini emas, balki yaxlit va umumiy tomonlarini olib qaraganimizda harakat tushunarliroq bo'ladi. Harakatdagi qism oldidagi ochiq kenglik bizga xayoliy harakatni davom ettirishni va o'zi bilan birga harakat qilishga taklif qilayotgandek tuyuladi.

Boshqa bir holatda avtomashina butunlay to'xtab qolgandek. Qog'oz qirrasida esa unga harakat qilish imkonini bermaydi.

Chizmasizvir chiziqlari yordamida harakatning alohida holatlarini e'tirof etish mumkin. Haykaltarosh diskobol haykalida qahramon kuchining nihoyatda tig'iz holatini tasvirlaydi. Bu jarayonning avvali nima bo'lgan va endi nima bilan tugashini yaxshi tushuna olamiz.

Harakatni idrok qilib, xayolan nihoyasiga yetkazish mumkin. Orqa planda joylashgan fonning oqib yoyilgan holati, asardagi inshootlarning noma'lumligi va noaniq konturlari orqali harakatni bildirishga erishiladi. Ko'p sonli vertikal yoki ufq chiziqlar aks holda, turlarda harakatlarni to'xtatib qo'yishi mumkin. Harakat yo'nalishining o'zgarishi uni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Ko'rish qobiliyatimizning e'tiborli joyi shundan iboratki, matnning chapdan o'nga o'qiyamiz va sekinlik bilan qabul qilamiz, harakat esa go'yo tezroq harakatlanayotgandek, yurayotgandek tuyuladi.

Tasvirda harakatsizlikni ifodalovchi qoidalar:

- agar kartinada diagonal yo'nalishlar yo'q bo'lsa;
- agar harakat qilayotgan qiyofa oldida ochiq kenglik bo'lmasa.
- agar ko'rinishlarda tinch holat tasvirlanib harakat yo'nalishlari aks etmagan bo'lsa.
- aylana, oval, kvadrat, to'g'ri burchak tashkil topgan bo'lsa, unda muqim kompozitsiya deb hisoblanadi.

San'at asarida harakatsizlikni (turg'unlikni) his qilish boshqa qator sharoitlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan: K. Korovinning «Qish» (44-rasm) kartinasida diagonal yo'nalish borligiga qaramasdan ot-arava tinch turibdi. Harakatsizlikni sezish quyidagi sabablarga ko'ra, sodir bo'lmoqda: kompozitsion markaz va geometrik shakllar mos tushgan, shuningdek, kompozitsiyada muvozanati saqlangan ot oldidagi uzoq kenglik daraxtlar bilan to'sib qo'yilgan.

Savollar:

1. *Ritm nima?*
2. *Ritm tabiatda qanday?*
3. *Ritm kompozitsiyada nimani anglatdi?*
4. *Ritmni nimalar yordamida aks ettirish mumkin?*
5. *Xalq amaliy san'atida ritm qanday rol o'ynaydi?*
6. *Harakat (dinamika) nima?*
7. *Qanday yo'llar bilan dinamik harakatni ko'rsatish mumkin?*
8. *Tinch, turg'unlik (statika) nima?*

9.5. Birlik va bir-biriga bo'ysunish. Kompozitsiya markazi

Uyg'unlik — turli qismlar (qiyofa va shakllar)ning bir-biriga yaxlit birlashishidir;

Kompozitsion markazni tashkil qilishda tekislikni vizual idrok qilish qonunlarini inobatga olish kerak. Odatda, u tekislikning faol, markaziy qismida joylashadi. Geometrik markazga nisbatan surish, ko'pincha asarga badiiy obraz va mavzuni ochishda katta ichki keskinlik va plastik ifodaviylik beradi. Tekislik chetlari, biz buni istaymizmi yoki yo'qmi, hoshiya, markazda chuqurlik, fazo hosil qiladi. Markaz, asosan, ma'naviy vazifani bajaradi, ya'ni u tomoshabinga psixologik ta'sir ko'rsatib, unda assotsiatsiyalar oqimini hosil qiladi. Tasavvurni rivojlantirib, qayg'urishga majbur etadi va asar badiiy obrazini ifodalaydi.

Kompozitsiya yaratishda uyg'unlashtirish vositalari ham katta rol o'ynaydi. Ularga ritm, kontrast, nyuans va o'xshatish, proporsiya (nisbat), masshtab kiradi.

Kompozitsiya markazi (aksent). Kartina tekisligida hamma narsa asosiy fikrga va g'oyaga qaratilishi kerak. Kompozitsiya yaxlitligida ikkinchi darajali narsalar birinchi darajali narsalarga bog'liq bo'lib, butun tasvirni yagona maqsadga birlashtiradi. Ikkinchi darajali narsalar ortiqcha diqqatni tortib ko'zga tashlanmasligi lozim. Asosiy qism ajratilib tasvirlanadi. Agar kartinada shakllar bir xil ahamiyatli bo'lib, pala-partish tartibda joylashtirilsa, kompozitsiya o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Asosiy natura (shakl) tasvirini kartinada diqqat bilan tasvirlash muhim bo'lib, asosiy harakat, voqea kartina tekisligining markaziga yaqinroq joyda joylashtiriladi. Bu tomoshabinga kartinani ko'rishda uning ma'nosini uzoqdan to'la qamrab olishga imkon beradi. Kompozitsiyada bir necha bir xil ahamiyatga ega markaz yaxlitlikni va biriikni buzadi. Tasvirni tomoshabin idrok qilishiga imkon bermaydi.

Mahobatli rangtasvir rassomi kartinada bir necha markaz qilishi mumkin, ammo u g'oya va fikr yechimida o'zini oqlay olasa. Kompozitsiyada muhim qahramonni ajratib tasvirlash uchun uni markazda joylashtirishdan tashqari bo'yoq qo'yish usuli bilan ham amalga oshirish mumkin. Ikkinchi darajali qiyofalar yoki ikkinchi plan shakllarini ishlashda ular umumlashtiriladi (16, 42-rasmga qarang).

Kompozitsiya markazini ajratib ko'rsatishda kartinani tabiiy idrok qilishda nur — soya, qiyofalar kattaligi, ranglar nisbati va qiyofalar oralig'i masofasi orqali amalga oshiriladi. Rassom tekislikdagi kartinaning muhim qismini rang bilan, tus bilan va detallarga ishlov berish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin.

Savollar:

1. Uyg'unlik nima?
2. Kompozitsion markazni tashkil qilishda nimani e'tiborga olish kerak?
3. Uyg'unlik, hamohanglik qanday amalga oshiriladi?
4. Uyg'unlashtirish vositalari nima?
5. Kompozitsiya markazi nima?
6. Kompozitsiya yaxlitligi qanday amalga oshiriladi?
7. Kompozitsiyada muhim qahramonni ajratib tasvirlash qanday amalga oshiriladi?

X BOB

10.1. KOMPOZITSIYA VOSITALARI

Har qanday kompozitsiya o'ziga xos vositalardan tuziladi. Vositalar uyg'unligi, mutanosibliги me'yorida va to'g'ri topilgan holda qo'llanilishi kompozitsiyaga ijodiy yondashilganlikdan dalolat beradi.

Kompozitsiya vositalariga aniqlovchi kompozitsion usul, proporsiya va masshtab, kontrast va nyuans, metrik takror va ritm, rang, soyalar va plastika yechimi kiradi.

Aniqlovchi kompozitsion usul kartina shakli ustida ishlashda muhim tashkiliy asos hisoblanadi va ijodiy izlanishning yo'nalishini belgilaydi.

Texnik taklif yoki eskiz loyihasi bosqichida asarning asosiy elementlari va ma'lum texnik parametrlarni ta'minlovchi uning joylashish variantlari aniqlangandan so'ng, rassom yoki dizayner hal qiluvchi kompozitsion usulni tanlashi, mahsulot kompozitsiyasi g'oyasini aniqlashi lozim. Texnik joylashtirish sxemasi variantlarini bilgan holda, dizayner o'zining badiiy -- konstruktorlik variantlarini yaratadi, shakl tuzilishi umumiy ko'rinishini aniqlaydi (tashkil etuvchi yuzalarning andozali yoki tekis mayda shakllari, shaklning nyuans yoki kontrast yechimi, shakl elementlarining materiali va tutashgan joylari). Bu yagona belgilovchi kompozitsion usulda berilgan mahsulot yoki ularning guruhlar kompozitsiyasi vositalari birligini ko'rsatish imkonini beradi.

Proporsiya, kontrast, nyuans, ritm, masshtab — bular uyg'unlashtirish qonunlari bo'yicha shakl yoki asar yaratishda rassom foydalanadigan vositalardir. O'z navbatida, aynan shakl o'ylab topilgan asarning badiiy obrazini beradi.

Masshtablilik o'z mohiyatiga ko'ra, shaklni insonga nisbatan proporsionallashtirishning alohida turi.

Uyg'unlashtirishning biryo'la uch vositasini: kontrast, nyuans va o'xshashlikni ko'rib chiqamiz. Ularning hammasi san'at asarlar-

rida tasviriy vositalarning sifat o'zgarishi va sifat munosabati haqida xabar beradi. Agar kontrast tasviriy vositalar sifatlarining maksimal o'zgarishi bo'lsa, nyuans — minimal, o'xshashlik esa bu sifatlar-ning takrorlanishini bildiradi.

Kontrast, nyuans, o'xshashlik — bu tenglashgan, birlikdagi va bir maqsadga bo'ysungan kompozitsiyani, ya'ni hamma munosabatlarda garmonik bo'lgan kompozitsiyani tuzishda yordam beruvchi kompozitsion vositalardir.

Kontrast va nyuans — bir-biridan alohida tarzda mavjud bo'la olmaydigan o'zaro to'ldiruvchi vositalardir.

Uyg'unlik — bu qarama-qarshiliklar muvofiqligi, ularning muvozanatidir.

Kontrastlar o'rni universal ular kompozitsiyaning hamma elementlariga — uni tashkil qilish g'oyasidan boshlab sujet qurishdagi kontrastning ahamiyatigacha daxldordir.

Kontrast — asar kompozitsion elementlarining shakl, tekstura, rang, yorug' — soya va boshqa ko'rinishlarda bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, nyuans esa kompozitsion elementlar xususiyatlarining sekin-asta, nozik va o'zaro bog'liqlikdagi o'zgarishidir (*39, 45-rasmlar*).

Kontrast shaklga faollik beradi, uning ta'sirini faollashtiradi. Bunda yorug' — soya kontrasti rang kontrastiga nisbatan kuchli ta'sirga ega. Kolorit kuchidagi xatolik yaxlitlikning qisman buzilishiga olib keladi. Tuzilishlar kontrastidagi xatolik kartina shakli yaxlitligini to'liq buzishi mumkin, bu ortiqcha kontrast deyiladi.

Metr va ritm — elementlar takrorlanishining ma'lum qonuniyat-lari. Agar takrorlanishlar orasi bir xil bo'lsa (yoki ko'rinishdan bir xil bo'lib tuyulsa), bu metrik takrordir. Agar takrorlanishlar orasi sekin-asta o'zgarsa, bu ritmikadir.

Ritm — elementlar tuzilishi tartibining qonuniy o'zgarishi bo'lib, almashinuvchi, element xususiyatlarining sekin-asta miq-doriy o'zgarishlarida ritm ko'rinishidagi dinamik xususiyatlariga ega bo'lamiz.

Ritm elementlar xususiyatlari dinamikasini yaratadi va kuza-tuvchi ko'zlarini asar kompozitsion markaziga «olib boradi», bu

esa o'z navbatida undan, asar tuzilishini yaratishda informatsiya beruvchi sifatida foydalanish imkonini beradi (42, 46-rasmlar).

Ritm – aynan «takt, marom» (grekchada – «rafmos») degan ma'noni anglatadi. Ritmning muhim belgilari – ko'rinish, elementlar yoki shakllarning takrorlanishi, ularning almashinish qonuniyati kabilardir.

Metriklik – bu mexanik tarzli harakatdagi bir maromlilik. Agar kompozitsiyada ritm rivoji chegaralangan bo'lsa, metrik kompozitsiya cheksiz qaytariladi. Ornament metrik qatorning yorqin namunasi bo'la oladi. Turli to'liqinsimon va to'g'ri chiziqlar, kichkina krestlar, romblar, aylanachalar – bularning hammasi tekislikda yoki biror hajmda qatorlashib, shu bilan ornament hosil qiluvchi ma'lum informatsiyadir (38-rasmga qarang).

Lekin shunday bo'lsa-da, asosida metr yotuvchi kompozitsiya yaratib, biz metrning keyingisi bilan plastik aloqalarini o'ylab chiqishimiz zarur. Metrik kompozitsiyalarning bunday turi rapport yoki rapportli kompozitsiya deyiladi. Ular asosan matolarda rasmlar chizishda foydalaniladi. Bunday kompozitsiyaning uch xili mavjud: setkali, yo'l-yo'l va katak-katak. Odatda matolardagi kompozitsiyalarda o'simlik, hayvon va geometrik mavzular qo'llaniladi.

Metrdan farqli o'laroq ritm, kompozitsiyaga dinamiklik beradi va murakkab xususiyatdagi harakatni keltirib chiqaradi. Ritm dinamikasi bir turdagi elementlar va fazoning qonuniy almashinuvi bilan yuzaga keladi.

San'at asarini idrok qiluvchi tomoshabin uchun ritmning ikki turi mavjud: faol dinamik va passiv dinamik. Ularning birinchi turiga ovozli (muzikali), raqs, yorug'lik va boshqa ritmlar, ya'ni ma'lum vaqt chegarasida paydo bo'ladigan va yo'qoladigan ritmlar kiradi. Ikkinchi (passiv) turiga plastik shakllar -- doimiy qatnashadigan va ritmni his qilish real mavjud elementlarning o'zaro munosabatidan paydo bo'ladigan me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik va grafikadagi ritmlar kiradi.

Qachonki qandaydir bitta qonuniyat (shakl, rang, faktura yoki elementlar orasidagi masofa) o'zgarsa, ritm oddiy bo'ladi va qachonki o'zgarishlar birdaniga bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha bo'lsa, ritm murakkab bo'ladi. Masalan: shakl ko'rinishi o'zgaradi

va rang bo'yicha to'yinish yuzaga keladi yoki elementlar orasidagi masofa o'zgaradi va bir vaqtning o'zida o'z fakturaviy xususiyatini o'zgartirgan shakl kichrayadi. Ritm kompozitsiyalarni faqat boyitibgina qolmay, ularni tashkil qilishga ham yordam beradi. Tekislik kompozitsiyasida qanday bo'lsa, hajmiy, fazoviy kompozitsiyalarda ham shunday ritmsiz ishlash qiyin. Ritm barcha tasviriy vositalar yordamida ifoda qilinishi mumkin: shakl ritmlari (nuqta, chiziqlar, dog'lar va ularning birikuvi), rang ritmlari (axromatik va xromatik), faktura bilan ifodalanuvchi ritmlar mavjud.

Bir kompozitsiyada ritm va bir-biriga nisbatan parallel rivojlanuvchi, kesishib yoki hatto qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanib qurilgan kompozitsion tuzilishning katta miqdori bo'lishi mumkin. Ritmik qurilish hisobiga tekislik yoki hajm markazi faol tashkil topadi, hajmiy — fazoviy echimda esa asosiy g'oya aniq lanadi. Miqdoriy yoki sifat o'zgarishlari har bir kompozitsion birikmada o'z oraliq masofasi bilan, tasvir vositalarining o'zgarishi bilan o'ziga xos tarzda bo'lishi mumkin (*43-rasm*).

Ritmik qurilish qonuniyatlari ko'p jihatdan har qanday turdagi kompozitsiyalarni, ularning birligi va bir-biriga bo'ysunishi muvozanatini yaratish muammolarini hal qiladi.

Kompozitsiyalarda metr va ritm munosabatlaridan foydalanish mumkin. Ritmik qatorlarning metrik takrorlanishi juda original asarlar yaratishga yordam beradi. Shakl badiiy obraz ifodasining eng muhim vositasi, lekin birdan bir vosita emas. Rang shakl bilan muvofiqlikda o'z mohiyati jihatidan boy asarlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, rang, faktura yoki yorug'lik bilan ifodalanmagan tasviriy shaklning o'zi shunchaki mavjud emas.

Savollar:

1. *Kompozitsiya vositalari nimalardan iborat?*
2. *Proporsiya nima?*
3. *Ritm va metr nima?*
4. *Mashtablilik nima?*
5. *Kontrast, nyuans, o'xshashlik qanday vosita?*
6. *Uyg'unlik nima?*
7. *Ritm nimani anglatadi?*
8. *Ritmik qurilish qonuniyatlari nimani hal qiladi?*

10.2. Masshtab va masshtablilik

Proporsiya (*mutanosiblik*) va masshtab (*nisbat*) kompozitsiya-ning muhimligi bo'yicha navbatdagi vositalaridir. Proporsiya shakl garmonikligining kuchli vositasi hisoblanadi, shuning uchun ma'lum qat'iy munosabatlardan foydalanishga harakat qilinadi («oltin kesim» yoki uning funksiyasi). Ammo amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, gap faqat qat'iy munosabatlardagina bo'lmay, rassom va dizaynerning murakkab shaklni uyg'unlashtirishdagi mahorati va iste'dodida hamdir.

Bunda quyidagi juda muhim ikki omilni inobatga olish zarur:

1) proporsiyalarni idrok etish shakl yuzasi va uning ko'rib idrok qilinishini umuman o'zgartira oladigan qiyofasi xususiyatiga bog'liq;

2) proporsiyalash shaklning hamma elementlarini inson bilan, nisbatlashtirilgan bir-biriga ta'sir etuvchi nisbatlarning yagona sistemasida qamrab olishi kerak.

Badiiy obrazga ifodaviylik berishda shakl proporsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Kvadrat shakldan hosil bo'lgan his-tuyg'uni muhokama qilib, biz uning tomonlari o'lchamlari munosabatiga ahamiyat bermadik. U 1:1 nisbatda edi. Bu munosabatni 1:10 qilib o'zgartirib ko'raylik. Endi shaklning joylashishiga qarab, uning xususiyatlari namoyon bo'ladi: yoki mustahkamligi kuchayadi yoki harakat imkoniyatini oshirib, shakli yengillashadi. Badiiy obrazni yechish uchun faqat yaxlit shakl emas, uning bo'lak nisbatlari ham muhim. Qismlarning yaxlitlik bilan proporsional munosabati uni talqin qilishning turli varinatlarini beradi.

Proporsiya (*mutanosiblik*) — asar elementlari orasidagi boshlang'ich deb qabul qilingan yaxlitlikning qismlariga nisbatan muvofiqligidir. Har qanday mutanosiblik mana shunga asoslanadi.

Shakl proporsiyalari haqida gapirishni boshlab, kontrastlashtirish, ya'ni tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni taqqoslashda qurilgan ifodalilikni ta'kidlamaslik mumkin emas. Masalan: katta shakl va kichik detallar kontrastida, dog' va chiziqning yopiq va ochiq shakl kontrast munosabatida uning ahamiyati katta. Shakl sezilarsiz darajada o'zgarganda (nyuans), uning o'lcham va tuzilishi


o'z ifodaviyligini yo'qotmagan holda boshqa obrazlar paydo bo'ladi. Shaklni plastik tashkil qiluvchi faol vositalar qatorida ritmni ko'rsatish mumkin.

Uyg'unlikning asosiy vositalaridan biri bo'lgan proporsiyaga (yaxlitlik va qismlar aloqasi) ahamiyatni qaratamiz. Yaxlit asar birligi mavzusini davom ettirib, shuni tasdiqlaymizki, proporsiyalar asosida yaxlitlik va shu yaxlitlikni tashkil etuvchi qismlarning munosabatlari g'oyasi yotuvchi vositadir. Proporsiya deganda yaxlitlik qismlarining o'zaro va shu yaxlitlik bilan munosabati tushuniladi.

Renessans davrida o'rta proporsional munosabatni benazir nisbat deb ataganlar. Leonardo da Vinchi (Uyg'unish) proporsiyalash sistemasi bilan ishlab, unga «oltin kesim» nomini beradi.

Uyg'unlikni yaratish uchun, ya'ni yaxlit asar yaratish uchun rassom tabiat qonunlarini egallashi va uni qo'llay bilishi lozim. Shuni aytish kerakki, proporsiyalash muammosi fikrlashni talab qiluvchi murakkab badiiy muammolardan biridir.

«Inson hamma narsaning o'lchamidir». Inson nimani yarasta, u o'zi uchun va o'ziga moslab yaratadi (47-rasm).



31-rasm. Masshtab Leonardo da Vinchi

Masshtabga proporsionallashtirish sistemalarini to'g'ri qo'llash orqali erishiladi. Shaklni alohida detallarga ajratib, kerakli masshtabga ega bo'lish mumkin. Shakl siriirroq, ma'nosizroq idrok qilinadi. Va aksincha, uni yiriklashtirib, mayda narsalar bilan, atayin kiritilgan va kichraytirilgan elementlar bilan taqqoslab (demak, kontrastni qo'llab) mahobatli idrok qilinuvchi shaklni yaratib, unga katta ma'nolilik berish mumkin. Masshtab vositasida obrazning zarur ifodaviyligiga faqat shakl bilan ishlab emas, balki rang va faktura kabi ifoda vositalarini to'g'ri qo'llab ham erishish mumkin.

Binobarin, asar masshtabiligi absolyut kattalik bilan belgilanmaydi. O'lchami jihatidan katta bo'lmagan asar yirik masshtabga ega bo'lishi, mahobatli obrazlarni ifoda etishi mumkin. Va aksincha, kattaligi bo'yicha yirik asar ba'zida kichikdek idrok qilinadi.

10.3. Kompozitsiyada ritm (vazn)

Hayotda ritm har xil ko'rinishda ko'p uchraydi. Fasllar almashuvi ham ritm. Odamlar harakati, xulqi, yurish-turishi, bir-biri bilan gaplashishi orqali bo'layotgan voqeaning ma'nosini aniqlash mumkin. Vokzalda kelayotgan, ketayotgan, o'tirgan kishilar harakatida har xil ritmni kuzatish mumkin. Tabiatda daraxtlar shakli ham ma'lum darajada ritmik ko'rinishdadir.

Tekislikda ritm tasvirning ayrim elementlari takrorlanishi ko'rinishida bo'ladi.

Shuningdek, ritmni masshtablari nisbatida, yorug'lik va ranglar joylashuvida, qo'l harakatlarida kuzatish mumkin.

Ritm tuzilishi kartina tekisligida ham, bo'shliqdagi shakllarning joylashuvida ham amalga oshiriladi. Ritm kartina mazmuni bilan bog'liq holda g'oyaga bo'ysundiriladi. Ritm tomoshabinning diqqatini muhim elementlarga qaratib, tasvir ravshanligini, ifodaliligini kuchaytiradi (35, 42, 43-rasmlar).

Tasviriy san'atda va hayotda ritm zaruriy jihat hisoblanadi. U takrorlanib turuvchi katta yoki kichik element (shakl)lar ma'lum masofada va davriy takrorlanishi bilan xarakterlidir. Agar simmetriyada elementlar muvozanati tinch, turg'un holat ko'rini-

shida bo'lsa, ritmda harakat cheksiz davom etishi mumkin (45-rasm).

Ritm tabiatda, har xil hayotiy voqealarda kompozitsion tuzilishda o'z aksini topgan. Masalan: kristall qirralari, dengiz to'lqinlari, yil-fasilarining takrorlanishi, o'simlik dunyosi, nafas olish, yurak urishi va boshqa ko'rinishlar ritmik takrori anglatadi. Ammo ritm hayotda va san'atda bir xil emas.

Tasvirdagi ritm kompozitsiyaning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u badiiy ijodning asosi hisoblanadi. Ritm — kompozitsiyada faqat tashkil etuvchi, mujassamlashtiruvchi bo'libgina qolmay, balki badiiy didning ham boshlanishidir. U orqali badiiy asar shoirona, musiqiy qilib yaratilishi mumkin. Shuningdek, ritm kompozitsiyada estetik va tashkiliy vazifani bajaradi. Aniqlik topilgan ritm orqali asarni yaxshi shakllantirish mumkin.

Ritm san'atning hamma turlarida mavjud. Qadimgi Sharq mamlakatlari kompozitsiyasida ritm tasvir shakllarining takrorlanishi ko'rinishida kelgan. Masalan: miniatura kompozitsiyasi tuzilishi ritm asosida bajarilgan. Shuningdek, o'simlik shakllardan tuzilgan naqshlar ham ritm orqali ishlanganligini ko'ramiz.

Kartina tekisligida ritm obrazli geometriyaning bo'limi sifatida ko'rib chiqiladi. Rangtasvirda ritm tushunchasi ikki o'lchamli kartinada ishlatilishi uchraydi. Chiziqli ritm bir yo'nalishdagi kattakichik shakllarning terilib joylashtirilishidadir. Ritm nafas olishimizda, dengiz qirg'og'iga kelayotgan to'lqin, daraxt shoxlarida barg shakllari ham bo'lishi mumkin. Dinamik ritm prujina kabi bir qismida energiya hosil qilsa, ikkinchi qismida biroz tinch holatni namoyon qiladi.

Leonardoning «Sirli oqshom» freskasida qiyofalar tuzilishi metrik joylashgan. Bir qator qo'yilgan uchlik qomatlar to'rt gruppni tashkil qiladi. Ikki chetdagi guruhlar o'rtasida Xristos qo'lini yoygan, hayron holatda tasvirlangan. Qiyofalar ritm asosida to'lqinlangandir. Kartinada ritm murakkabligi shundaki, u bir chiziq bo'lib qolmay, balki guruhlik tuzilishida hamdir. Chiziqli ritm kiyimlar burmalarida ham mavjud. Ularning yo'nalishi to'lqin ko'rinishida hosil bo'ladi. Burmalar inson holati harakatini ko'rsatadi. Botichellining «Bahor» kartinasida vertikal yo'nalishdagi

kiyim burmalari ham ritmik holatdir. Uch ayol qomatidagi kiyimlar qat-qat taxlari butun kartinani egallab olgan. Bularga kontrast qilib mayda gul va yaproq bezaklar aks ettirilgan. Chiziqlar ritmi qatorida kartina tekisligini qamrab olgan rang ritmi ham mavjud. Rassom mo'yqalamining harakati, ranglar ritmini hosil qiladi. Misol uchun shtrixlar bunga yorqin namunadir.

XIX asr rus san'atida kartina yuzasida ritmdan foydalanib asar yaratganlarini ko'rish mumkin. K.P. Bryulloving «Pompeyning so'nggi kuni»¹ kartinasida yorug' va qora dog'larning takrorlanishi ritm hosil qilib, asarni yaxlit ko'rishga imkon yaratadi. A.I. Kuinjning manzaralari klassik ritmga misoldir. V.I. Surikovning «Boyar ayol Morozova». Rafaelning «Afina maktabi» asarida birinchi plandan qomatlar ritm asosida uzoqlashgan sari kichrayib borishi makonda kuchli dinamik harakat hosil qiladi. Bunga oq va qora dog'lar chap va o'ng tomondan takrorlanib borishi orqali erishilgan (35, 43-rasmlar).

Savollar:

1. *Proporsiya (mutanosiblik) va masshtab (nisbat) nima?*
2. *Proporsiya (mutanosiblik) va masshtab (nisbat) qanday amalga oshiriladi?*
3. *Ritm nima?*
4. *Ritmni nimada ko'rish mumkin?*
5. *Ritm qanday amalga oshiriladi?*
6. *«Bahor» kartinasida nima ritmik holat?*
7. *«Pompeyning so'nggi kuni» kartinasida nima ritmik holatni aks ettiradi?*
8. *«Afina maktabi» asarida ritm nimaga asoslangan?*

¹ Klaus Reichold, Bernhard Graf. PAINTINGS that Changed the World.

XI BOB

11.1. Murakkab shakl va uni tashkil qilish usullari

Rassom, dizayner yoki me'mor nimani loyihalashtirmasinlar, juda ko'p hollarda ular bir butun universal vazifani — uning talab etilgan darajasida eng yaxshi yechim bilan yangi mukammal murakkab shaklni yaratishni hal etadilar. Agar bir turdagi murakkab shakllar guruhini yaratish, shuningdek, bu guruh shakllari uchun umumiy bo'lgan turlaridan foydalanish kerak bo'lsa, bu vazifani hal qilish ancha murakkablashadi.

Shakl hosil qilish kombinatsiyasi — turli xil joylashtirish, birlashtirish va kombinatsiyalash yo'li bilan ko'p marta takrorlanuvchi bir tipdagi cheklangan elementlardan iborat murakkab shakllar guruhini yaratish nazariyasi va uslubidir.

Aniq kombinator shakl va vazifalari yuzaga kelishida hal etiladigan eng muhim belgilari quyidagi asosiy guruh va turlarga birlashadi.

Zanjir tipidagi uzunchoq shakllar o'lchamli ko'chma simmetriyali — ixtiyoriy ritmdagi bixillashtirilgan shakl turlarining bir yoki minimal sonidan iborat.

Hoshiya tipidagi shakllar ko'chma simmetriyali va sirg'anma aks tasvirli va boshqa qo'shimcha simmetriyali ixtiyoriy ritmdagi bixillashtirilgan shakl turlarining bir yoki minimal sonidan iborat.

To'r tipidagi yo'l-yo'l nafis shakllar ikki o'lchamli ko'chma va boshqa turdagi simmetriyali bir o'lchamli bixillashtirilgan shakl turlarining bir yoki minimal miqdoridan iborat.

Parket (mozayka) va ornament tipidagi yassi tutash shakllar ikki o'lchamli ko'chma va boshqa turdagi simmetriyali bixillashtirilgan shakl turlarining bir yoki minimal miqdoridan iborat.

Shakllarning muntazamlilikdagi uch o'lchamli guruhi simmetriya vositasida qanday bo'lsa, assimetriya bilan xuddi shunday

o'zaro bog'lanuvchi turli o'lchamdagi birxillashtirilgan shakl turlarining cheklangan miqdoridan iborat.

Shakl — strukturalar bir turdagi, turli o'lchamdagi va murakkablikdagi hamda simmetriyaning turli xil vositasida tartibli tashkil etilgan shakldan tashkil topgan, tarkibi bo'yicha minimal murakkab shakllardan iborat. Bu turga kombinator shakllarning yuqorida aytilgan hamma geometrik guruh shakllari kirishi mumkin.

Kombinator shakllarning o'ziga xos guruhini umumiy to'plam birxillashtirilgan shakldan navbatma-navbat tashkil topgan bir xil kattalikdagi shakl va jismlar tashkil qiladi. Shakl hosil bo'lishining qat'iy geometrik qoidalari sababli bunda yaratiladigan murakkab shakllar soni ko'p hollarda nisbatan kam.

Vazifa aniqligi bo'yicha, rassom va dizayner real amaliyotida ko'proq tarqalganiga qarab shunday xarakterli kombinatsiyalangan vazifalarni aytish mumkin.

1. Parket tipidagi vazifa. Liniyaning mohiyatini, konstruksiya — badiiy yoki dekorativ qatlamdagi tutash yuzani hosil qilish uchun eng yaxshi shakl va turlari bo'yicha chegaralangan shakllar tashkil qiladi.

2. Kombinator ornament tipidagi vazifa (jumladan, mozaika-ornament). Me'morchilik, dizayn va amaliy san'at obyektlarida tutash yuzalarni naqshinkor shakl turlarining bir yoki cheklangan son vositasida eng rang-barang, simmetrik va original bezashning turli variantlarini yaratishdan iborat.

3. Zich hajmiy taxlam turidagi vazifaga rassomlik va dizaynerlikning uch o'lchamli obyektlarini loyihalash kiradi. Ular hajmiy shakllar asosida yaratiladi. Bu shakllar esa qo'shni elementlar bilan bog'liqligi yoki yaxlit, murakkab tuzilishdagi shakl hosil qilishi tufayli cheklangan bo'ladi.

Ikki o'lchamli kombinatsiyalangan shakl hosil qilish. Eng kam sonli guruhni tashkil qiluvchi bir xilli kombinator obyektlarga alohida murakkab shakllar yoki zanjir tipidagi shakllar guruhlari kiradi. Ularning ko'p marta takrorlanuvchi qismlarini tartibga solish faqat bitta o'q bo'ylab guruhlanadi. Ular har qanday o'lchamli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bir o'lchamli kombinatsiya

namunasi sifatida birxillashtirilgan qatorlari va bitta to'plamdan iborat shakli bo'yicha turlicha bo'lgan turli ko'rinishdagi to'plamni ko'rsatish mumkin. Ularga ilgari ta'riflangan turli uzunchoq shakl – strukturalar, shu jumladan, friz tipidagi kompozitsiyalar va zanjir, marjon, qirqoyoq gavdasi kabi ko'rinishdagi shakllar kiradi.

Bunday turdagi shakllar dekorativ va amaliy san'at elementlarida keng tarqalgan. Bular aslida turli xil to'siqlar, sanoat grafikasi va qadoqlashdagi tasmasimon ornamentlar, bagetlar, hoshiyalarning ba'zi turlari hisoblanadi.

Ikki o'lchamli kombinatsiyalangan shakl hosil qilishning umumiy belgilari, nuqtali matrisa bo'yicha to'r tipidagi vazifasi. Ikki o'lchamli – yassi va egri chiziqli kombinator shakllar kombinator obyektlarining tarkibi bo'yicha ikki ko'p sonli va xilma-xil guruhlardan birini tashkil qiladi. Ularga murakkab shakllar – yuzalar kiradi. Ular to'r, mozaika, parket, ornament, tipidagi ko'p simmetriyali shaklidir. Ularning ko'p marta takrorlanuvchi qismlari ikki ustunlik qiluvchi o'lchov – ko'chma simmetriya o'qlari bo'yicha bir me'yorda tartibli guruhlanadi va har qanday o'lchamda bo'lishi mumkin. Ikki o'lchamli kombinator shakllarga burilish vertikal o'qi atrofida simmetrik guruhlangan, bir turdagi takrorlanuvchi tekis qismlardan tashkil topgan ikki o'lchamli rozetka tipidagi shakl – strukturalar ham kiradi. Ko'pgina gultojilar, dengiz yulduzi tanasi, naqsh ishlangan laganchalar, ganchkor me'moriy – dekorativ rozetkalardir.

Ikki o'lchamli fazodagi shaklni tayanch nuqtalarining ba'zi tartibli sistemasi asosida hosil qilish mumkin bo'ladi.

Parket tipidagi eng yaxshi taxlam vazifasi. Cheklangan turdagi elementlardan iborat eng yaxshi taxlam vazifasini yechishda (yuza yoki hajm tashkil qilish holatlari uchun yoxud ular taqsimlanishi, bichilishi) uchta xarakterli vaziyat bo'lishi mumkin:

Zich taxlam – shakllarning berilgan turlarini shakllar orasida zich bo'lmagan tutashuvning hamma variantlariga nisbatan kichikroq tirqish bilan o'zaro joylashuvi (masalan: kvadrat, strukturaviy sxema bo'ylab bir xil aylanalardan iborat taxlam).

Tig'iz taxlam – shakllarning berilgan turlarini eng zich tutashuv va eng kichik tirqish bilan o'zaro joylashuvidan iborat.

Eng tig'iz (yoki umuman zich) taxlam — tekis va hajmiy geometrik shakllar turlari cheklangan sonining hech qanday tirqishsiz joylashuvidan qat'iy aniq ko'pburchaklardan yoki ko'pqirralilardan iborat taxlam. Masalan: parallelogrammlar, parallelepidlar. Ammo shunday taxlamni ham ko'pincha tig'iz, shuningdek, «fazoni to'g'ri taqsimlash» deb ataydilar.

Kombinatsiyalangan ornament tipidagi vazifa. Ikki o'lchamli tekislikdagi kombinator shakl hosil qilish turlaridan biri — yuzani kombinator ornamentlashdir. Har qanday ornament tartibli — simmetrik va umumiy holda yuzada uncha ko'p bo'lmagan, ko'p takrorlanuvchi naqsh elementlarining erkin joylashishi (zich birlashuvsiz) orqali tashkil bo'lgan murakkab shakllardan iborat bo'ladi.

Ornament, umumiy holda tipik shakl — struktura, kombinator shakllar turlaridan biri. Qachonki turli ornament guruhleri umumiy elementar naqshlar asosida tashkil bo'lar ekan, faol kombinator shakl o'shanda hosil qilinadi. Kombinator ornamentlar guruhini faqat bir turdagi assimetrik figura asosida ham yaratish mumkin. Bu murakkab naqsh shakli va oddiy shakl bo'lishi mumkin.

Ornamentlar uchun, shu jumladan, kombinator ornamentlar uchun qator xarakterli xususiyatlar xos. Birinchidan, ornamentlarning har birida tuganmas bir xildagi tartibli, naqshli yuza, asosiy elementlarning ma'lum bir minimal soni yoki naqsh fragmentlarini o'z ichiga olgan parallelogramm (qiyshiq parallelogramm, kvadrat, to'g'ri burchak yoki romb) turlaridan birining yordamida tashkil topgan bo'lishi mumkin. Ornamentlangan yuza — bu katakcha parallelogrammni yuzaning ikki asosiy o'lchamlarida uning tomonlariga parallel — ko'chma simmetriya o'qlariga, har bir tomon o'lchamiga teng masofa bilan ko'chirish orqali yuzaga keladi. Shu sababli aytish mumkinki, ornamentning hamma turiga ko'chma simmetriya xos. Har bir ornamentni esa katakcha — parallelogrammning «o'z» turi bilan alohida tarzda bezatilgan mozayka sifatida ham qarab chiqish mumkin. Ikkinchidan, hatto bir struktura — simmetriya turidagi ornamentlar variantlarining umumiy miqdori asosiy shakl hosil qiluvchi naqsh rasmlari va uni o'sha qurilish simmetriyasida joylashtirish usullarining cheksiz

xilma-xilligi tufayli juda ko'p xilda bo'lishi mumkin. Uchinchidan, butun yuzga naqshinkor qoplamasining simmetriya orqali yuzaga kelgan tekis va tartibligi butun ornamentning ma'lum simmetrik o'q atrofida burilishlar, aks tasvir, ko'chirish o'qlari bo'ylab transiyasiyalarda o'z-o'zi bilan to'liq qoplanishi kombinator ornamentlarning muhim struktura va estetik xususiyati hisoblanadi.

Tuzilish katakchalari geometriyasi ham va uning bezagi ham umumiy bo'lgan kombinator ornamentlar bo'lishi mumkin. Bu parket — ornamentlar, ularni yaratishda olingan dekorativ elementi tekislikdagi erkin simmetrik joylashtirishdan emas, o'zgarmas dekorativ to'ldirish hamda mazkur bezatilgan katakchani simmetriya kombinatsiyalari bilan uyg'unlashtirgan sifatida qabul qilishdan kelib chiqadi.

Bunday ornamentni bajarish uchun shakllarning har birini ketma-ketlikda yoki ko'chirib, elementini kvadrat, to'g'riburchak yoki parallelogramm ko'rinishida yuzaning ikkala o'lchamida ketma-ketlikdagi translatsiya (ko'chirib o'tqazish) ko'rinishida tayyorlaydilar. Bunda muvofiq keluvchi plastinka, plitkalarining to'plamidan (konstruksiya yoki qoplanayotgan yuzani yaratishda), valik — shtampdan (gulqog'oz, tekstil matolari, o'rov qog'ozi tayyorlaganda), trafaretdan (buyumlarning katta bo'lmagan guruhi uchun) foydalaniladi.

Bunday ornamental shakllarga, elementar tasviriy va hech qanday tirqishsiz yuzani to'ldiradigan murakkab tuzilishdagi, yorqin bezatilgan shakl turlarining cheklangan miqdorida bajarilgan ornament kiradi.

Juda ko'p amaliy qo'l mehnati buyumlarida ornament texnologik, konstruksiya va boshqa xususiyatlarni (masalan: mato va bo'yralar to'qilishi shaklida, tosh taxlami choklarida, kulolchilik buyumlaridagi plastik naqshlarda) badiiy ifodalaydi. Bunday hollarda haqqoniy ravishda strukturaviy deb ataladi va aslini olganda arxitektonik hisoblanadi.

Dekorativ — amaliy san'at va me'morchilik asarlarining ko'pgina go'zal ornamental kompozitsiyalari ma'lum. Ularda shakllar kombinatsiyasi qonunlaridan foydalanilgan. Boshqa elementlar va variantli standart guruhlari qatorida zargarlik ornamentlari,

an'anaviy gilamdo'zlik naqshlari, O'rta Osiyoning mashhur ko'p variantli me'moriy naqshlarini ham ko'rsatish mumkin (48 b-rasm).

11.2. Simmetriya, assimmetriya va ularning kombinatsiyasi

Estetikada simmetriya deganda (grekchada «simmetria» — mutanosiblik) bir butunning alohida bo'laklarining fazoda uyg'un joylashuvi, mutanosibligi va ular orasidagi muvofiqlik tushuniladi.

Simmetriyaning aks tasvir, markaziy, tekislik va o'qli kabi oddiy turlaridan anchasi ma'lum. Lekin ular badiiy konstruksiyalash amaliyotida kamdan kam qo'llaniladi.

Shakl yaxlitligining asosiy sharti uning ko'rinishdan kompozitsion muvozanatlashganligidir.

Shakl dinamikligi va statikligi. Shakl dinamikligi uning bir yo'nalishli shakl yaratuvchi qismlari munosabatlarining kontrastida namoyon bo'ladi (32-rasmga qarang).

Aynan o'xshash bo'lgan munosabatlarda shakl — statik. Bu munosabatlarni biz faqat gorizontal o'q bo'yicha baholaymiz.

Gorizontal joylashgan konus dinamik figura namunasi bo'la oladi. U xuddi chapga harakat qilayotganday ko'rinadi. Agar to'g'ri burchak noteng bo'laklarga bo'linsa, hatto unga ham dinamiklik berish mumkin. Qismlar munosabatida qanchalik progressiya, ya'ni o'sish yoki kamayish ahamiyatli bo'lsa, shakl shunchalik dinamik bo'lib tuyuladi. Agar konus vertikal qo'yilsa, uning dinamikligi yo'qoladi. Gorizontal bo'yicha shaklning teng bo'laklarga bo'linishi uning statikligini kuchliroq namoyon qiladi. Agar shakl simmetrik bo'laklarning notekis bo'linishi uning simmetriya o'qiga yo'naltirilgan bo'lsa, shakl keskin statik holda bo'ladi.

Shakl xarakteri birligi — kompozitsiyaning muhim xususiyati hisoblanadi. U bilan berilgan shaklning hamma elementlari shakl qurilishiga bo'lgan yagona yondashuv bilan belgilanadi (49-rasmlar).

Transformatsiya — predmet shaklining o'zgarishi. Demak, uni zarur tomonga o'zgartirish alohida qismlari o'lchamida yumaloq-

lashtirish, choʻzish, kattalashtirish yoki qirradorligini namoyon qilib oʻzgartirish mumkin. Odatda, shakl ustida ishlashda stilizatsiya va transformatsiyani bir vaqtda qoʻllaydilar. Bu usul boshqasini toʻldiradi va asosiy plastik mavzu (gʻoya)ni rivojlantiradi. Lekin obrazni his qilish va uni ifoda etuvchi shaklni yaratish hali yetarli emas.

Muhimi, u tomoshabinga qanday taʼsir koʻrsatishini inobatga olish. Maʼlum boʻlishicha, har qaysi shakl yaxlit holda qanday boʻlsa, uning detallari ham xuddi shunday turiicha idrok qilinadi. Silueti boʻyicha oddiyrogʻi tezroq, murakkabi uzoqroq oʻqiladi, ammo yaratilgan obraz teranligi bunga bogʻliq emas.

Masalan: katta ochilgan barmoqli qoʻl siluetini bir-biriga siqilgan qoʻlga qaraganda osonroq tanish mumkin. Garchi dogʻ shakli ikkinchi holda soddaroq, ammo kam ifodali boʻladi. Shakl ifodaviyligi topilgan siluetga bogʻliq. Shunda dogʻ, chiziq yoki kontur bilan ifodalangan siluet ustida ishlash asar yaratishning muhim bosqichlaridan biridir. Siluet ustida ishlash jarayonida ravshan boʻladiki, bu narsa obrazni yechishda tasodifiy hamda tipik xarakterli. Siluetni och rangli fonda toʻq dogʻ bilan hal qilish mumkin yoki aksincha, toʻq fonda och rangli dogʻ bilan ham shunday natijaga erishiladi. Shaklni oʻqish uchun kontrast majburiy boʻlib, u koloritda, rangda, fakturada ifodalanishi bilan namoyon qilinishi mumkin. Lekin ularning oʻqilishi va ahamiyati bir xil emas. Masalan: toʻq fondagi oq siluet tomoshabinga faolroq taʼsir etadi, esda qoladiganroq boʻlib chiqadi. Toʻq dogʻ bilan hal etilgan siluetdan farqli, oq yoki och siluyet umumiyashtiruvchi, kam detalli boʻlishi kerak. Topilgan qora dogʻ, agar maʼlum obrazni yaratish uchun asosiy koloritni oʻzgartirish zarur boʻlsa, imkoni bericha, toʻgʻrilashni taqozo etadi.

Shuning uchun hajmiy shakl ifodaviyligi ustida ishlab, uning idrok qilinishini unutmazlik kerak. Hajm tomoshabinga kuchliroq taʼsir etadi.

Savollar:

1. *Shakl hosil qilish kombinatsiyasi nima?*
2. *Kombinator shaklning muhim belgilari qanday?*

3. *Kombinator ornamentlar uchun nima xarakterli?*
4. *Amaliy san'at va me'morchilikda nimadan foydalanilgan?*
5. *Friz tipidagi kombinatsiyaga nimalar kiradi?*
6. *Eстетikada simmetriya deganda nima tushuniladi?*
7. *Shakl dinamikligi va statikligi nimada namoyon bo'ladi?*
8. *Transformatsiya nima?*

12.3. AMALIY VAZIFALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

1-vazifa.

Uch shaklni — teng yonli uchburchak, aylana va kvadratni tekislik markaziga joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: shakl va fon tushunchalarini mustahkamlash, mutanosiblik hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15X15 sm to'rtburchak tekislikka chizish uslubi bilan (qora rangda) teng yonli uchburchak, kvadrat va aylana ishlanaadi.

2-vazifa.

Uch obyektini — rangli teng yonli uchburchak, doira va kvadratni tekislik markaziga joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: shakl va fon tushunchalarini mustahkamlash, mutanosiblik hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15X15 sm to'rtburchak tekislikka applikasiya uslubi bilan (har xil rangli qog'oz kesiladi) teng yonli uchburchak, aylana va kvadrat yopishtiriladi.

3-vazifa.

Simmetriya shaklini tekislik markaziga joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: Simmetriya tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15X15 sm tekislikka applikasiya uslubi bilan simmetriya shakli yopishtiriladi yoki qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

4-vazifa.

Assimmetriya shaklini tekislik markaziga joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: Assimmetriya tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikka applikatsiya uslubi bilan assimmetriya shakli yopishtiriladi yoki qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

5-vazifa.

Ritm shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: Ritm tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x30 yoki 10x40 sm tekislikda ritm hosil qiluvchi shaklni rangda yoki qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

6-vazifa.

Dinamika (harakat) shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: dinamika (harakat) tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda dinamika (harakat) hosil qiluvchi shaklni rangda yoki qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

7-vazifa.

Statika (tinch, turg'unlik) shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: Statika (tinch, turg'unlik) tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda statika (tinch, turg'unlik) hosil qiluvchi shaklni qorada yoki rangda yoki qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

8-vazifa.

Rangda yoki oq-qorada kontrast shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: kontrast tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda kontrast hosil qiluvchi shaklni qorada yoki rangda bajarish.

9-vazifa.

Muvozanat shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: muvozanat tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda muvozanat hosil qiluvchi shaklni qorada yoki rangda bajarish.

10-vazifa.

Masshtab shaklini tekislikda hosil qilish.

Vazifaning maqsadi: masshtab tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda masshtab hosil qiluvchi shaklni qorada yoki rangda bajarish.

11-vazifa.

Kompozitsiya markazi hosil qiluvchi shaklni tekislikda bajarish.

Vazifaning maqsadi: Kompozitsiya markazi tushunchasi hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda kompozitsiya markazi hosil qiluvchi shaklni qorada yoki rangda bajarish.

12-vazifa.

Shaklning tekislikdagi stilizatsiyasini bajarish.

Vazifaning maqsadi: stilizatsiya hissini rivojlantirish va mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm tekislikda stilizatsiya shaklni qorada yoki rangda bajarish.

13-vazifa.

Dog' yordamida qoramtir, o'rtacha qoramtir, yorqin – uchta bir-biri bilan kesishuvchi tekisliklardan iborat kompozitsiyani joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: nyuans tushunchasini mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10, 15x15 sm li kartochkada qora gelli ruchkadan foydalanish.

14-vazifa.

Hissiyotlarning grafik ifodasi, quvonchni ifodalovchi kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: abstrakt fikrlash va koʻz bilan chamalashni, muvozanat hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10, 15x15 sm li kartochkada qora gelli ruchkadan foydalanish.

15-vazifa.

Chiziq xususiyatidan foydalangan holda chuqurlashgan kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: abstrakt fikrlash va koʻz bilan chamalashni, muvozanat hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10, 15x15 sm li kartochkada, qora gelli ruchkadan foydalanish.

16-vazifa.

Chiziqlar yordamida qoramtir, oʻrtacha qoramtir, yorqin — uchta bir-biri bilan kesishuvchi tekisliklardan iborat kompozitsiyani joylashtirish.

Vazifaning maqsadi: nyuans tushunchasini mustahkamlash.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10, 15x15 sm li kartochkada qora gelli ruchkadan foydalanish.

17-vazifa.

Optik illyuziyalar (koʻzni chalgʻituvchi sarob farazlar).

Vazifaning maqsadi: abstrakt fikrlash va koʻz bilan chamalashni, muvozanat hissini rivojlantirish.

Vazifani bajarish metodikasi: 10x10 yoki 15x15 sm li tekislikda qora gelli ruchkadan foydalanib bajarish.

Kompozitsiya asoslari bo'yicha amaliy vazifalarga uslubiy ko'rsatmalar

1-vazifa.

Turli gabarit o'lchamdagi oddiy geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: oddiy geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya uyg'unligini o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: qog'oz yoki kartonga (boshqa materiallarni qo'llash ham mumkin) oddiy geometrik figuralar yelimlanadi.

Bu elementlar o'lchami jihatidan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Unda kompozitsiyaning hamma qonunlarini qo'llagan holda, frontal kompozitsiya bajariladi.

U simmetrik yoki assimmetrik, dinamik yoki statik bo'lishi mumkin.

Tomoshabin tomonidan frontal (olddan) idrok qilinadigan va yon tomondan ko'rishni talab qilmaydigan tekislik kompozitsiyasini yaratish vazifasi bajariladi.

2-vazifa.

Turli gabarit o'lchamli murakkab geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: murakkab geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya uyg'unligini o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: qog'oz yoki kartondan murakkab geometrik figuralar uchun foydalanadi. Bu elementlar o'lcham jihatidan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Undan kompozitsiyaning hamma qonunlarini qo'llagan holda frontal kompozitsiya bajariladi.

U kontrast, ritmik, simmetrik yoki assimmetrik, dinamik yoki statik bo'lishi mumkin.

Tomoshabin tomonidan frontal idrok qilinadigan va yon tomondan ko'rinishni talab qilmaydigan tekis kompozitsiya yaratish vazifasi bajariladi.

3-vazifa.

Turli gabarit o'lchamdagi oddiy geometrik elementlardan iborat chuqurlashgan fazoviy kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: oddiy geometrik elementlardan iborat chuqurlashgan fazoviy kompozitsiya uyg'unligini o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: qog'oz yoki kartonga (boshqa materiallarni qo'llash ham mumkin) oddiy geometrik figuralar yelimlanadi. Bu elementlar o'lcham jihatidan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Unda kompozitsiyaning hamma qonunlarini qo'llagan holda chuqurlashgan fazoviy kompozitsiya bajariladi. U simmetrik yoki assimmetrik, dinamik yoki statik bo'lishi mumkin.

Tomoshabin tomonidan fazo, chuqurlik, perspektivani ko'rsatish vazifasi bajariladi.

4-vazifa.

Bir-biriga kontrast turli gabarit o'lchamli oddiy geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya yaratish.

Vazifa maqsadi: bir-biriga kontrast geometrik elementlardan iborat frontal kompozitsiya uyg'unligini o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: qog'oz yoki kartonga oddiy kontrast geometrik figuralar yelimlanadi. Bu elementlar o'lchami jihatidan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Unda kompozitsiyaning hamma qonunlarini qo'llagan holda frontal kompozitsiya bajariladi. U simmetrik yoki assimmetrik, dinamik yoki statik bo'lishi mumkin.

Tomoshabinga frontal (olddan) idrok qilinadigan tekislikdagi kompozitsiyasini yaratish vazifasi topshiriladi.

5-vazifa.

Bir-biriga kontrast, turli o'lchamli, oddiy rangli geometrik elementlardan iborat kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: bir-biriga kontrast geometrik elementlardan iborat kompozitsiya uyg'unligini o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: qog'oz yoki kartonga oddiy kontrast geometrik rangli figuralar yelimlanadi. Bu elementlar

o'lchami jihatidan bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Unda kompozitsiyaning hamma qonunlarini qo'llagan holda kompozitsiya bajariadi.

U simmetrik yoki assimmetrik, dinamik yoki statik, ritmik bo'lishi mumkin.

6-vazifa.

Bir o'simlik, hayvon yoki har qanday boshqa element stilizatsiyasining bosqichini yaratish.

Qayirish usulidan foydalanib, 6 ta ornamental kompozitsiya yaratish.

70x50 sm li planshetda gilam ornamentini yaratish.

Vazifaning maqsadi: sekin-asta murakkablashish yoki soddalashtirish usulidan foydalanib, stilizatsiyalangan (o'xshatilgan) elementlar yaratish.

Eng muvaffaqiyatli stilizatsiyalangan elementdan grafik kompozitsiyalar yaratishni o'rganish. Rang yoki fondan foydalanib, hosil bo'lgan grafik kompozitsiyani planshetda to'g'ri joylashtirishni o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: A-3 formatdagi qattiq qog'oz yoki kartonning listida stilizatsiyaning yuqori bosqichi joylashtiriladi. Grafik kompozitsiya 50x70 sm li planshetda joylashtiriladi.

7-vazifa.

5 geometrik figuraga (aylana, oval, kvadrat, to'g'riburchak, uchburchak) ixtiyoriy obyektini kiritish.

Vazifaning maqsadi: har qanday predmet obyektini to'g'ri joylashtira olish.

Vazifani bajarish metodikasi: A-3 formatdagi qattiq qog'oz yoki kartonning listida kiritilgan obyektlarni besh geometrik figura (aylana, oval, kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak) joylashtiriladi va bo'yaladi.

8-vazifa.

Turli figuralardan foydalanib, badiiy kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: imitatsiya (o'xshatib ishlash)ning turli usullari yordamida 5 ta turli-tuman (yog'och, tosh, teri, plast-massa, metall, mato)materiallar fakturasini yaratishni o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: A-3 formatdagi qattiq qog'oz yoki kartonning listida turli-tuman materiallning fakturalar kompozitsiyasini 10x10, 15x15 sm. tekislikda yaratib, planshetga joylashtiriladi.

9-vazifa.

Turli ranglardan (monotipiya usulida) foydalanib, badiiy kompozitsiya yaratish.

Vazifaning maqsadi: monotipiya turli usullari yordamida turli-tuman kompozitsiyalar yaratishni o'rganish.

Vazifani bajarish metodikasi: A-3 formatdagi qattiq qog'oz yoki kartonning listida rangli turli-tuman kompozitsiyasini 10x10, 15x15 sm tekislikda yaratib planshetga joylashtiriladi.

AMALIY TAVSIYA VA ILOVALAR

Qog'oz tanlash. Bajarilayotgan ishga qarab qog'oz tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki qog'oz turlari har xil bo'lib, har xil maqsadlarga mo'ljallangan.

Masalan: qalam tush, akvarel bo'yoq boshqa ishlar uchun ham mo'ljallangan.

Akvarel bo'yoqda ishlashga chizmachilik uchun vatman, yarim vatman va torshon qog'ozlari o'rinlidir. Ana shunday qog'ozlarda qilcho p (kist) bilan ishlash qulaydir.

Torshon qog'ozlari silliq qog'ozga nisbatan akvarel bo'yog'ini yaxshi ushlaydi va yorug'lik tushishiga qarab ranglar tovlanib turadi. Silliq qog'ozga bo'yoq tekis joylashadi va deyarli jilolanish yoki tusini o'zgartirish kam bo'ladi.

Qog'oz tasvir xarakteriga qarab to'g'ri tanlanishi lozim.

Akvarel bo'yoqda ishlash uchun keng tarqalgan qog'oz bu chizmachilik qog'ozidir.

Qog'ozlar sifati va vazifasiga qarab, tubandagi markalarda ishlab chiqariladi:

V — badiiy ishlar ko'rgazmasi uchun.

F — gravyura tayyorlash va tushda ishlash uchun

A — akvarel bo'yoqda ishlash uchun

O — umumiy ishlar uchun

Qog'ozlar rulonlarda va bo'lakchalarga qirqilgan hollarda (210x297; 240x287; 420x594; 594x841; 640x878 millimetrlarda) ishlab chiqariladi.

Rulon qog'ozlari buyurtmachi va ishlab chiqaruvchi bilan kelishilgan holda g'adir-budirli yoki silliq ishlab chiqarilishi mumkin.

Chizmachilik qog'ozidan tashqari, eskiz qog'ozini ishlab chiqarilib akvarel bo'yoqda, qalamda va ko'mir qalamda ham ishlash mumkin.

Eskiz qog'ozini chizmachilik qog'oziga o'xshash bo'lib, 130x190 va 190x270 millimetr o'lchamlarida tayyorlanadi.

Qog'ozlarga qo'yilgan talablar.

Akvarel bo'yog'ida rangtasvir ishlash uchun qog'ozga asosiy talablar:

1. Suvlangan qog'oz quriganidan keyin deformatsiya bo'lmasdan tekis holatga kelishi kerak.

2. Akvarel bo'yog' bilan ishlashda qog'oz tekisligida begona dog'lar paydo bo'lmasligi kerak.

3. Bir necha marta suv bilan yuvilgan qog'oz erib ketmasligi va g'adir-budur tekislik hosil bo'lmasligi, shuningdek, asl ko'rinishini saqlab qolishi lozim.

4. Bo'yog' qatlami oson yuvilishi va chuqur iz qoldirmasligi kerak.

5. Qog'oz rangi oppoq bo'lib, o'z rangini ko'p o'zgartirmasligi kerak.

6. Akvarel bo'yog'i qog'ozning yuza qismida yengil joylashishi.

7. Qog'oz yuzasi yaltiroq bo'lmasligi; mayda donachalik, o'rta donachalik, yirik donachalik yoki silliq tekislikda bo'lishi lozim.

8. Qalam izlarini o'chirg'ich bilan o'chirganda qog'oz titilmasligi kerak.

BO'YOQLAR TO'PLAMI

◆ Akvarel bo'yoqlar to'plami

1. Kadmiy limonniy (limon tusli sariq bo'yoq)
2. Kadmiy jyoltiy (yorqin tusli sariq bo'yoq)
3. Oxra svetlaya (och mallarang)
4. Siyena naturalnaya (to'q mallarang)
5. Zolotisto — jyoltaya JK (oltin tusli sariq)
6. Kadmiy oranjeviy (yorqin tusli zarg'aldoq rang)
7. Oxra krasnaya (qizg'ish temirrang)
8. Siyena jyyonaya (yer rangiga o'xshash rang)
9. Jeleznaya krasnaya (qizg'ish temirrang)
10. Alaya (alvon rang)
11. Kraplak krasniy (yorqin qirmizi rang)
12. Karmin (yorqin qizilrang)
13. Kraplak fioletoviy (binafsha tusli qirmizi)
14. Ultramarin (zangori rang)
15. Kobalt siniy (to'q havorang)
16. Golubaya FS (nilobi rang)
17. Izumrudno — zelyonaya (to'q yashil rang)
18. Permanent zelyoniy (yashil rangning bir turi)
19. Travyanaya zelyonaya (ko'katsimon yashil)
20. Umbra naturalnaya (mosh rangiga o'xshash jigarrang)
21. Mars korichneviy (jigarrangning bir turi)
22. Umbra jyyonaya (moshrang)
23. Sepiya (yer rangiga o'xshash rang)
24. Neytralnaya chyornaya (tim qora rang)

Akvarel bo'yog'i plastmassa qutichada chiqarilgan bo'lib, to'plamda 24 ta rang bor. Quticha ustida ikkita qizil yulduzcha bo'lsa, u yorug'likka o'ta chidamlidir. (5 ball). Ikkita qora yulduzchaligi yorug'likka chidamliligi o'rtacha (3 ball) deb belgilangan.

Shuningdek, «Neva» va «Malyutka» nomida ham ishlab chiqariladi.

To'plamlar:

- N 1 – to'plamda 24 yoki 30 bo'yoq
- N 2 – to'plamda 16 bo'yoq (metall qutichada)
- N 10 – to'plami 24 bo'yoq
- N 11 – to'plami 14 bo'yoq
- N 51 – to'plami 30 bo'yoq
- N 51 A – to'plami 30 bo'yoq
- N 3 – to'plami «Neva» akvarel bo'yog'i 16 bo'yoq
- N 4 – to'plami 12 bo'yoq
- N 31 – to'plami 16 bo'yoq
- N 31 A – to'plami 16 bo'yoq

«Neva» bo'yog'i yarimsiroq pasta bo'lib tuba (qo'rg'oshin tuba) ga joylashtirilgan.

♦ **N 4 «Chyornaya rechka», «Neva» to'plami**

1. Limonnaya jyol'tiy (limon tusli sariq)
2. Oxra jyol'tiy (yorqin limonrang)
3. Oranjevo – jyoltaya (och qovoqrang)
4. Oxra – krasnaya (qizg'ish malla rang)
5. Krasno – rozovaya (och qizil rang)
6. Ultramorin (zangori rang)
7. Golubaya (nilobi rang)
8. Izumrudno – zelyonaya (yorqin, to'q, yashil)
9. Zelyonaya (yashil)
10. Umbra naturalnaya (mosh rangiga o'xshagan jigarrang)
11. Krasno – korichnavaya (qizg'ish jigarrang)
12. Neytralno – chyornaya (tim qora)

Shuningdek, «Gamma», «Master klass» guash to'plami ham mavjud.

Yorug'likka chidamliligi yulduzchalar bilan belgilangan:

Uch yulduz – yorug'likka chidamli

Ikki yulduz – yorug'likka o'rtacha chidamli

Bitta yulduz – yorug'likka kam chidamli

Saqlash muddati bir yil.



1 a-rasm



1 b-rasm




15 a-rasm




26 a-rasm




29 b-rasm



7 b-rasm




17 d-rasm



24 a-rasm

28-rasm



7 v-rasm



49-31-rasm



30 e-rasm



34 e-rasm



2-rasm




3-rasm



4-rasm




5-rasm



5 a-rasm




6-rasm




7-rasm



7 a-rasm




9 a-rasm




1-rasm, a) 1 – shox parda; 2 – qorachiqdar

b) 1 – koʻrish nervlari; 2 – koʻk dogʻ; 3 – tomirli qobiq; 4 – sariq dogʻ;
 5 – shishasimon tana; 6 – oqsil parda; 7 – yoy parda; 8 – gavhar;
 9 – shox parda




Diafragma

8 a-rasm



9 b-rasm



9 v-rasm



9 g-rasm



10 a-rasm



10 b-rasm



10 v-rasm




10 g-rasm



10 d-rasm



11-rasm



10 e-rasm



12 a-rasm



12 b-rasm



12 g-rasm



14 a-rasm



13-rasm



14 b-rasm




15-rasm




16-rasm

Rang va zid rang Rang va zid rang



17 a-rasm




17 b-rasm



17 v-rasm



17 g-rasm



18 a-rasm


18 b-rasm



20-rasm



30 e-rasm




21 g-d-rasm

21 v-rasm



22-rasm



23-rasm



24 b-rasm



26 b-rasm



27-rasm



28 a-rasm



28 g-rasm




28-rasm



29 d-rasm



29 g-rasm



29 a-rasm



29 b-rasm



30 b-rasm



28 a-rasm




30 g-rasm




30 j-rasm




30 d-rasm




31-rasm



31 b-rasm




d



c



b



a



31 a-rasm




32 b-rasm




31 v-rasm



32 a-rasm



32 b-rasm




32 e-rasm



32 d-rasm



32 g-rasm




32 g-rasm




32 d-rasm



34 a-rasm



34 b-rasm




34 v-rasm



34 g-rasm




34 d-rasm



34 e-rasm



34 j-rasm



34 z-rasm



35 a-rasm



35 b-rasm




36 a-rasm



36 b-rasm




37 1-rasm



37 2-rasm



37 3-rasm



37 4-rasm



37 5-rasm



37 6-rasm



37 7-rasm



37 8-rasm



37 9-rasm




37 10-rasm




37 11-rasm



37 12-rasm



37 13-rasm



37 14-rasm



37 15-rasm



37 1-b-rasm



37 a-rasm



37 b-rasm



37 v-rasm



37 g-rasm



37 gg-rasm



38 a-rasm



38 b-rasm



41-rasm



42 a-rasm




42 b-rasm



41 3-rasm



43-rasm




45 a-rasm



44-rasm



45 b-rasm



45 v-rasm



45 g-rasm



45 d-rasm




45 e-rasm



46 a-rasm




46 b-rasm




47-rasm



48 a-rasm



48 b-rasm




49 1-rasm



49 2-rasm



49 3-rasm



49 4-rasm



49 5-rasm



49 6-rasm



49 8-rasm




49 7-rasm



49 9-rasm



49 10-rasm




49 11-rasm



49 12-rasm





49 13-rasm



49 14-rasm



49 15-rasm



49 16-rasm



49 17-rasm



49 19-rasm



49 18-rasm



49 20-rasm



49 21-rasm




49 22-rasm




49 23-rasm




49 24-rasm




49 25-rasm



49 26-rasm




49 28-rasm



34 4-rasm



49 29-rasm



49 30-rasm



40-rasm

GLOSSARIY

Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati

Avtoportret (*grekcha so'zdan. Outos – o'zim*) – rassom o'zini-o'zi tasvirlagan portret. Bu holda rassom ham, tasvirdagi shaxs ham bir kishining o'zidir.

Aksent (*lotincha so'zdan. Accentus – urg'u*) – tasviriy san'atda rang, tus, chiziq yoki buyumlar yordamida urg'u berishdir.

Alla prima (italyan so'zidan. Alla – prima – biryo'la, bir ishlashda) – nafis tasviriy san'atda ishlatiladigan usul. Kartina (asar) oldindan qo'shimcha tayyorgarliksiz, ya'ni bir seansda tugallangan.

Abris – chegara chiziq.

Abstraksionizm – mavhum san'at asarlarini o'z ichiga olgan badiiy yo'nalish.

Akademizm – akademik uslubga oid badiiy yo'nalish.

Akvarel – (*fransuzcha so'zdan. Aquarelle – aqua – suv*) – suvda tez eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq. Akvarel tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik. Oq bo'yoq sifatida ko'pincha qog'oz zamini saqlanadi.

Antik san'at – qadimgi degan ma'noni bildiradi. Taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

Blik – (nemis so'zidan Blik – qarash. boqish) – yorug' – soya elementi. Yoritilgan buyumning eng yaltiroq joyi, ayniqsa, yaltiroq jismda. Yoritilgan qismdagi umumiy tusga nisbatan eng yorug', yaltiroq, yoriqroq qismidir.

Badiiy – borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o'zaro o'xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

Badiy sikl – biror davr, tarixiy bosqich, sanat, me'morchilik, dizayn asarlarida ma'lum siklining xarakterli jihatlarini namoyon bo'ladigan uslub.

Vatman – rassomchilik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog'oz.

Variant – (*lotin so'zidan – o'zgaruvchan*) – san'at asarining muallif tomonidan takrorlanishi. Shuningdek. kompozitsiya, kartina rang yechimiga, qomat harakatiga, qo'l harakatiga o'zgarish kiritish. Sujetli kompozitsiyada ma'no (tema) ni saqlagan holda tasvirlarning o'zgarigan holati.

Garmoniya – (*grekcha so'z bo'lib, harmonia – xushbichim, umumiylik, qismlari (bo'laklari) kelishgan*) – tasviriy san'atda tasvirlanayotgan buyum shakli yoki rangning o'zaro umumiyligi, xushbichimligi.

Grafika — (*grekcha so'zdan olingan bo'lib, graphikos — chiziq, chizilgan*) — tasviriy san'atning bir turi. Rangtasvirga nisbatan kam rang ishlatilib, asosan oq va qora kontrast ranglar, chiziq va shtrixlar xarakterlidir. Grafikaga chizmatasvir, gravyura, litografiya kabi bosma tasvir turlari kiradi.

Grizayl — (*fransuzcha — gris — kulrang*) — bir xil rangda mo'yoqalam yordamida bajarilgan tasviriy asar. Oq va qora rangda tusi bilan farq qiladigan usulda ishlangan turi.

Dinamika — hajm element yoki elementlarning ma'lum bir yo'nalishda kompozitsion rivojlanib borishini, ya'ni vizual harakatini ifodalovchi me'moriy yoki ornamental yechim.

Yorqin kontrast — qo'shni ranglar ta'sirida rang yorqinligi o'zgarishi.

Janr — (*fransuzcha — genze — tur*) — tasviriy san'atda mavzu o'xshashligini birlashtiruvchi tushuncha. Rangtasvirda: natyurmort, interer, peyzaj, portret, sujetli kartina (maishiy, tarixiy) turlaridir.

Jivopis — (*rangtasvir*) — tasviriy san'atning yetakchi turidan biri. Nafis tasviriy san'at xolst, karton, qog'oz va boshqalar sath tekisligida bo'yoqlarda bajariladi.

Rangtasvirda: suvli bo'yoq — akvarel, moybo'yoq, tempera, enkaustika, pastel — quruq bo'yoq, guash kabi ashyolar (bo'yoqlar) ishlatiladi.

Interer — (*fransuzcha — interieur — ichki, ichkaridagi*) — ichki ko'rinish, binoning ichki xonalari ko'rinishi va uning tasviriy sa'atda tasvirlanishi. Shuningdek, xona, bino ichidagi narsalar, buyumlar, devorlarning (mozayka, freska, naqsh, matolar bilan) ko'rinishi.

Iliq gamma — sariq, to'q sarg'ish — qizil va ularning oraliq holatlari.

Kartina — (*rasm, surat*) — alohida belgilangan nafis tasviriy san'at asari. Rasm (kartina) har xil janrda bo'lishi mumkin. Etyudga nisbatan borliqni (naturani) puxta o'ylangan va puxta ishlangan, tugatilgan, detallari va shakllari mohirlik bilan aks ettirilgan ko'rinishidir.

Kolorit — (*lotincha — color — rang, bo'yoq*) — san'at asarining alohida rang va tus tuzilishidir. Koloritda real borliq (natura)ning tabiiy ranglarini alohida maqsadli ajratib, badiiy obrazli bo'yoqlarda aks ettirish. Ranglar majmuasi va rang go'zalligi nisbatlari. Issiq va sovuq, yorqin, qizg'ish, moviy kabi gammalarda bo'lishi mumkin. Asar insonda ruhiy va badiiy obraz xissiyotini uyg'otishi mumkin.

Kompozitsiya — (*lotincha — compositio — tuzish, bog'lash, bayon qilish*) — 1) asar qurilmasida qismlarini ma'no — mazmunga bog'lash, bo'ysundirish, shakllantirish.

2) *Kompozitsiya* — badiiy obraz yaratish vositasi va izlanish yo‘llari. Rassom fikrini amalga oshirishni izlashi. Tema mazmuni (sujetni) ochib berishda rassom tomonidan izlanish olib borishidir. Kompozitsiya ustida ishlash g‘oya tug‘ilgandan boshlab asar tugallanguncha davom ettiriladi. Bunda rassom tanlagan mavzusi asosida sujet ustida ish olib boradi.

Kompozitsiya tuzish jarayonida tasvirdagi narsalarni, buyumlarni, odam qiyofalarini kartina tekisligi (rangtasvirda xolst, grafikada qog‘oz) da maqsadga muvofiq badiiy joylashtiradi, tasvirlaydi. Bunga shuningdek asar markazi, yechimi, ikkinchi darajali narsalarni joylash nazarda tutiladi. Rang va rang kontrastlari, siluet, yorug‘ va soyalar ham aniqlanadi. Kompozitsiya ishlashda naturaning perspektiva qurilishi, masshtab va nisbatlari (praporsiya), tus va rang echimi ham muhim.

Kontrast (*fransuzcha — contraste — keskin farq, qarama-qarshilik*) — tasviriy san‘atda qarama-qarshi qo‘yilgan tus, rang, shakl, qiyofa nazarda tutiladi. Masalan: oq-qora, yorug‘-soya, qizil-ko‘k, to‘g‘ri-egri, issiq-sovuq va boshqa kontrastlar. Kontrast tus yoki rang kompozitsiyada badiiylilik obrazini kuchaytiradi, asosiy qismini ta‘sirchanligini yanada oshiradi.

Korpusli rangtasvir — rang (bo‘yoq) qalin, quyuq. Deyarlik relyefli usulda bajarilgan nafis tasviriy san‘at asari.

Komponovka (*ingl. comono — «tashkil qilaman»*) — turli elementlarning bir-biriga nisbatan eng yaxshi joylashuvi. qog‘oz varag‘i yuzasi turli shakl, faktura, rangning tasviriy yuzasi sifatida ifodaviy vositalarga ega.

Kompozision muvozanat — kompozitsiyaning hamma elementlari o‘zaro muvozanatlashgan holat.

Kombinatorika — birxillashtirilgan va bir ayecha marta takrorlangan elementlarni turli fazoviy kombinatsiyada joylashtirish va birlashtirish yo‘li bilan murakkab shakllar hosil qilish.

Karton — qog‘oz turi, rangtasvir asarning qoralamasi, qalam yoki ko‘mir, qalamda ishlangan nusxasi.

Kontur — chegara, chiziq.

Kopiya — nusxa, ko‘chirma.

Kraplak — bo‘yoq turi, qizil lavlagi rangiga yaqin rang.

Kulrang — oq va qora rangdan hosil bo‘lgan rang turi.

Uyg‘unlashgan munosabat — ranglarning bir-biriga nisbatan eng yaxshi munosabatlari tanlovi, rang sintezini topish.

Lessirovka — (*nemischa — laisiren — suyuq bo‘yoqda xolst tekisligi yuzini engil bo‘yash*) — tiniq, o‘ta ko‘rinadigan bo‘yoq foydalanilgan rangtasvirdagi badiiy usul. Bunda rangtasvirda ishlatilgan bo‘yoq biri ikkinchisi ustiga

qo'yilganda tagidagi rang qatlami ko'rinib turadi va rangni yanada boyitadi. Yoki rang kuchini susaytiradi. Lessirovka suv bo'yoq (akvarel) da ishlashda ko'p tarqalgan, moybo'yoqda esa oldingi kekxa rassomlar keng ishlatgan.

Lokal rang — (*fransuz so'zidan Local — mahalliy*) — 1) bir buyumga xos bo'lgan rang; 2) rangtasvirda qo'shni rangga nisbatan katta qismini tashkil qilib, rang tusi maydalab ishlanmaganligi.

Mazok — rang bo'yoqli moybo'yoq (kist)ning xolstda, kartonda va boshqalarda qoldirgan izi. Rangtasvirda ishlatiladigan bu usul (texnika) har bir rassomning o'ziga xos ehtirosiga bog'liq bo'ladi.

Masshtablilik — shakl va uning elementlarining insonga, atrof — fazoga va boshqa shakllarga nisbatan o'lchamliligi.

Modelirovka — (*italyan so'zidan modeliate — yasamoq*) — rassomchilik amaliyotida: bu relyefni tasvirlash, buyum shaklini tasvirlash va shaklni, qomatni u yoki bu yorug'likda tasvirini ko'rsatish. Chizmatasvirda modelirovka tus (yorug' — soya) berish orqali perspektivada shaklni o'zgarishini e'tiborga olib bajariladi. Rangtasvirda esa modelirovka rangda bajariladi. Bunda tus va rang bir-biri bilan uzviy bog'liq. Xaykaltaroshlikda shaklni uch o'lchamli ishlov berish orqali modelirovka amalga oshiriladi. Modelirovka darajasi rassomning fikriga va asar mazmuniga qo'ygan talabiga, maqsadiga bog'liqdir.

Mozaika — (*fransuzcha so'zdan mosaïque — rang-barang ish (asar), aralash*) — mahobatli rangtasvirning bir turi. Tasvirlashda har xil rangdagi tabiiy, sun'iy tosh (smalta), rangli oyna, kulol parchalaridan devorga yoki qattiq material jismlarga elim, sement kabi narsalar yordamida yopishtirilgan san'at asari.

Odatda mozaika rang va tusni nazarda tutib amalga oshiriladi.

Mozaikani vizantiya va florensiya turlari mavjud.

Mozaikaning muhim sifatlaridan biri kuchli bezak bo'lishidan tashqari u ko'p asrlar davomida o'z rangini o'zgartirmaydi.

Monoxrom — (*grekcha so'zdan monos — bir, chronos — rang*) — bir rangli demakdir.

Monumental — san'at (*mahobatli rangtasvir san'ati, lotincha so'zdan monumentum — yodgorlik*) — monumental san'at asari dastgohli rangtasvirdan farqi u arxitektura bilan bog'liq bo'lib devorga, shiftga ishlanishi va keng ommaga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Asar kompozitsiyasi tili sodda, aniq, rang chiroyli — bezakli bo'lishini talab qiladi.

Munosabat, nisbat (*otnosheniya*) — asar yaratishda foydalanilgan natura elementlarining o'zaro bog'liqligi. Masalan: rangtasvirda tus va rang munosabati, har xil yorqinlik nisbati. Chizmatasvirda o'lcham va shakl nisbatlari. San'atda taqqoslash usuli bilan aniqlanadi.

Tus va rang munosabatalari kontrast, o'tkir va yengil nyuansli bo'lishi mumkin.

Mastixin — rassom quroli, belcha.

Mazmun va shakl — san'atda o'zaro shartli kategoriya. Mazmun san'at asarida nima tasvirlanganini ko'rsatadi. Shakl esa qanday vositalar bilan amalga oshirilganini ko'rsatadi. Tasviriy san'atda mazmun shaksiz amalga oshirilishi inumkin emas.

Mato — rangtasvir asarini ishlashda foydalanadigan material.

Mo'yqalam — qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.

Nabroska — tez ishlangan xomaki chizmatasvir. Nabroskada shakl tasviri umumlashtirilgan bo'lib umumiy tasavvur beradi. Nabroska alohida ahamiyatga ega bo'lib kartina uchun bajarilishi mumkin.

Natyurmort — jonsiz tabiat demakdir.

Rangtasvir turlaridan biri bo'lib, buyumlar, meva-cheva, gul va hokazolarni ifodalovchi tasvir.

Nuqta, chiziq, dog' — tekislik kompozitsiyaning tashkil qiluvchi elementlari konfiguratsiyaga (nuqta, chiziq, dog') bog'liq holda tomoshabinga assotsiativ (hissiy) darajada, shuningdek, xotira darajasida ta'sir ko'rsatadi.

Obraz — (*badiiy*) — san'atda hodisalarning aks ettirilish shakli (formasi).

Ornament — (*lot. ornamentum* — «bezak») — bezakning turi, buyum, bino, kitob va shu kabi bezak elementlarining birlashuvi, turli tabiat va geometrik shakllarning qayta ishlab chiqilishi.

Nyuans — (*fransuzcha nuance* — *tus, xil*) — juda nozik tus yoki yorug'likdan soya qismiga engil tusning o'tishi.

Palitra — 1) rassomning rang bo'yoq aralashtrirish va bo'yoqlarini joylash uchun ishlatiladigan yog'och taxtacha; (yog'och, metall, farfor, plastmasa kabi ashyolardan bo'lishi mumkin). 2) biror kartinaning rang xarakteri majmuasi, jilosi.

Pastoznost — (*italyancha, pastoso* — *xamirsimon*) — bo'yoq quyuq holda relefli iz bilan surtilgan rangtasvir ishlash usuli.

Perspektiva — (*lotincha, perspecto* — *oxirigacha qarash, ko'rish* — 1) masofadan turib qaralgandagi buyum, shaklning o'lchami va shakli, shuningdek, rang ko'rinishi o'zgarishi. 2) odam ko'ziga shaklning bo'shliqda o'zgarishini tekislikda tasvirlash qonunini o'rganadigan fan. Perspektiva qonunlaridan foydalanib, buyumni bizga qanday ko'rinssa shunday tasvirlashga yordam beradi. Chizikli perspektiva buyum shaklini, o'lchamini va praporsiyasini (nisbatini) o'zgarishini, qisqarishini aniqlaydi. Rassomchilik amaliyo-

tida keng qo'llaniladigan kuzatish perspektivali buyum shaklini o'zgarishini tasvirlashga yordam beradi.

Perspektivada ishlatiladigan asosiy terminlardan: gorizont chizig'i — havoda shartli joylash, kuzatuvchi ko'z balandligidan o'tgan to'g'ri chiziqdir; kuzatish nuqtasi-rasm chizayotgan kishining o'rnini, markaziy uchrashuv nuqtasi — kuzatuvchining ko'zi ro'parasida gorizont chizig'ida joylashgan nuqta; ko'rish burchagi — shaklni to'la idrok qilish, ko'rish uchun zarur bo'lgan masofa burchagi. Havoiy perspektiva — buyumning yorug'lik darajasini, chegara chizig'ini va rang o'zgarishini aniqlaydi. Buyum kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo qatlamining ta'sirida o'zgarishidir.

Plastika — (*grekcha plastika — vayaniye*) — 1) rangtasvirida, chizmatasvirida va xaykaltaroshlikda buyumni shakllantirish, tasvirni hosil qilish; 2) ifodali rangtasvir ishlash yo'li, mo'yqalam bilan ishlashdagi yengillik, mohirlik; 3) haykaltaroshlikda, grafikada va tasviriy san'atda shaklning aniqlikka, ifodalikka erishish.

Plastichnost har xil san'at asarida alohida go'zallik, yaxlitlik, noziklik va modelirovkaning ravshanligi, buyumning rang yechimi, rang boyligi va tusdan tusga o'tish, kompozitsiyada chiziqlar, shaklning ifodaliligi va o'zaro aloqalari.

Plener — (*fransuzcha en plein air — toza havoda*) — tabiiy sharoitda, ochiq havoda rasm ishlash. Plener termini odatda peyzajda ishlatiladi.

Murakkab rang majmuasi va tus munosabatlarini, shuningdek, yorug' havo sharoitini aks ettiruvchi har qanday tasviriy san'at asariga aytish mumkin.

Podmalevka — ko'p qatlamli moybo'yoqda ishlangan kartinaning eng avvalgi boshlang'ich bosqichi. Boshqa rangtasvir texnikasida ham podmalevka ishlatilishi mumkin.

Podmalevka rangli yoki monoxramli (rangsiz, kulrang), bir tusli, yupqa rangli qatlamda yoki nisbatan quyuq bo'yoqda bajarilishi mumkin.

Poluten — (*yarimsoya*) — yorug'-soya elementlaridan biri. Poluten naturada, shuningdek, san'at asarida — buyum yuzasidagi to'q soya bilan yorug' qismi oralig'idir.

Poluton — (*yarim tus*) — yoritilgan buyum qismining ikki qo'shni kam kontrast tusi oralig'idagi o'tish tusi. Shaklda tusdan tusga katta yumshoqlik bilan o'tish modelirovkani nozik bo'lishiga yordam beradi.

Portret — (*fransuzcha portrait — tasvir*) — tasviriy san'at janri, ma'lum bir shaxs (odam) ning yoki bir necha kishining (ikki, guruh va boshqalar)ga bag'ishlangan asar.

Proporsiya — (*mutanosiblik*) — (*lotincha proportio — sorazmernost*) — qism o'lchovi, o'lchamlarning bir-biriga va butun shaklga bo'lgan nisbati. Rassom proporsiya yordamida buyum va qomat shaklini qurishda, asarning kompozitsiyasini tuzishda katta aniqlik kiritadi. Bunga tekislik shakli nisbati, fonga tasvir o'lchami nisbati, guruhlar nisbati kabilar kiradi.

Pastel — rangli qalamcha, bo'r. Shu qalamda ishlangan asarlar ham pastel deyiladi.

Pigment — turli bo'yoqlar kukuni.

Podrannik — chorcho'p, rasm ishlanadigan matoni tortib turadigan qurilma.

Polotno — bo'z matoga ishlangan rangtasvir asari.

Rang — moddalarning aks beruvchi yoki nurlanuvchi yorug'liklarining spektor tarkibi bilan muvofiqlikdagi ko'rish hissiyatini uyg'otuvchi xususiyati. Faol kompozitsion vosita sifatida foydalaniladi.

Rang tozaligi — berilgan rang umumiy yorqinligidagi spektral ulush. Eng toza ranglar bu spektral ranglardir.

Relyef — (*fransuzcha relief — bo'rtiq, hajmli*) — haykaltaroshlikdagi turi. Dumaloq haykaldan farqi relyef hajmi qisman tekislik ustidan bo'rtib turadi.

Relyef har xil ko'rinishda bo'lib: Barelyef (*fransuzcha «ba» past*) — tekislik sathidan o'z hajmining yarmiga yaqini turadi.

Gorelyef (*fransuzcha «go» — baland*) — shakl tekislik sathidan to'la chiqib turishi mumkin; chuqurlashtirilgan, ya'ni tekislik sathidan chuqur kesilgan bo'lishi mumkin.

Refleks — (*lotincha reflexus — qaytish*) — 1) rangtasvirda — kuchli yorug'lik bilan yoritilgan buyum sirtidagi soya qismida qo'shni turgan rang tusi, turi.

Rangli refleks buyumning tevarak-atrofidagi narsalar ta'sirida hosil bo'ladi.

Masalan: qizil mato qizg'ish refleks hosil qilishi mumkin.

Ritm (vazn) — (*grekcha rhithmicos — bir me'yordagi, tekis*) — asar kompozitsiya qurilmasining muhim tomonlaridan biri. Buyum, shakl, rang yoki naqsh elementlarining bir me'yorda takrorlanishi, ayniqsa monumental san'atda. Amaliy bezak san'atida va arxitekturada ko'p uchraydi. Tasviriy san'atda ritm murakkabroq bo'lib kartinada alohida ruh beradi. Ritm kompozitsiyada qomatlar guruhi harakatlarida, qo'l joylashuvi variantlarida, tus va rang takrorlanishida, shakllar joylashuvida bo'lishi mumkin.

Ranglar gammasi — rang tuslarining asosiy munosabatlari. Kartinada rang yechimi. *Masalan:* issiq yoki sovuq rang gammasi.

Sangina — qon so'zidan tashkil topgan atama. Jigarrang yoki qizg'ish bo'rsimon qalam.

* **Sous** — yumshoq qalam, shu qalam yordamida ishlangan asar ham, «sous» deyiladi.

Syurrealizm — o'ta realizm. Bu atama XX asr adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan. U Fransiyada vujudga kelgan bo'lib, olim Freyd g'oyasi va nazariyasiga suyananlar. Ya'ni san'atkorlar o'z asarlarida tabiiy tuyg'u, xayol va tushlarni aks ettirib, narsalar, hodisalarning shakl holatlarini mavhum tarzda ko'rsatishga alohida ahamiyat berishardi.

Svet (yorug'lik, nur) — tasviriy san'atda yorug'-soya elementi. Naturada ham, san'at asarida ham yuza(sirt)ning yoritilgan qismi uchun ishlatiladigan termin.

Svetlota (yorqinlik, ravshanlik) — yorug'-soyaga xos termin. Nafis tasviriy san'atda rangni ravshanlik darajasi. Yonma-yon turgan rang tusiga nisbatan rangni yorqinligini taqqoslash darajasi. Grafikada bir rang tusining ikkinchisiga nisbatan yorqinlik darajasidir.

Svetoten (yorug' — soya) — shaklda soya va yorug'lik nisbati, yorqin va qorong'u qirralar nisbati

Kompozitsiyaning muhim vositasidir. Tasviriy san'atda umumiy tus yechimida yorug'-soya buyum shaklini va materialligini ko'rsatishda muhimdir.

Yorug' — soya qirralari: nur, soya, yarinsoya, refleks, blik.

Siluet — (*fransuzcha silhouette — shakl ko'rinishi*) — naturada buyum yoki qomatning umumiy shakl ko'rinishi. Tasviriy san'atda shakl va buyumni detallarsiz yassi holda (to'q yoki och rang fonida dog' sifat) ko'rinishini nazarda tutiladi. Yorug'lik qarshisiga qo'yilgan buyum siluet bo'lib ko'rinadi. Grafikada qora tasvirlangan shakl profili siluet deb ataladi.

Simmetriya — (*grekcha summetria — tekis, bab-barobar, teng o'lchamli*) — kompozitsiyada yoki shakl tuzilishi markaziy o'q chizig'idan parallel, markazdan teng uzoqlikda qismlari joylashgan ko'rinishi. Masalan: silindr, ko'za, tuxum kabilar.

Simmetriya kompozitsiyasi amaliy bezak san'atida ko'p uchraydi. Nafis tasviriy san'atda va haykaltaroshlikda simmetriya asarni quruq va zerikarli qiladi. Chunki tasvirning jonli, hayotiyiligiga mos tushmaydi. Shakl tuzilishida simmetriya buzilsa, u holda assimmetriya deyiladi.

Stankoviy — Dastgohli rangtasvir san'ati. Dastgoh (stanok) nomidan olingan, asar nimada yaratilganligiga (haykaltaroshlikda) dastgoh, nafis tasviriy san'atda molbertga bog'liq. Dastgohli san'at asari mustaqil ahamiyatga ega. Uning g'oyaviy-badiiy tomonlari u turgan tevarak-atrof muhitga bog'liq emas. Monumental san'at asarida va amaliy bezak san'atida esa aksincha.

Staticnost — (*grekcha statos — harakatsiz turgan*) — dinamikaga qarama-qarshi harakatlanmaydigan.

Stil — (*fransuzcha style — manera dastxat*) *Stil (dastxat)* bir guruh rassomlarga yoki bitta rassomga xos bo'lishi mumkin. Agar uning ijodi keskin farq qilsa, faqat unga xos tomonlari mavjud bo'lsa, bunday rassomlar ham alohida dastxat (stil)ga ega bo'ladilar.

Sujet — (*fransuzcha sujet — predmet*) — 1) sujetli kartinada: tasviriy san'at asarida aniq voqeani ochib beradi. Bitta tema bir necha sujetda olib borilishi mumkin. Tasviriy san'atda sujet maishiy, tarixiy va jang janrlarida bo'lishi mumkin; 2) sujet keng ma'nodagi har qanday tirik natura yoki buyumlar olami, tasvirlash uchun shakl tushuniladi. Ba'zi holda sujet deganda asarga asos bo'lgan motiv, manzara tushunchasi o'rin oladi.

Tea — (*soya*) — tasvirda va naturada kam yoritilgan qismining yorug'-soya elementi. Shaxsiy soya va tushgan soya turlari mavjud. Shaxsiy-soya buyumning o'zida joylashgan.

Buyumning tevarak-atrofga, yerga tushgan soyasi tushgan soya deyiladi.

Tekstura — predmetda ishlatilgan xomashyo tuzilishining yuzada kuzatiladigan tashqi alomatlari.

Ton — (*tus, rang*) — (*fransuzcha — ton — bo'yoq berish*) — naturadagi buyum (predmet) va san'at asaridagi rangga xos yorqinlik, ravshanlik darajasi.

1) chizmatasvirda bir rang (monoxrom) tusi;

2) rangtasvirda rang kuchi, rang quyuqligi tushuniladi. Rangtasvirda rang va yorug'-soya munosabatlari uzviy bog'liq;

3) rang tusi — rangning muhim sifati;

4) umumiy rang tusi tushunchasi rang chashmasi terminiga mos.

Tus (Ottenok) — 1) natura (shakl) ning tevarak-atrof ta'sirida rang o'zgarishi; 2) rangni, rang quyuqligini, rang yorqinligini, tusini kichik farqlari.

Masalan: qizil rangni qizg'ish rangdan farqi, sariq rangning limon sarig'idan farqi; 3) Sovuq rangning issiq rangga o'tish jarayoni.

Transformatsiya — predmet shaklining zarur shaklga o'zgarishi: aylantirish, cho'zish, ba'zi qismlar o'lchamida kattalashtirish yoki kichiklashtirish.

Fazoviy planlar (reja) — 1) naturalarga qaraganimizda fazoga joylashgan buyumlar shartli ravishda maydonlarga bo'linadi; 2) kartina bo'shlig'idagi tasvirning har xil darajadagi uzoqlashuvi. Odatda bir necha planlar farqlanadi: birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki oldingi, o'rta, uzoq planlari. Ularning soni har xil bo'lishi tasvirlanayotgan obyektga, ijodiy g'oyaga bog'liq; 3) modelirovkada, fazoda har xil joylashgan shakl qismlarini shakl planlari deb yuritiladi.

Faktura – (*lotincha – factura – ishlov berish*) – 1) ashyo (material)ning xarakter xususiyati, naturada buyumning sirti va uning san'at asaridagi tasviri (masalan: kartinada yoki naturada shisha ko'zaning yaltiroq sirti, yuzasi);

2) materialning ishlov berilganlik xususiyati, materialning xarakterli sifati (masalan: nafis tasviriy asar fakturasi – bu mezon (*iz*), bo'yoq qatlarning xarakteri. U silliq, g'adir-budir, relefli va shu kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin, haykaltaroshlikda – ishlov berilgan tosh, yog'och va boshqalarning yuzasidir).

Faktura rassom o'ziga xos ishlov berish uslubi bo'lishi mumkin. Shuningdek, qanday bo'yoqdan foydalanilganiga bog'liq.

Fon – (*fransuzcha – fond – tag, chuqurlik qismi*) – naturada va tasviriy san'atda shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san'atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bo'lishi mumkin.

Forma – (*lotincha – forma – tashqi ko'rinish*) – 1) tashqi ko'rinish, qiyofa; 2) tasviriy san'atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytiladi. Tasviriy san'atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatligi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g'oya mujassamligidir.

Fragment – (*lotincha – fragmentum – bo'lakcha*) – asarning bir qismi, bo'lakchasi.

Frontal kompozitsiya – elementlarning tomoshabinga nisbatan ikki yo'nalishda: vertikal va gorizontal bo'lishi. Shaklning chuqurlikka kirib borishi bo'ysungan ko'rinishda bo'ladi.

Xromatik rang – (*grekcha – chromos – rang*) – har xil tUSDagi ranglar. quyosh spektri ranglari (qizil, sariq va boshqalar). Rang doirasidagi issiq va sovuq ranglar guruhi. Axromat rangga – oq, qora, kulrang turlari kiradi. Ular rangsiz bo'lib, faqat tusi bilan farq qiladi.

Hajmiy – fazoviy tuzilish – kompozitsiyaning shakl va fazo orasidagi o'zaro aloqa, munosabatini belgilovchi kategoriyasi.

Hajmiy kompozitsiya – uch fazoviy koordinatlar bo'yicha rivojlangan shakl, nisbatan yopiq yuzaga ega va uch tomondan idrok qilinadi.

Chiziq – tasvirning asosiy elementi. Tasvirning mustaqil badiiy elementi sifatida chiziqli ornament yoki predmet tasviri badiiy elementi sifatida qo'llaniladi.

Chuqurlashgan fazoviy kompozitsiya – material elementlari va fazodan, ular orasidagi intervaldan tashkil topadi.

Shakl – buyumning ma'lum kattalikdagi nuqtalar, chegara chiziqlari, yuzalar burchaklari, shakllar, hajmlarning material munosabatlari sistemasi sifatidagi fazoviy qurilishi.

Shtrix – (*nemischa – strich – chiziq*) – chizmatasvirda tasvirlash vositalardan biri.

Svet (*rang*) – nafis tasviriy san’atda asosiy badiiy vosita. Tasvirda shakllar olamini, har xil xususiyatini tasvirlashda rang turlari muhim rol o’ynaydi

Rang – badiiy obraz yaratishda asosiy vositadir. Rang kuchining odamga ta’siri nihoyatda kuchlidir. Kompozitsiyaning muhim elementi.

Eskiz – (*fransuzcha – exguisse – nabrosok (qoralama)*) – ijodiy g’oyaning asar uchun bajarilgan qoralamalari.

Eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. Eskiz bir necha variantda bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilinib olinadi.

Estetika – (*grekcha – aisthetike*) – hayotda va tasviriy san’atda go’zallik haqidagi fan. Estetika borliqqa san’atning munosabati, badiiy ijod qonunlari asosini, ijtimoiy hayotda san’atning rolini o’rganadi. Go’zallik – estetika keng ahamiyatini o’rganadi.

Etyud – (*fransuzcha – o’rganish, mashq qilish*) – naturadan bajarilgan ish (rasm). Ba’zi hollarda eskiz mustaqil ahamiyatga ega. Rassom etyud orqali tabiatni, naturani o’rganadi, mashq qiladi. Kelajak asari uchun ma’lumot yig’adi va ranglarini aniqlaydi. Etyud san’atning hamona turida mavjud.

Tasviriy san’atda esa, rassom izlanishlari mashqlari, biror narsalarning o’ziga, asliga qarab, odatda biror katta asar yaratish uchun ashyo bo’lib xizmat qiladigan dastlabki rasm.

Eksperssiya – shijoat, shiddat, tezkorlik, ifodalilik, fikr, kayfiyat va his – tuyg’ularning yorqin namoyon bo’lishi.

Etyudnik – mo’yqalam, bo’yoq, qalam, palitra va qog’ozlar turadigan quti. U dastgoh vazifasini ham o’taydi.

Qomat – kishilarning umumiy ko’rinishi.

ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* «Ma'naviy yuksalish yo'lida». IT.Uz. Nashr.1998
2. *Karimov I.A.* «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». – T.: «Ma'naviyat». 2008.
3. *Barkamol avlod orzusi.* Toshkent «Sharq» 1999.
4. *Richard Shmidt.* «ALLA PRIMA».
5. *Klaus Reichold, Bernhard Graf.* PAINTINGS that Changed the World.
6. *Арюшин Л.Ф.* «Световедение». Москва. Книга. 1982.
7. *Аксенов Ю, М. Левидова.* «Свет и линия». Москва. «Художник». 1986.
8. *Зайцев А.* «Наука о свете и живописи». Москва. «Искусство». 1986.
9. *Ikromjonov A.T.* «Rangtasvirda etyud». Toshkent 2003.
10. *Иконников А., Степанов Г.* «Основы архитектурной композиции». Искусство. Москва. 1971.
11. *Kuzin V.S.* «Psixologiya». Moskva. 1982.
12. *Королюкова Е.Ф.* «Декоративная живопись». Ташкент. 2012.
13. *Nabiyev M.* «Rangshunoslik». Tashkent. O'qituvchi. 1995
14. *Smolina N.I.* Tradisii simmetrii v arxitekture. Moskva. 1990.
15. *Тютюнник В.В.* «Материалы и техника живописи». Издательства Академии художеств. Москва. 1992.
16. *Фрилит Г., Ауер К.* «Человек – свет – пространство». Москва. 1973.
17. *Xudayberganov R.* «Rangshunoslik». Toshkent. 2004.
18. *Xudayberganov R.* «Kompozitsiya». Toshkent. 2004.
19. *Xudayberganov R.* «Tasviriy san'atda rang». Toshkent. 2005.
20. *Xudayberganov R.* «Rangshunoslik asoslari». Toshkent. 2006.
21. «ЖИВОПИС». Под редакции Иогонсона.
22. *Шорохов Е.В.* Основы композиции. Москва. 1979.

MUNDARIJA

I BOB

Kirish	3
1.1. Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari haqida.....	6
1.2. Kompozitsiya asoslari haqida.....	10
1.3. «Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari» faninnig maqsadi va vazifalari.....	12

II BOB

2. 1. Rangni his qilish (Axtomatik va xromatik ranglar)	14
2.2. Bir vatqning o'zida taqqoslash (yoki solishtiruv).....	17
2.3. Ranglarning asosiy xususiyatlari	22
2.4. Umumiy rang va tuslar holati	25

III BOB

3.1. Ranglar doirasi.....	27
3.2. Qo'shimcha ranglar hosil qilish	28
3.3. Kontrast ranglar topish	31
3.4. Ranglarning tusi (oqartirish, qoraytirish)	32
3.5. Ranglarning yaqin yoki uzoqlashganligi	34
3.6. Ranglarni aralashtirish	35
3.7. Rang munosabatlarining proporsionalligi	41

IV BOB

4.1. Rangning ruhiy ta'siri	45
4.2. Rang koloritini hosil qilish	49
4.3. Rang estetikasi	54
4.4. Yorug'lik ta'sirida rang holati	56
4.5. Ranglarga fon tusining ta'siri	58
4.6. Ranglar tusini to'liq taqin qilish (amaliy tavsiyalar)	60

V BOB

5.1. Rang bilan ishlash	64
5.2. Guash bilan ishlash	67
5.3. Moybo'yoq bilan ishlash	69
5.4. Ranglardan kompozitsiya tuzish	73
5.5. Rang va faktura	74
5.6. Rangshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar	75

5.7. Rangshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.....	76
--	----

VI BOB

6.1. Badiiy obrazlarning ifoda vositalari va qurollari.....	80
6.2. Tekislik va fazo	88
6.3. Fazoviy qurilma	89
6.4. Chiziqlar (liniya)	91
6.5. Yorug'lik, soya, rang	92
6.6. Faktura va tekstura	93

VII BOB KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNLARI

7.1. Kontrastlar.....	96
7.2. Stilizatsiya.....	100

VIII BOB

8.1. Kompozitsiyaning xususiyati	101
8.2. Yaxlitlik va o'zaro bog'liqlik	102

IX BOB

9.1. Kompozitsiya elementlari	106
9.2. Simmetriya	107
9.3. Assimmetriya	108
9.4. Ritm, harakat (dinamichnost) va tinch (statikani tasvirlash) holati	109
9.5. Birik va bir-biriga bo'ysunish. Kompozitsiya markazi.....	114

X BOB

10.1. Kompozitsiya vositalari	116
10.2. Massstab va masshtablilik	120
10.3. Kompozitsiyada ritm (vazn)	122

XI BOB

11.1. Murakkab shakl va uni tashkil qilish usullari	125
11.2. Simmetriya, assimmetriya va ularning kombinatsiyasi	130
11.3. Amaliy vazifalarga uslubiy ko'rsatmalar	122
AMALIY TAVSIYA VA ILOVALAR	140
Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati	178
Adabiyotlar	189

**Rustam Adambayevich
XUDAYBERGANOV**

**RANGSHUNOSLIK
VA
KOMPOZITSIYA ASOSLARI**

*Muharrir Javlon Yaxshiboyev
Badiiy muharrirlar Nasiba Ergasheva,
Maftuna Vaxxobova
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhah Javlon Yaxshiboyev
Sahifalovchi Gulchehra Azizova*

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2019-yil 19-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆. Ofset qog'oz. Tayms TAD garnituras. Shartli bosma tabog'i 11,16. Nashr tabog'i 11,49. Shartnoma № 121-2019. Adadi 100 nusxada. Buyurtma № 31.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tezkor matbaa bo'limida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: +998-71244-10-45. Faks: +998-71244-58-55.



*Cho'pon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-6134-5-4



9 789943 613454